Sintez jarayonida xosil bo'lgan moddalarning, haqiqatdan ham xosil bo'lganligiga ishonch xosil qilish uchun fizik-kimyoviy usullarga murojat qilingan. Dastlabki tekshirish ishlari yupqa qatlamli xromatografiyasi o'rganildi. Moddalarni tozalash, ularni bir-biridan ajratish va aniqlash usullaridan biri xromatografik analiz usuli hisoblanadi. YuQX silufolda turli erituvchilarda tekshirib ko'rildi. Erituvchilar xuddi organik moddalar kabi molekularning qanchalik qutbli bo'lishiga qarab, shunchalik kuchli adsorbsiyalanadi. Ko'pincha ikkita yoki uchta turli qutbli erituvchi sistemalari yaxshi ajralishni taminlaydi[4]. Erituvchi tanlash uchun mikrosirkulyar usuldan foydalanildi. Mikrosirkulyar uslubda xromatografiya plastinkasiga odatdagidek, 4 sm masofada aralashmaning bir necha namunalari qo'yiladi. So'ngra ingichka kapilyar bilan modda aralashmasi qo'yilgan har bir nuqtaning markaziga diametri 2 sm nam halqa hosil qilish uchun yetarli miqdorda tekshirilayotgan erituvchi yoki erituvchi sistemasi qo'yiladi. Plastinka quritildi va yod yordamida ochildi. Bunda aralashmaning ayrim kamponentlari umumiy markazga ega bo'lgan halqalar ko'rinishida aniqlandi. Moddalar ajralishi yaxshi bo'lgan sistemalar tanlab olindi. Bunda quyidagi erituvchi sistemalari tekshirildi: geksan va aseton (2:1; 5:2; 4:1; 7:3; 9:1), xloroform va efir (5:2), tetraxlorometan va efir (3:2), heptan va efir (1:4), xloroform va metanol (50:4), heptan va aseton (98:2), etanol va suv (1:1), geksan va sirka kislotasi (20:3; 49:10,5), geksan va efir (1:1; 4:1). Erituvchi sistemalari tayyorlangandan so'ng silufolda boshlanish va tugash chiziqlari chizildi. Boshlanish chizig'iga reaksiyaga kirishgan ikki boshlang'ich moddalar va ular reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan yangi modda kapilyar yordamida tomizildi. So'ngra, kalonkaga joylashtirilib, erituvchi sistemasi tugash chizig'igacha shimilishi kutildi. Yodli kalonkada ochiltirildi va  $R_f$  qiymatlari aniqlandi.


#### O-xloratsetiltimolva para-aminoazobenzol reaksiyasidan para-aminoazobenzolning to'rtlamchi tuzini olish

Magnitli aralashtirgichga o'rnatilgan tagi tekis, hajmi 100 ml li kolbaga 0,01 mol para-aminoazobenzol va 0,01 mol O-xloratsetiltimol solindi va ustiga 10 ml atseton solib, 4 soat davomida 70°C haroratda magnitli aralashtirgich bilan aralashtirildi. Bu vaqt ichidapara-aminoazobenzol to'liq erib ketdi. Reaksiya tugagach, reaksiya aralashmasi filtrlandi. Olingan birikma quritildi, qoldiq xona temperaturasigacha sovutilganda kristallandi va u etanolda qayta kristallab tozalandi. Suyuqlanish temperaturasi 53°C (etanol). Mahsulot unumi 0,4 g (71%).

#### O-xloratsetiltimol va siklofosfamid reaksiyasidan siklofosfamidning to'rtlamchi tuzini olish

Magnitli aralashtirgichga o'rnatilgan tagi tekis, hajmi 100 ml li kolbaga 0,01 mol siklofosfamid va 0,01 mol O-xloratsetiltimol solindi va ustiga 10 ml atseton solib, 4 soat davomida 70°C haroratda magnitli aralashtirgich bilan aralashtirildi. Bu vaqt ichida siklofosfamid to'liq erib ketdi. Reaksiya tugagach, reaksiya aralashmasi filtrlandi. Olingan birikma quritildi, qoldiq xona temperaturasigacha sovutilganda kristallandi va u etanolda qayta kristallab tozalandi. Suyuqlanish temperaturasi 55°C (etanol). Mahsulot unumi 0,49 g (68%).


**Tahlil va natijalar.** Para-aminoazobenzol biologik jihatdan faol birikma bo'lganligi sababli uning turli birikmalarini sintez qilish va ularning xossalari o'rganish nazariy va amaliy jihatdan ahamiyat kasb etadi [5].



Olingan para-aminoazobenzolning to'rtlamchi tuzini sintez qilish maqsadida monoxlorosirka kislotasi efirlarining eritmasini para-aminoazobenzol eritmasiga qo'shib yuqorida keltirilgan metodika asosida 3 soat davomida qizdirildi. Reaksiya natijasida para-aminoazobenzolning to'rtlamchi ammoniy tuzlarining kristallari hosil bo'ldi. Bu jarayonda reaksiya aralashmaning qizishi kuzatilmadi. Ushbu holatni hajmi katta bo'lgan butil guruhining azot atomidagi bo'linmagan elektron juftga fazoviy ta'sir ko'rsatishi bilan tushuntirish mumkin. Ushbu reaksiyalarda ham reaksiya mahsulotining unumiga reaksiya harorati, reagentlarning mol nisbatlari va erituvchilarning ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar ushbu reaksiyalar uchun etanolning maqbul erituvchi ekanligini, reagentlarning optimal nisbati esa para-aminoazobenzol : MXSK efiri 1:2 bo'lganda reaksiya mahsulotining yuqori unum bilan hosil bo'lishini ko'rsatdi. Avvalgi reaksiyalardan farq qilib ushbu reaksiyalar 78-80 °C da yuqori unum bilan borishi aniqlandi. Olingan birikmalarning tuzilishi zamonaviy fizik kimyoviy tadqiqot usullari bilan o'rganildi. N-butil- N-karboksibenzilmetil para-aminoazobenzolinii xlorid tuzining unumi (0,4 g) 71%. T.suyuq =53 °C.

**Siklofosfamidning to'rtlamchi ammoniy tuzlari sintezi.** Aminlar va ularning hosil qilgan birikmalari xalq xo'jaligida juda keng qo'llaniladi [6, 7]. Jumladan, aminlar va turli kislotalarning efirlari, galogen organik birikmalar ishtirokida olinadigan to'rtlamchi ammoniy tuzlari bugungi kunda xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llanilmoqda [8, 9]. Siklofosfamidning

efirlar bilan reaksiyalari etanol, atseton va etilatsetat erituvchilari muhitida o'rganildi. Tajriba davomida monoxlorsirka kiltosining efirlari va siklofosfamidning mol miqdorlarini turli (1:1, 1:1,5, 1:2) nisbatlarda olindi. Reaksiyani olib boorish uchun hajmi 100 ml bo'lgan tubi yumaloq kolbaga siklofosfamid eritmasi bilan aralashtirib turgan holda monoxlorsirka kislotasi efirining eritmasidan qo'shildi. Mahsulot unumini oshirish maqsadida reaksiyani turli haroratlarda olib borildi.



Reaksiya tugagach, reaksiyon aralashmani petri chashkasiga quyib eksikatorida 24 soat davomida xona haroratida qoldirildi, natijada kristall shakldagi tuzlar hosil bo'ldi.

O'tkazilgan tajribalar natijalaridan xulosa qilish mumkinki, monoxlorsirka kislotasi efiri tarkibidagi alkil (aril) radikalining mahsulot unumiga ta'siri deyarli sezilmaydi. Reaksiyalar 60°C haroratda, etanol erituvchisida moddalar nisbatlari 1:2 bo'lganda mahsulotlarning unumlari yuqori bo'lishi aniqlandi. Olingan birikmalarning fizik kattaliklari o'lchandi va tuzilishi UB-, IQ- va YaMR-spektroskopiya usullari yordamida tasdiqlandi [10]. Olingan birikmalarning tuzilishini zamonaviy fizik kimyoviy tadqiqot usullari bilan o'rganildi. Mahsulotlarning IQ-spektrlarida 1454, 1517, 1552, (aromatik halqadagi C=C), piridin molekulasida joylashgan C=C bog' uchun tebranishi, 1604 N=C bog'lanish uchun tebranishni ko'rish mumkin. 1644 (N+=C). 1H YaMR spektrida esa (400 MGs, CDCl<sub>3</sub>, m.d., J/Gs):- δ: 5.46 m.u. da N<sup>+</sup>-CH<sub>2</sub>- bog'lanishdagi 2 ta N atomiga, 7.55 m.u.da piridin halqasidagi 2- va 3- N atomlariga tegishli signallar mavjud. IQ-spektri: 1613, 1586, 1485, 1384 sm<sup>-1</sup> kabi yutilish sohalarida esa o'rtacha intensivlikdagi aromatik halqaga tegishli bo'lgan halqa tebranish kuzatiladi. 3064 sm<sup>-1</sup>, 3030 sm<sup>-1</sup> yutilishsohalaridamoddatarakibidagi aromatikhalqadagi =C-H bog'lariga tegishli bo'lgan past intensivlik yutilish chiziqlari ko'rinadi.

1H YaMR spektri (400 MGs, CD<sub>3</sub>OD, m.d., J/Gs): 1.39 (4H, s, CH<sub>3</sub>), 2.10 (d 4H(CH<sub>2</sub>)<sub>2</sub>), 3.56 (s, 2H N-CH<sub>2</sub>), 3.88 (2H, s, N-CH<sub>2</sub>), 5.26 (1N, d, J=7.0), 7.29-7.35 (m 4H, ArH), 7.95 (d J=7.0, 1H, 6H).

Ushbu birikmaning PMR spektrida MXSK ning fenil efiriga xos bo'lgan protonlar uchun 7.29-7.35 (m 6H, ArH), 7.95 (d J=7.0, 1H, 6H) m.u.da signallar kuzatildi. Tuz hosil bo'lganligini 3.88 (s, 2H N-CH<sub>2</sub>) protonlarning signallari orqali isbotlash mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Adabiyotlar tahlili natijasida timolning kimyoviy xossalari va u asosida olib boriladigan reaksiyalarning xususiyatlari o'rganilgan. Xloratsetillash va nukleofil almashinish reaksiya mahsulotlarining yupqa qatlam xromatografiyasi o'rganildi va ularning tarkibi guvoh moddalar yordamida tasdiqlandi. O-xloratsetiltimolning para-aminoazobenzol va siklofosfamidlar bilan nukleofil almashinish reaksiyalari o'rganildi. Nukleofil almashinish reaksiyani olib borishning qulay sharoitlari izlab topildi va adabiyotda ma'lum bo'lmagan 2 ta yangi modda sintez qilindi. Sintez qilingan moddalarning tuzilishi UB-, IQ va YaMR- spektrlari yordamida isbotlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдушукуров А.К., Ахмедов Қ.Н., Маматкулов Н.Н., Чориев А.У. p-Метоксифенолни каталитик миқдордаги катализаторлар иштирокида хлорацетиллаш // Вестник НУУз. 2010, №4, С. 101-103.
2. Normurodov I.O., Choriyev A.U., Xudoyberdiyeva O.O., Abdushukurov A.K. 2-izopropil-5-metilfenil 2-((diitilkarbamotioyel) tio) asetat sintezi // FarDU. ILMIY XABARLAR. 2024/№1. B. 34-38.
3. Эсанов Р.С., Далимов Ш.И., Гафуров М.Б., Далимов Д.Н. Глициррет кислотасининг қатор аминлар билан янги амидлари синтези // ЎзМУ хабарлари. 2015 й. Тошкент. №3/1. Б.190-193
4. Сумина Е.Г., Штыков С.Н., Углонова В.З., Кулакова Н.В. Тонкослойная хроматография. Теоретические основы и практическое применение. Саратов. Издательство Саратовского государственного университета. 2012. 128 с.
5. Schalley, C.A. Thematic series on supramolecular chemistry. Beilstein J. Org. Chem., 2009, vol. 76, no. 5, pp. 1-9. DOI: 10.3762/bjoc. 5.76
6. Sokhraneva V.A., Yusupova D.A., Boriskin V.S., Groza N.V. Obtaining substituted phenol derivatives with potential antimicrobial activity. Tonk. Khim. Tekhnol. = Fine Chem. Technol. 2022;17(3):210-230 (Russ., Eng.). <https://doi.org/10.32362/2410-6593-2022-17-3-210-230>
7. Эсанов Р.С., Юлдашев Х.А., Гафуров М.Б., Матчанов А.Д. 3-ацетоксиглициррет кислотасининг 2-амино-5-(алкил) 1,3,4-тиадиазоллар билан амидлари синтези // Ўзбекистон кимё журналы. 2019 й. Тошкент. №2. Б.42-48.
8. Brotzman, N., Xu, Y., Graybill, A., Cocolas, A., Ressler, A., Seeram, N.P., Ma, H., Henry, G.E., 2019. Synthesis and tyrosinase inhibitory activities of 4-oxobutanoate derivatives of carvacrol and thymol. Bioorg. Med. Chem. Lett. 29, 56-58. <https://doi.org/10.1016/j.bmcl.2018.11.013>.
9. Islam, M.T., Khalipha, A.B.R., Bagchi, R., Mondal, M., Smrity, S.Z., Uddin, S.J., Shilpi, J.A., Rouf, R., 2019. Anticancer activity of thymol: A literature-based review and docking study with Emphasis on its anticancer mechanisms. IUBMB Life 71, 9-19. <https://doi.org/10.1002/iub.1935>.
10. Field L.D., Sternhell S., Kalman J.R. Organic Structures from Spectra, 3rd edn, Wiley, 2003. 630 p.



UDK: 615:547:635.8

**Alimujiang ABULIZI,**

*O'simlik moddalari kimyosi instituti tayanch doktoranti*

*E-mail: atux@ms.xjb.ac.cn*

**Ravshanjon XALILOV,**

*O'simlik moddalari kimyosi instituti yetakchi ilmiy xodimi, texnika fanlari doktori*

**Zhao JIANGYU,**

*Shinjon Fizika va kimyo texnik instituti ilmiy xodimi, PhD*

**Salikhjan MAULYANOV,**

*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti*

**Shomansur SAGDULLAEV,**

*O'simlik moddalari kimyosi instituti bosh ilmiy xodimi, akademik*

*Kimyo fanlari doktori, professor T.Xoliqov taqrizi asosida*

#### DETERMINATION OF TECHNOLOGICAL PARAMETERS OF EXTRACTION OF FLAVONOIDS QUERCETIN-3-O-SOPHOROSE AND KAEMPFEROL-3-O-SOPHOROSIDE FROM ROSA RUGOSA LEAVES

Annotation

The factors influencing the extraction process of flavonoids quercetin-3-O-sophorose and kaempferol-3-O-sophoroside from *R. rugosa* leaves were studied, and the following optimal conditions were selected: process time – 1 hour; degree of grinding of raw materials – 6 mm; process temperature – 70 °C; ratio of raw materials and solvent – 1: 20. Studying the dynamics of the extraction process of *R. rugosa*, it was concluded that the extraction of flavonoids from the leaves of *R. rugosa* should be carried out twice. It was found that these conditions make it possible to isolate 94.5% of the flavonoids quercetin-3-O-sophorosido and kaempferol-3-O-sophorosido from the content in the raw material.

**Keywords:** *Rosa rugosa* – Japanese rose, flavonoid, extraction, mathematical modeling, the Box-Wilson method.

#### ОПРЕДЕЛЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭКСТРАКЦИИ ФЛАВОНОИДОВ КВЕРЦЕТИН-3-О-СОФОРОЗ И КЕМПФЕРОЛ-3-О-СОФОРОЗИД ИЗ ЛИСТЬЕВ ROSA RUGOSA

Аннотация

Изучены факторы, влияющие на процесс экстракции флавоноидов кверцетин-3-О-софорозы и кемпферол-3-О-софорозида из листьев *R. rugosa*, и выбраны следующие оптимальные условия: время прохождения процесса – 1 час; степень измельчения сырья – 6 мм; температура процесса – 70 °C; соотношение сырья и растворитель – 1: 20. Изучая динамику процесса экстракции *R. rugosa* был сделан вывод, что экстракцию флавоноидов из листьев *R. rugosa* необходимо проводить дважды. Установлено, что эти условия позволяют выделить 94,5% флавоноидов кверцетин-3-О-софорозида и кемпферол-3-О-софорозида от содержание в сырье.

**Ключевые слова:** *Rosa rugosa* – Роза морщинистая, флавоноид, экстракция, математическое моделирования, метод Бокса - Уилсона.

#### ROSA RUGOSA BARGLARIDAN KVERTSETIN-3-O-SOFOROSID VA KEMPFEROL-3-O-SOFOROZID FLAVONIDLARINI EKSTRAKTSIYASINING TEXNOLOGIK KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH

Annotatsiya

*R. rugosa* barglaridan kvrtsetin-3-O-soforosid va kempferol-3-O-soforozid flavonoidlarini ekstraktsiya qilish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar o'rganildi va quyidagi maqbul sharoitlar tanlab olindi: jarayonni borish vaqti – 1 soat; xomashyo maydalik darajasi – 6 mm; jarayonni olib borish xarorati – 70 °C; xomashyo va erituvchi nisbati – 1:20. Ekstraktsiya jarayonini dinamikasini o'rganish orqali *R. rugosa* barglaridan flavonoidini ekstraktsiyasi ikki marta amalga oshirish lozim degan xulosaga kelindi. Mazkur sharoit xomashyoda saqlanishiga nisbatan 94,5% kvrtsetin-3-O-soforosid va kempferol-3-O-soforozid flavonoidlarini ajratib olish imkonini berishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** *Rosa rugosa* – Ajinli atirgul, flavonoid, ekstraktsiya, matematik rejalashtirish, Boks–Uilson usuli.

**Kirish.** Ekstraktsiya jarayonida biologik faol moddalarni maksimal miqdorda ajratib olish uchun ekstraktsiya vaqti, harorat va maqbul erituvchi tanlash kabi omillarni ta'sirini o'rganish muhim hisoblanadi. Shu munosabat bilan biologik faol moddalarni ajratib olishning zamonaviy, samarali usullarini tahlil qilish, izlash va ekstraktsiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni tanlash farmatsevtika sanoatining asosiy vazifasidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ajinli atirgul – *Rosa rugosa* Thunb. (ra'noguldoshlar – Rosaceae oilasi) o'simliginig boy tarkibi sabab so'ngi yillarda mazkur o'simlikning biologik faol moddalari asosida turli dori vositalari yaratish borasidagi ilmiy izlanishlar ortmoqda. *R. rugosa* o'simligining flavonoidlari sut bezi yallig'lanishida, gipoglikemiyada, yurak-qon tomir va



serebrovaskulyar kasalliklarida, asab tizimi va jigar kasalliklarini davolashda samarali ekanligi ko'rsatib o'tilgan [1, 2]. Shuning uchun *R. rugosa* flavonoidlari asosida quruq ekstraktlar olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.


**Tadqiqot maqsadi.** *Rosa rugosa* barglaridan kversetin-3-o-soforosid va kempferol-3-o-soforozid flavonoidlarini samarali ekstraksiya qilishning maqbul sharoitlarini aniqlash.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ajinli atirgul – *Rosa rugosa* barglari 2023 yilda may oyining uchinchi o'n kunligi va iyun oyining birinchi o'n kunligi davrida Xitoyning Urunchi (Shinjon) shaxri atrofida terildi. Terilgan xomashyo salqin, quyosh nuri tushmaydigan joyda quritildi.


*R. rugosa* barglaridan kversetin-3-o-soforosid va kempferol-3-o-soforozid flavonoidlarini ekstraksiya jarayonini maqbul sharoitlarini aniqlashda bir omilli tajribalar [3, 4], ko'p omilli tajribalar matematik rejalashtirishning Boks-Uilson usuli orqali [4, 5] da keltirilgan usullar orqali amalga oshirildi.

Sinov namunalarini tarkibidagi kvertsetin-3-O-soforosid va kempferol-3-O-soforozid miqdori tashqi standart usuli yordamida yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (YuSSX) uskunasi aniqlandi. Shu maqsadda Xitoyning "Sichuan Wekeqi Biotechnology Co., Ltd." kompaniyasidan olingan tegishli tozalikdagi kvertsetin-3-O-soforosid va kempferol-3-O-soforozid standart namunasi qo'llanildi va uskuna standartga muvofiq kalibrlandi. Xromatografiya yuqori bosimli nasosli xromatografda, o'zgaruvchan to'liq uzunligiga ega UF detektorli, Shim-pack GIST C18 ( $4,6 \times 250$  mm, 5 mikron) kolonkali xromatografda (Shimadzu) amalga oshirildi. Xromatografiya vaqtida kolonna harorati  $30^{\circ}\text{C}$ . Namunani yuborish hajmi 5 ml. xona haroratida olib borildi. UFni aniqlash 360 nm to'liq uzunligida amalga oshirildi. Qo'zg'aluvchan faza sifatida 0.2% chumoli kislotaning suvli eritmasi va atsetonitril qo'llanildi.


**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari asosida *R. rugosa* barglaridan kversetin-3-o-soforosid va kempferol-3-o-soforozid flavonoidlarini ekstraksiyasi 70%-li etil spirti bilan amalga oshirish lozim degan xulosaga kelindi (1-rasm). Bunda xomashyo maydalik darajasi 4-6 mm (2-rasm) va jarayonni olib boirish harorati  $65 \pm 5^{\circ}\text{C}$  (3-rasm) bo'lishi kerakligi belgilandi.



1-rasm. *R. rugosa* barglaridan flavonoidlar ekstraksiyasi unumiga etil spirti konsentratsiyasining bog'liqligi



2-rasm. *R. rugosa* barglaridan flavonoidlar ekstraksiyasi unumiga xomashyo maydalik darajasining ta'siri



3-rasm. *R. rugosa* barglaridan flavonoidlar ekstraksiyasi unumiga haroratni ta'siri

Yuqoridagilarni inobatga olib *R. rugosa* barglaridan kversetin-3-o-soforosid va kempferol-3-o-soforozid flavonoidlarini samarali ekstraksiya qilishning maqbul sharoitlarini aniqlash uchun ko'p omilli tajribalar Boks-Uilson usuli yordamida matematik rejalashtirilgan holda amalga oshirildi.

Rejalashtirishning ko'rsatkichi sifatida fazalarning birinchi ta'sir vaqtidagi xomashyoda saqlanishiga nisbatan flavonoidlar unumi olindi. Tajribalar uchun 0,5 kg dan xomashyoni olib, ekstraksiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni o'zgartirgan holda bir marta ekstraksiya qilib olib borildi.

Omillarga pog'ona chegaralari (yuqori va pastki) va ular orasidagi o'zaro farq quyidagicha belgilab olindi (1-jadval).

1-jadval

Ta'sir qiluvchi omillarning ko'rsatkichlari

Ta'sir qiluvchi omillarning ko'rsatkichlari	Ta'sir qiluvchi omillar			
	X <sub>1</sub> jarayonni borish vaqti, min	X <sub>2</sub> xomashyo maydalik darajasi, mm	X <sub>3</sub> jarayonni olib borish harorati, °C	X <sub>4</sub> xomashyo va erituvchi nisbati
Yuqori pog'ona	60	6	70	1:20
O'rta pog'ona	40	4	50	1:15
Pastki pog'ona	30	2	30	1:10
Chegaralar farqi	20	2	20	5

Rejalashtirishning to'rtinchi omili (X<sub>4</sub>) ni boshqa ikki omillar (X<sub>1</sub> va X<sub>2</sub>) ga bog'liq holda (X<sub>4</sub>=X<sub>1</sub>X<sub>2</sub>) hisoblash ishlari olib borildi. Shunday qilib, umumiy tajribalar soni 16 tani tashkil qiluvchi va to'laqonli omillarning Y=2<sup>4-1</sup> ko'rinishidagi umumiy tajribalarga ega bo'ldik.

Tajribalarni o'tkazish uchun rejalashtirishning o'zagi tuzildi va shunga asosan olib borildi. Tajribalar rejasi va olingan natijalar qiymati 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Rejalashtirishning o'zagi va olingan tajribalar natijalari

Tajribalar tartibi	Jarayonni kodlash					Kversetin-3-o-soforozid			Kempferol-3-o-soforozid		
	0	1	2	3	4	Y <sub>1</sub>	Y <sub>2</sub>	Y <sub>3</sub>	Y <sub>4</sub>	Y <sub>5</sub>	Y <sub>6</sub>
1						6	6	62		62	63
2						1,2	4,6	9	4,2	6	4
3						4	4	47		46	47
4						8,9	6,1	5	8,7	1	4
5						5	5	51		51	50
6						0,2	3,6	9	9,2	8	5
7						4	5	51		45	46
8						9,8	2,6	2	7,7	1	4
						7	7	71		68	40
						0,2	2,8	5	1,8	4	1
						6	6	61		58	60
						2,9	0,3	6	1,2	8	0
						5	5	55		53	54
						4,8	6,2	5	5,8	2	5
						6	5	60		55	56
						1,8	8,2	0	7,6	4	5

Jarayonning regressiya tenglamasi 1-formula orqali tuzildi.

$$Y = B_0 + B_1X_1 + B_2X_2 + B_3X_3 + B_4X_4 \quad (1)$$

Bu yerda: B<sub>0</sub>, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>3</sub>, B<sub>4</sub> – regressiya tenglamasining koeffitsiyentlari

Buning uchun avval 2-formula orqali regressiya tenglamasining koeffitsientlari hisoblandi.

$$b_i = \frac{\sum_{i=1}^N (X_i \cdot Y_i)}{N}; \quad (2)$$

Bu yerda: i-tajribalarning tartib raqami (i=1,2,...,8); j-omilning tartib raqami (j=1,2,...,5); N – o'zakdagi tajribalar soni; X<sub>ij</sub> – omillarning kodlash qiymati.

Olingan "B" koeffitsiyent qiymatlari 1-formula qo'yib quyidagi regressiya tenglamasi hosil qilindi:

Kversetin-3-o-soforozid:  $Y = 57,76 + 3,11 X_1 + 2,68 X_2 + 4,38 X_3 + 3,63 X_4$

Kempferol-3-o-soforozid:  $Y = 56,1 + 4,12 X_1 + 3,52 X_2 + 4,17 X_3 + 3,0 X_4$

Tajribalarni haqqoniyligi va olingan model adekvatligini tekshirish maqsadida statistik tahlil amalga oshirildi va natijalar 3-jadvalga yozib borildi.

Tajribalar dispersiyasi 3-formula yordamida hisoblandi (3- jadval).

$$S_i^2 = \frac{2\Delta Y^2}{1}; \quad (3)$$

Dispersiyaning birlamchilik qiymati Koxren kriteriyasi sharti bo'yicha tekshirildi (4-formula). Bunga ko'ra shart bajarilsa dispersiya birlamchi ekanligi o'z isbotini topadi.

$$G_{tajriba} = \frac{S_{max}^2}{\sum_{i=1}^N S_i^2} \leq G_{kr}; \quad (5)$$

$$G_{kr} = 0,6798 [4]$$

$$G_{tajriba} < G_{kr}$$

Kversetin-3-o-soforozid: G<sub>tajriba</sub> = 0,1927

Kempferol-3-o-soforozid: G<sub>tajriba</sub> = 0,2233

Ko'rinib turibdiki, olingan dispersiya Koxren kriteriyasi shartini qanoatlantirdi, demak dispersiya birlamchi.

3-jadval

Statistik tahlil

Y <sub>i</sub>	Y <sub>i</sub> <sup>2</sup>	i <sup>2</sup>	Y <sub>hisobiy</sub>	Y <sub>i</sub>	ΔY <sub>i</sub> <sup>2</sup>	Y <sub>i</sub>	Y <sub>i</sub> <sup>2</sup>	i <sup>2</sup>	hisobiy	Y <sub>i</sub>	ΔY <sub>i</sub> <sup>2</sup>
Kversetin-3-o-soforozid						Kempferol-3-o-soforozid					
1,70	,89	,78	2,81	,09	,008	,80	,64	,28	2,57	,83	,681
,40	,96	,92	0,16	2,66	,089	,30	,69	,38	9,52	2,13	,516
1,70	,89	,78	9,31	,59	,695	1,30	,69	,38	8,32	,18	,731
1,40	,96	,92	1,21	0,01	,0002	,30	,69	,38	7,27	0,88	,766

1,30	,69	,38	1,58	0,09	,008	,70	,89	,78	0,92	0,83	,681
,30	,69	,38	8,93	,66	,089	,20	,44	,88	7,87	,13	,516
0,70	,49	,98	8,08	2,59	,695	,30	,69	,38	6,67	2,18	,731
,80	,24	,48	9,98	,01	,0002	,10	,21	,42	5,62	,88	,766
$\sum S_i^2=33,62$			$\sum(\Delta Y_i)^2=27,5838$			$\sum S_i^2=25,88$			$\sum(\Delta Y_i)^2=21,3850$		

Model adekvatligi 5-formula orqali topildi.

$$S_{ad}^2 = \frac{\sum_{i=1}^N (\Delta Y_i')^2}{f}; \quad (5)$$

$\Delta Y'$  qiymati 6-formuladan foydalangan holda aniqlandi (3-jadval).

$$\Delta Y' = Y_{o'rtacha} - Y_{hisobiy} \quad (6)$$

Dispersiya hosil bo'lganligining qiymati (ikki marta takrorlanuvchi tajribalar uchun) 7-formula orqali topildi:

$$S_y^2 = \frac{\sum_{i=1}^N S_i^2}{N}; \quad (7)$$

*Kversetin-3-o-soforozid:*  $S_y^2 = 4,2025$

*Kempferol-3-o-soforozid:*  $S_y^2 = 3,2350$

Olingan natijalar yordamida dispersiya adekvatligi 8-formula orqali topildi.

$$S_{ad}^2 = \frac{n \sum (Y_{o'rtacha} - Y_{hisobiy})^2}{N - q}; \quad (8)$$

Bu yerda:  $q = k + 1$ ;

$k$  – regressiya koeffitsiyentlar soni.

*Kversetin-3-o-soforozid:*  $S_{ad}^2 = 18,38$ ;

*Kempferol-3-o-soforozid:*  $S_{ad}^2 = 14,25$

Model adekvatligi Fisher kriteriysiga tekshirildi (9 - formula). Agar shart bajarilsa topilgan model adekvat hisoblanadi.

Buning uchun avval 10-formula orqali  $F_{eks}$  aniqlandi.

$$F_{tajriba} < F_{jadval}; \quad (9)$$

$$F_{tajriba} = \frac{S_{ad}^2}{S_y^2}; \quad (10)$$

Tajribamizda  $f_1=2$ ;  $f_2=8$  bo'lgan qiymat uchun jadvalda keltirilgan  $F_{jadval}$  topildi. Shunga ko'ra, ko'rsatkichlarimiz uchun  $F_{0,05}^{(2,8)} = 4,5$  [5] ekanligi aniqlandi.

*Kversetin-3-o-soforozid:*  $F_{tajriba} = 4,3757$

*Kempferol-3-o-soforozid:*  $F_{tajriba} = 4,4070$

Olingan natijalar ko'ra shart bajarildi va model adekvatligi isbotlandi.

Topilgan koeffitsiyentlarining qiymatdorligini aniqlash uchun ishonch oralig'i ( $\Delta b_i$ ) 11-formula orqali topildi.

Bu yerda:  $t - 0,05$  darajada tanlangan *Styudent* kriteriysining jadvalda

$$\Delta b_i = \pm t S_{b_i} \quad (11)$$

keltirilgan natijasi;

$S_{b_i}$  – regressiya koeffitsiyentlarining kvadrat xatoligi.

$S_{b_i} = \pm \sqrt{S_{b_i}^2}$  ekanligini inobatga olib 12-formula orqali regressiya koeffitsiyentlarini dispersiyasi ( $S_{b_i}^2$ ) aniqlandi:

$$S_{b_i}^2 = \frac{S_y^2}{N}; \quad (12)$$

*Kversetin-3-o-soforozid:*  $S_{b_i}^2 = 0,5253$ ;  $S_{b_i} = 0,7247$

*Kempferol-3-o-soforozid:*  $S_{b_i}^2 = 0,4043$ ;  $S_{b_i} = 0,6359$

Tajribamiz sharoitida  $t_{kr}=3,182$  ga teng [5].

*Kversetin-3-o-soforozid:*  $\Delta b_i = 2,3062$ ;

*Kempferol-3-o-soforozid:*  $\Delta b_i = 2,0234$

Topilgan ishonch oralig'iga nisbatan har bir regressiya koeffitsiyentlari  $b_i > \Delta b_i$  shartiga tekshirilib, koeffitsiyentlarning qiymatdorligi aniqlandi (4-jadval). Bunga ko'ra agar shart bajarilsa demak koeffitsiyent qiymatdor.

4-jadval

Qiymatdorlikka tekshirish natijalari

Kversetin-3-o-soforozid		Kempferol-3-o-soforozid		I sho-rasi	Xulosa natijalari
$b_i$	$\Delta b_i$	$b_i$	$\Delta b_i$		
$b_0 = 57,76$		$b_0 = 56,10$		>	Koeffitsiyent qiymatdor Koeffitsiyent qiymatdor Koeffitsiyent qiymatdor Koeffitsiyent qiymatdor Koeffitsiyent qiymatdor
$b_1 = 3,11$		$b_1 = 4,12$		>	
$b_2 = 2,68$	2,3062	$b_2 = 3,52$	2,0234	>	
$b_3 = 4,38$		$b_3 = 4,17$		>	
$b_4 = 3,63$		$b_4 = 3,00$		>	

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki regressiya tenglamasining barcha koeffitsiyentlari qiymatdor.

Bundan tashqari barcha tanlangan omillar koeffitsiyentlarning qiymatiga ko'ra ekstraksiya jarayonining samaradorligiga quyidagicha ta'sirga ega:

*Kversetin-3-o-soforozid:*  $X_3 > X_4 > X_1 > X_2$

*Kempferol-3-o-soforozid:*  $X_3 > X_1 > X_2 > X_4$

Eng yaxshi natija 5 chi tajribada (Kversetin-3-o-soforosid – 71,5%, Kempferol-3-o-soforozid – 70,1%) olindi, va shunga ko'ra ta'sir qiluvchi omillar quyidagicha tanlab olindi: jarayonni borish vaqti – 60 min; xomashyo maydalik darajasi – 6 mm; jarayonni olib borish xarorati – 70 °C; xomashyo va erituvchi nisbati – 1:20.

*R. rugosa* barglarini 70%-li etil spirti bilan 70 °C harorat ostida ekstraksiya qilishda vaqt o'tishi bilan flavonoidlar unumini o'zgarishini aniqlash maqsadida tadqiqotlar o'tkazildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, uchinchi ekstraksiya vaqtida flavonoidlar unumi juda past (1% dan kichik). *R. rugosa* barglaridan kversetin-3-o-soforosid va kempferol-3-o-soforozid flavonoidlarini ajratib olishda 70%-li etil spirti bilan ikki marta 70 °C harorat ostida ekstraksiya qilish yetarli degan xulosaga kelindi. Bunda birinchi va ikkinchi fazalarning o'zoro ta'siri 1 soatdan va gidromodul 1:20 dan kam bo'lmasligi lozim degan xulosaga kelindi.

Mazkur sharoit xomashyoda saqlanishiga nisbatan 94,5% kvertsetin-3-O-soforosid va kempferol-3-O-soforozid flavonoidlarini ajratib olish imkonini berishi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Gu D Y., Yang Y., Bakri M.A. LC/QTOF-MS/MS Application to Investigate Chemical Compositions in a Fraction with Protein Tyrosine Phosphatase 1B Inhibitory Activity from *Rosa rugosa* Flowers // *Phytochem. Anal.*, 2013. –V. 24(6). –P. 661-670.
2. Wang B., Diao Q.Y., Zhang Z.Y., et al. Antitumor activity of bee pollen polysaccharides from // *Mol Med. Rep.*, 2013. –V. 7(5), –P. 1555-1558.
3. Muratova Sh.Kh., Ismailova M.G., Ismailova P.L., Khalilov R.M. Development of technology for obtaining a dry extract from the *Scutellaria Iscanderi* Juz. Herb // *Farmatsiya*, 2023. –No 72 (4). –P. –37–44. (in Russ.).
4. Abdurakhmanov B.A., Khalilov R.M., Sotimov G.B. Tudy of the process extraction of hypericin from the aerial parts of *Hypericum scabrum* and *Hypericum perforatum* // *Ximiya Rastitel'nogo Syr'ya*, 2021. –No. 1, –P. 299–307. (in Russ.).
5. Akhnazarova S.L., Kafarov V.V. Optimization of experiments in chemistry and chemical technology. Moscow, 1978. 319 p. (in Russ.).



UDK 547.46.054

**Aziza AZIMOVA,**

*O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: azimovaaziza299@gmail.com,*

**Akmal ISLOMOV,**

*O‘zR FA akademik O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti yetakchi ilmiy xodimi, k.f.d*

**Ibrohim ASQAROV,**

*Andijon davlat universiteti professori, k.f.d*

**Bahrom BOBAEV,**

*O‘zbekiston Milliy universiteti professori, k.f.d*

**Dilafroz JALMURODOVA,**

*Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali mustaqil izlanuvchisi*

*O‘zRFA akademigi, k.f.d., prof. A.To‘rayev taqrizi asosida*

#### DETERMINATION OF MACRO AND MICROELEMENTS IN THE CONTENT OF CONCENTRATED WATER-SERUM OF *VITIS L.* FRUITS

Annotation

In the article, the fruit of the *Vitis L.* plant and its medicinal properties, the production of the product known as molasses from the fruit part, its useful properties, and the amount of micro and macro elements in the condensed water-syrup (molasses) of the grape fruit according to mass spectrometric analysis, (ISP MS mass spectrometer Elan (Perkin Elmer), equipment detection data are provided.

**Key words:** Abu Ali ibn Sina, *Vitis* family anemia, thrombokinas, thrombin, Mass-spectrometer (ISP MS), macro- and micro-chemical elements.

#### ОПРЕДЕЛЕНИЕ МАКРО- И МИКРОЭЛЕМЕНТОВ В СОСТАВЕ КОНЦЕНТРИРОВАННОЙ ВОДНО- СЫВОРОТКИ ПЛОДОВ *VITIS L.*

Аннотация

В статье рассмотрены плоды растения *Vitis L.* и их лечебные свойства, получение из плодовой части продукта, известного как патока, его полезные свойства, а также количество микро- и макроэлементов в сгущенной водно-сиропной смеси (патоке). плодов винограда по данным масс-спектрометрического анализа, (масс-спектрометр ISP MS Elan (Perkin Elmer), приводятся данные детектирования оборудования.

**Ключевые слова:** Абу Али ибн Сина, семейная *Vitis L.*, анемия тромбокиназа, тромбин, масс-спектрометр (ISP MS), макро- и микрохимические элементы.

#### *VITIS L.* O‘SIMLIKLARI MEVASI QUYULTIRILGAN SUV-SEROPINING TARKIBIDAGI MAKRO VA MIKRO ELEMENTLARINI ANIQLASH

Annotatsiya

Maqolada *Vitis L.* O‘simligi mevasi va uning shifobaxshlik xususiyatlari, meva qismidan olinadigan shinni deb nomlanuvchi mahsulotning olinishi, uning foydali hususiyatlari hamda Uzum mevasi quyultirilgan suv-siropi(shinni) tarkibidagi mikro va makro elementlari miqdori Mass-spektrometrik tahlilga ko‘ra, (ISP MS massa spektrometri Elan (Perkin Elmer), uskunasi aniqlash haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Abu Ali ibn Sino, *Vitis* turkumi, anemiya, trombokinaza, trombin, Mass-spektrometri (ISP MS), makro va mikro-kimyoviy elementlar.

**Kirish.** Tabiiy uzum navlari dorivorlik xususiyatining bugungi kundagi o‘rni beqiyos bo‘lib, bunday tabiiy uzum navlarini ko‘paytirish, hamda undan olinadigan ko‘plab tayyor mahsulot(tovar) ishlab chiqarishni rivojlantirish va shu orqali ishchi o‘rinlarini ko‘paytirish, ishsizlar sonini kamaytirib, xalqimiz fuqoralarini ish bilan ta‘minlash dolzarb mavzulardan biri xisoblanadi. Shunday ekan, dorivor o‘simliklar safini kengaytirish, ulardan tabiiy holatda foydalana bilish hamda ahamiyatini oshirish maqsadida, shifobaxsh nematlar sirasiga kiruvchi mahalliy tilda tok deb ataluvchi *Vitis L.* o‘simligi mevasi quyultirilgan suv-siropining kimyoviy tarkibini o‘rganish asosiy ishning mazmunini ifodalaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Qadimdan ma‘lumki, Sharq tabobatida dorivor o‘simlik sifatida uzumdan pishgan va xom holda foydalanganlar. Shuningdek, uzum sharbati, sirkasi, bargi poyasidan ham unumli foydalanilgan[1]. Abu Rayhon Beruniyning ta‘kidlashicha, uzum poyasini kesganda oqib tushadigan suvi ko‘p shifobaxsh xususiyatlarga egadir[2]. Bundan tashqari, uning poyasidan efir moyi ham olingan. Shuningdek, mayizi buyrak va qovuq uchun ham foydali sanalishi xususida ma‘lumotlar

keltirilgan adabiyotlarda[3]. Tok bu *Vitaceae Juss* oilasining *Vitis* turkumiga mansub qadimiy gulli yoki yopiq urug'li o'simlik bo'lib tokdoshlar oilasi turkumga yaqin turlarini o'z ichiga oladi. Uzum turlariga qarab tarkibida B guruhidagi barcha vitaminlar E, A, PP, K, C va D vitaminlarini ham yetarlicha saqlaydi. Bundan tashqari, uzumda temir, mis, kaliy, kalsiy, magniy, rux, bor, vanadiy, alyuminiy molibden, selen, titan, kobalt, radiy, xlor, kremniy va oltingugurt kabi mikro va makroelementlar ham bor. Uzumda suv, glyukoza, pektin, oqsil, uglevod, to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalari, efir moyi hamda bo'yovchi moddalar mavjud[3]. Shu bilan birga, uzumdan tayyorlanadigan sharbati bilan davolanish ishtahasizlikka chek qo'yadi. Uyqusizlik, kamqonlik, buyrak kasalliklari, nevroz va tanadagi modda almashinuvi buzilishiga qarshi samarali vositadir. Uning navlari orasida qora kishmish navi eng ozuqali navi bo'lib, u asosan kamqon va nimjon odamlarga tavsiya etiladi. Xatto saratonga chalingan bemorlarga ham immunitetni ko'taruvchi vosita sifatida qora uzum yoki mayiz buyuriladi. Uzum sharbatini kimyoviy tarkibida asosan fruktoza, glyukoza, saxaroza, rafinoza, ksiloza kabi foydali moddalar borligi sababli quvvatni oshiradi[2]. Kamqonlik, yurak-qon tomirlaridagi kasalliklar, surunkali hepatit kabi xastaliklarda uzumni iste'mol qilish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, uzumni oshqozon-ichak trakti, o'tkir va surunkali nefrit, nevroz kasalligida iste'mol qilish tavsiya etiladi. Bundan tashqari shamollashni olish xususiyati sababli, nafas yo'llaridagi shamollash va astmaga qarshi uzum sharbatini ichish foydali hisoblanadi[4].

Hozirgi kunda turli kimyoviy qo'shimchalarsiz oziq-ovqatlarni topish ancha mushkul bo'lib, bu borada uzum mevasi quyultirilgan suv-siropi(hinni)ning ahamiyati katta hisoblanadi. Shinni shuningdek, tut, qovun, tarvuz, malina kabi ho'l mevalar sharbatini qaynatish usuli bilan ham tayyorlanadi. Shinni so'zi, tarjima qilinganda fransuzchadan qora jigarrang rangli, o'ziga xos hidli qiyom yoki nordon suyuqlik turi degan ma'noni bildirib, ozuqali-qiyom sanaladi. Xattoki, Kanada va Qo'shma shtatlarda ham pazzandachilikda taomlar tayyorlashda foydalanilsa, boshqa ayrim mamlakatlarda uzum suvidan sirop shaklida ham foydalanish juda ommalashgan [5]. Shu bilan birga uzum mevalari turlari bo'yicha rang pigmentlari[6], antioksidantlik xossalari[6], ular tarkibidagi flavanoidlari ko'plab, evropa olimlari tomonidan o'rganilgan[8]. Shinni uglevodlarga juda boy bo'lib, uning tarkibini 60 % dan ortiq uglevodlar, 20-25 % ni suv tashkil qiladi. Uzum shinnisi quvvat beradi, ishtahani ochadi; qonni ko'paytiradi, homiladorlikda foydasi katta. Ayniqsa, ikki qoshiq ertalab iste'mol qilinadigan shinni vujudning kundalik kalsiy, temir, magnezium va boshqa vitaminlarga ehtiyojini qondirib, kam qonlik (anemiya) kasalliklarida yaxshi natija beradi[9].

Uzum mevasi va uning quyultirilgan suv-siropi(shinni) ishlab chiqarish usuli xar xil bo'lib, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Shinni tayyorlash uchun uzumni yaxshi pishgan boshlari sovuq suvda yuvilib, g'ujumi bilan eziladi. So'ngra uzum suvi (sharbat) filtrlab olinadi. Uzum suvi (sharbat) bo'zilib (aynib) qolmasligi uchun filtrlab olingan uzum suviga sog' toza sariq gel tuproq aralashtirilib, sharbat tarkibidagi ortiqcha zarralar (chang, uzum eti) cho'kmaga tushiriladi va filtrlab uzum suvi esa reaktor (qozon) ga solinib, past olovda 1-2 soat davomida 80-90 °C da rangi tiniqlashib quyulguncha qaynatish davom ettiriladi. Vaqti-vaqti bilan aralashtirib turiladi. Tayyor shinni to'q qoramtir qizg'ich rangda bo'ladi. Bu usul bo'yicha tayyorlangan shinni uzoq saqlanganda ham kimyoviy tarkibi o'zgarib qolmaydi. Uzum mevasi va uning quyultirilgan suv-siropi(shinni) quyidagi ko'rinishga ega (1-rasm).



1-rasm. Uzum mevasi va uning quyultirilgan suv-siropi(shinni)

Uzum mevasini quyultirilgan suv-siropi(shinni)si to'q qoramtir qizg'ich rangda bo'lib, kimyoviy tarkibida suvda eruvchi vitaminlari, tegishli uglevodlari, flavanoidlari, mikro va makro elementlari bor[10].

**Natijalar va muhokamalar.** Uzum mevasi quyultirilgan suv-siropi(shinni) oq va aralash uzum navlaridan tayyorlanadi. Asosan, Buvaki, Bayan, Shirey, Toypi, Soyaki, Nimrang va boshqalar. Uzum mevasi quyultirilgan suv-siropi(shinni) uglevodlarga, vitaminlarga boyligi sabab, inson organizmi uchun quvvat hamda gemoglobinni manbai bo'lib xizmat qiladi. Aslida, bu kimyoviy elementlari ovqat mahsulotlari tarkibida kam miqdorda uchrasada, ularning ahamiyati yuqori bo'lib, ular moddalar almashinuvi jarayonida a'zolarining o'sishi, qon hosil bo'lishi va qonda tuz miqdorini meyorida tutishda, to'qimalar orqali nafas olish jarayonlarida hamda shu kabi hujayralar faoliyati jarayonlariga ta'sir etadi.

*Vitis L.* o'simligi mevasini quyultirilgan suv-siropi(shinni)si tarkibidagi mikro va makro elementlari miqdori Mass-spektrometrik tahlilga ko'ra, (ISP MS massa spektrometri Elan (Perkin Elmer), uskunasi aniqlandi. *Vitis L.* o'simligi mevalaridan olinadigan quyultirilgan suv-siropi(shinni) tarkibidagi mikro va makro elementlari miqdori 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

I/r	Makro elementlar (g/t)				Mikro elementlar (g/t)												
	Na	P	K	Ca	Mg	Al	Cr	V	Mn	Fe	Co	Ni	Cu	Zn	As	Se	Mo
Namuna	2700	3800	8900	20000	1900	680	1,90	0,200	1,60	100	0,150	8,10	3,80	15,0	7,50	0,520	0,300

1-jadvalda kurinib turibduku Mass-spektrometrik tahlil natijalari tabiiy shinni mahsulotining bioelementlarga boyligini ko'rsatadi. Shunday ekan, buyuk bobomiz Abu Ali Ibn Sino aytdanlaridek, iste'moldagi dori - preparatlarimiz ovqat emas, balki kundalik oziq - ovqatimizning o'zi shifobaxsh bo'lmog'i muhimdir.

**Xulosa.** *Vitis L.* o'simligi mevasini quyultirilgan suv-siropi(shinni)si tarkibida makro elementlardan, Na, P, K, Ca kabilar hamda Mg, Al, Cr, V, Mn, Fe, Co, Ni, Cu, Zn, As, Se, Mo kabi bir qator mikro elementlarining mavjudligi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Duschanov B.A., Solixo'jayev S.S., Iskandarova Sh.T..Umumiy Gigiyena.T.: Ibn Sino,2001.C.558.
2. Nabiyev M.N., Shalynov V., Ibrohimov A.. /Shifobaxsh ne`matlar/ -T. :Mehnat,1989.B.192.
3. Temurov Sh. Uzumchilik. Toshkent, 2002. B.199.
4. Джавакянс Ю.М., Горбач В.И. Виноград Узбекистана. Ташкент, 2001.-С.240
5. Mushtaq, S., Yousaf, Z., Anjum, I., Arshad, S., Aftab, A., Maqbool, Z., ... & Ali, E. A. (2024). Application of green synthesized magnesium oxide nanoparticles to prolong commercial availability of *Vitis vinifera L.* *Food Chemistry: X*, 101157. <https://doi.org/10.1016/j.fochx.2024.101157>
6. Pekitkan, F. G. (2024). Mechanical properties of Okuzgozu (*Vitis vinifera L. cv.*) grapevine canes. *Journal of King Saud University-Science*, 36(1), 103034. <https://doi.org/10.1016/j.jksus.2023.103034>
7. Sessiz, A., Esgici, R., Kizil, S., 2007. Moisture- dependent physical properties of caper fruit. *J. Food Eng.* 19, 1426–1431. <https://doi.org/10.1016/j.jfoodeng.2006.04.033>.
8. Sessiz, A., Esgici, R., Ozdemir, G., Elicin, A.K., Pekitkan, F.G., 2015. Cutting properties of different grape varieties. *Agriculture & Forestry* 6 (1), 211–216. <https://doi.org/10.17707/AgricultForest.61.1.27>.
9. Asqarov I.R. "Tabobat qomusi". Tashkent" MUMTOZ SO'Z"2019.
10. Asqarov I.R. "Sirli tabobat". Tashkent"Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi" – 2021.
11. Nikolayev A.Ya.Biologik ximiya. Oliy o'quv yurt.met.stud.uchun darslik.-T.:Ibn Sino,1991.C.533.
12. Azimova A.Q., Islomov A.X., Jalmurodova D.D., To'raev A.S., Ibragimov B.T., Ashurov J.M., Bobaev B.N. Uzumdan shinni tayyorlash va vitaminlari miqdorini aniqlash. // Актуальные проблемы развития биоорганической химии 13-14 noyabr 2023. B.167
13. Wikipediya.uz sayti.
14. Google.uz sayti.



UO'K: 678.745.842+546.723

*Norbek ALLAYOROV,*  
*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti assistenti*  
*Husnidin VAPOYEV,*  
*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti professori*  
*Tog'aymurod ALIYEV,*  
*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti*  
*E-mail: asadjon\_2515@mail.ru*

*Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti professori X.Beknazarov taqrizi asosida*

### POLIAKRILAMID VA TEMIR (III) IONLARI ASOSIDA OQAVA SUVLARNI TOZALAYDIGAN KOAGULYANT KOMPOZITLARNI OLISH

Аннотация

Mazkur ishda gidrometallurgiya zavodlarining chiqindi suvlari tarkibi kimyoviy tahlil o'tkazildi. Tahlil natijasida tozalash uchun temir (III) xlorid, temir (II) sulfat, alyuminiy sulfat, poliakrilamid asosida ishtirokida yangi koagulyatsion kompozit tayyorlash texnologiyasi o'rganildi. Olingan koagulyantlar orqali chiqindi oqava suvlar tozalash ishlari olib borilganda suvning umumiy qattiqligi kamaytirildi, sulfat hamda xlorid ionlari bilan bir qatorda sianid va rodanid anionlarning asosiy qismi ushlab qolindi.

**Kalit so'zlar:** temir (III) xlorid, temir (II) sulfat, alyuminiy sulfat, poliakrilamid, oqava suv, kation, anion, suvning umumiy qattiqligi, sulfat, xlorid, sianid, rodanid.

### ПОЛУЧЕНИЕ КОАГУЛЯНТНЫХ КОМПОЗИТОВ ДЛЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД НА ОСНОВЕ ПОЛИАКРИЛАМИДА И ИОНОВ ЖЕЛЕЗА (III)

Аннотация

В данной работе проведен химический анализ состава сточных вод гидromеталлургических заводов. В результате анализа изучена технология получения нового коагуляционного композита на основе хлорида железа (III), сульфата железа (II), сульфата алюминия, полиакриламида для очистки. При очистке сточных вод с помощью полученных коагулянтов снижалась общая жесткость воды, улавливалась основная масса цианид и роданид ионов, а также сульфат и хлорид ионов.

**Ключевые слова:** хлорид железа (III), сульфат железа (II), сульфат алюминия, полиакрилamid, сточные воды, катион, анион, общая жесткость воды, сульфат, хлорид, цианид, роданид.

### OBTAINING COAGULANT COMPOSITES THAT PURIFY WASTEWATER BASED ON POLYACRYLAMIDE AND IRON (III) IONS

Annotation

In this work the composition of waste water of hydrometallurgical plants was chemically analyzed. As a result of the analysis, a new coagulation composite preparation technology based on iron (III) chloride, iron (II) sulfate, aluminum sulfate, and polyacrylamide was studied for cleaning. During wastewater treatment with the help of coagulants, the total hardness of water was reduced, the main part of cyanide and rhodanide anions along with sulfate and chloride ions were retained.

**Key words:** iron (III) chloride, iron (II) sulfate, aluminum sulfate, polyacrylamide, wastewater, cation, anion, total hardness of water, sulfate, chloride, cyanide, rhodanide.

**Kirish.** Dunyoda eng dolzarb ekologik muammolardan biri – sanoat chiqindi suvlari bilan gidrosferani ifloslanishidir. Shuning uchun oqova suvlarni ekotoksikantlardan tozalash – har qanday sanoat korxonasi kanalizatsiyalarini texnologik jarayonlarining muhim bosqichi hisoblanadi. Ayniqsa, mintaqalarda cho'llanish va sho'rlanishning ortib borishi bu muammo ustida ko'proq ishlashga sabab bo'lmoqda. Suv muammolarini yechishda hattoki, suv resurslari yetarli bo'lgan Yevropa davlatlari ham bosh qotirishmoqda.

Bunday holatlarni oldini olish uchun ham yurtimizda katta ishlar olib borilmoqda. Olimlar tomonidan olib borilayotgan ishlardan ichimlik va oqova suvlarni tozalashga mo'ljallangan loyihalarning ko'pgina qismi amaliy ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi. Oqova suvlarni tozalash bo'yicha hozirgi kunda mamlakatimizdagi sanoat ishlab chiqarish korxonalari hamda xo'jalik subyektlari tomonidan asosan turli tozalash usullari ko'p qo'llanilmoqda.

Bu ishlar doirasida hududlarimizdagi gidrometallurgiya zavodlari ham chetda qolib ketgani yo'q albatta. Bu borada ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotchilar oldida chiqindi va oqova suv tozalash muammolari; ichimlik va oqova suvlarini kolloidli va mexanik qo'shimchalardan, og'ir va rangli metallarning onlaridan, gazli muhitlarni zararli kislotali va asos tabiatli qo'shimchalardan tozalash juda keskin bo'lib turibdi. Sababi, rudalar tarkibining turli xildagi komponentlarga boyligi muammoni yechishda ba'zi bir noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda.



Oqova suvlar tarkibidagi sulfat hamda xlorid anionlari har qanday muhitda erishi sababli ularni cho'ktirish yoki tozalash bir muncha murakkablik tug'diradi. Xuddi shu kabi holatga o'tadigan yoki tozalashda qiyinchilik tug'diradigan sianid hamda rodanid anionlari e'tiborni o'ziga jalb etmoqda. Chunki, hozirgi kunda ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan sianidlar to'g'ridan to'g'ri oqova suv tarkibiga o'tmoqda. Bu esa, ishlab chiqarishdagi suvdan qayta foydalanish imkoniyatini yo'qqa chiqarmoqda. Sianid va rodanidlardan tozalashning qulay usullari (vodorod peroksid, ozonlash, aktiv xlorlash orqali qaytarish va h.k.) mavjud. Faqat bu usullarning asosiy kamchiliklaridan biri iqtisodiy jihatdan yuqori tannarx keltirib chiqarish hisoblanadi.

Ko'rsatilgan muammolarni yechish uchun hozirda an'anaviy sintetik g'ovaksimon moddalar (silikagel, alyuminiy oksidi, seolitlar, ko'mir va h.k.)dan sorbent sifatida va koagulyant materiallardan foydalanilmoqda. Biz ham ushbu muammoni yechish borasida ba'zi bir ishlarni amalga oshirdik.

Ishning maqsadi –koagulyatsiya va flokulyatsiya jarayonlarini o'rganish, sulfat, xlor va sianid ionlariga nisbatan yangitdan olingan moddalarni imkoniyatlarini o'rganish.

Laboratoriya tadqiqotlari Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Kimyoviy texnologiya" kafedrasida hamda NKMK MITL huzurida tashkil etilgan "Suv muammolarini yechish laboratoriyasi"da bajarildi.


**Tajriba qismi.** Namunalarni tayyorlash uchun temir (III) xlorid, temir (II) sulfat, alyuminiy sulfat, natriy gidroksid, kaliy gidroksid, poliakrilamid, ohakdan foydalanildi.

**A)** Temir (III) va alyuminiy ionlarining pentagidroksixloridlarini sintez qilish uchun bu metallar tuzlarini hisoblangan miqdorlariga tenglama bo'yicha kerakli mol miqdordagi natriy yoki kaliy gidroksidining eritmasidan oz-ozdan aralashtirgan holda qo'shib borildi. Bir jinsli sistema hosil qilish uchun 2 soat davomida reaksiya olib borildi va PAA ning 0,5% li eritmasidan oz-ozdan qo'shib doimiy ravishda magnit aralashtirgichda aralashtirildi. Jarayon bir jinsli eritma hosil bo'lguncha davom ettirildi.

**B)** Olingan pentagidroksixlorid temir (PGXT) va pentagidroksixlorid alyuminiylarni (PGXA) sanoat oqava suvlarini tozalash xususiyatlarini o'rganish maqsadida GMZ-3 ishlab chiqarish korxonasining xo'jalik chiqindi ombori suvidan namunalar olib sinab ko'rildi. Namuna suvlar ustiga sintez qilingan kompozitlardan aralashtirgan holda oz-ozdan qo'shib, pH qiymatini ohakli suspenziya yordamida 10-11 gacha sharoitga qarab ko'tarildi. Cho'ktirish to'liq bo'lgandan so'ng jarayon to'xtatildi va cho'kmanni filtrlab ajratib olindi va tozalangan suvni kimyoviy tahlil qilindi.

**V)** Sintez qilingan kompozit polikoagulyantlarni quruq holga keltirib, ularni va olingan cho'kmalarni tarkibini IQ-spektri, rentgenfazoviy analizi, SEM tahlillari qilindi.

**Olingan natijalar va ularning muhokamasi.** Sintez qilingan polikomplekslar o'zlarini gibrid materiallar sifatida namoyon qilib, organik makromolekulalar va temir va alyuminiyning ko'pzaryadli kvagidroksokomplekslarini xossalarini birlashtiradi. Metallarni pentagidroksixloridlarini olishda quyidagi reaksiyalar amalga oshadi:



Polikomplekslarni sintez qilish jarayonida asosan PAA makromolekulasi bilan PGXA yoki PGXT zarrachalari o'rtasida suvli eritmada bog' hosil bo'lishi ehtimoli PAA dagi amid guruhining azot atomi (ba'zida karbonil guruhini kislorod atomi) bilan temir yoki alyuminiy polikationlarining donor-akseptor ta'sirlashuvi hisobiga amalga oshishi mumkin.

Tajriba uchun olingan GMZ-3 zavodining chiqindi suvi namunalari eksperiment uchun tayyorlangan kompozitlar orqali o'tkazildi. Tajriba ishi laboratoriya sharoitida 1 litr suv namunalari bilan kompozitni 1 ml qo'shib turib aralashtiriladi. Tajriba davomida zarrachalarning o'lchami yiriklashib cho'kma tusha boshlagandan so'ng, jarayonga qarab cho'ktirish tugatiladi. Eritma muhitida magniy va ba'zi cho'ktirish qiyin bo'lgan kationini cho'ktirish uchun pH muhiti 11 atrofiga ko'tarish uchun ohakli suvning suyuq suspenziyasi orqali ko'tarib olinadi.

Jadvallardagi natijalardan ko'rinadiki kompozitlar orqali oqova suvlarini tozalaganda, suvning umumiy qattiqligi kamaydi hamda yuqori konsentratsiyali anionlar miqdorini ham kamaytirishga erishildi. Bularning orasida temir (III) xlorid bilan natriy gidroksid hamda poliakrilamidning muayyan nisbatdagi kompoziti yuqori natija qayd etdi. Yana shu bilan bir qatorda import bo'lib kelayotgan alyuminiy sulfatga bo'lgan talabni kamaytiradi. Mahalliy xom-ashyolardan tayyorlash ham bir muncha iqtisodiy samaradorlikka olib keladi.


1-jadval.

GMZ-3 chiqindi suvining suspenziyalar orqali tozalash

Namuna joyi va kompozitlar tarkibi	H	Kationlar, mg/dm <sup>3</sup>		Anionlar, mg/dm <sup>3</sup>			Suvning umumiy qattiqligi, mg-ekv/dm <sup>3</sup>	
		a <sup>2+</sup>	g <sup>2+</sup>	SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	I <sup>-</sup>	N <sup>-</sup>		SCN <sup>-</sup>
<b>Tozalash uchun olin suv namunasi</b>								
Xo'jalik chiqindi ombori suvi	7,89	81.1	06.7	1454.0	97.5	2.7	845.8	46.2
<b>Tozalashdan so'ng olingan natijalar</b>								
FeCl <sub>3</sub> +NaOH+PAA + Ca(OH) <sub>2</sub>	9.25	01.0	5.2	446.4	66.2	1.5	199.5	16.3
FeSO <sub>4</sub> +NaOH+PAA + Ca(OH) <sub>2</sub>	9.25	24.2	8.3	611.0	41.6	1.8	229.5	20.2
Al <sub>2</sub> (SO <sub>4</sub> ) <sub>3</sub> +NaOH+PAA+Ca(OH) <sub>2</sub>	9.25	30.7	7.4	586.9	26.2	2.0	229.7	19.6
Ohak+S <sub>8</sub>	7.69	72.4	6.18	553.7	83.6	1.8	299.7	22.4

Ilmiy tadqiqot ishi olib borilganda, fizik-kimyoviy tahlil usullaridan keng ham foydalanildi. Bunda hosil qilingan kompozit material sorbent namunalarni infraqizil spektr, rentgen fazoviy analiz hamda skanerlovchi elektron mikroskoplar orqali tarkibi o'rganildi.

Quyidagi infraqizil spektrlarda boshlang'ich temir (III) xlorid, natriy gidroksid hamda poliakrilamid bilan hosil qilingan kompozitning infraqizil spektr ko'rinishi berilgan.




**1-rasm. Temir xlorid va NaOH bilan PAA asosida kompozit IQ spektri**

IQ-spektrida quyidagi sohalarda yutilish chiziqlari namoyon bo'ladi: 3524,83, 3207,35 va 3205,96, 1602,64 (o'rta intens.), 1001,25 (juda kuchsiz), 852,34, 663,50 va 673,58 (o'rta intens.), 467,89  $\text{cm}^{-1}$

0.06	0.057 ± 0,0074	0.0059	0.001
0.08	0.077 ± 0,0069	0.0056	0.0072
0.10	0.096 ± 0,0001	0.0089	0.0093
0.12	0.112 ± 0,0019	0.0025	0.0022

Jadvaldagi natijalar shuni ko'rsatadiki, Au(III) ionining topilgan miqdori kiritilgan miqdoriga mos keladi, xatolik, 0,33 dan oshmaydi, bu esa ishlab chiqilgan usulning yuqori aniqlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqilgan usulning selektivligini baholash uchun begona ionlar ta'siri o'rganildi, unga ko'ra Cu<sup>2+</sup> (0.25), Al<sup>3+</sup> (0.25), Fe<sup>3+</sup> (0.25) Pb<sup>2+</sup> (0.45) Bi<sup>3+</sup>(0.35) Zn<sup>2+</sup>(0.25) va Cd<sup>2+</sup>(0.25) nisbatlarda halaqit bermasligi aniqlandi. Ishlab chiqilgan usul Au(III) ionini inversion-voltamperometrik aniqlash usulini Pb-Bi li shlam tarkibiga mos keluvchi model aralashma analiziga qo'llanildi. 0,08 mkg/ml oltin ion va turli konsentratsiyadagi begona metall ionlari kiritildi. Tayyor aralashma 4-amino-5-(2-aminofenil)-2,4-digidro-3h-1,2,4-triazol-3-tion bilan modifikatsiyalangan elektrod yordamida inversion-voltamperometrik tahlil qilindi. Olingan natijalar 3-jadvalda keltirildi.

**3 Jadval**

**Au(III) ionini modifikatsiyalangan elektrod bilan inversion-voltamperometrik aniqlash usulini sun'iy aralashmalar analiziga qo'llash**

Aralashma tarkibi, mkg	Olingan Au(III) miqdori mkg.	Topilgan Au(III) miqdori mkg.	$\bar{X}_i$	$x_i - \bar{X}_i$	S	Sr	$\Delta X$
------------------------	------------------------------	-------------------------------	-------------	-------------------	---	----	------------

Cu <sup>2+</sup> (0.25), Al <sup>3+</sup> (0.25), Fe <sup>3+</sup> (0.25) Pb <sup>2+</sup> (0.45) Bi <sup>3+</sup> (0.35) Zn <sup>2+</sup> (0.25) Cd <sup>2+</sup> (0.25)	0,08	0,078 0,075 0,083	0,079	-0,001 -0,004 0,004	1,65×10 <sup>-5</sup>	0,0002	0,0003
---	------	-------------------------	-------	---------------------------	-----------------------	--------	--------

Natijalar ishlab chiqilgan usul bilan sun'iy aralashma tarkibida oltin(III) aniqlashda xatolik 0.0308 dan oshmaganini ko'rsatdi. Bu esa ishlab chiqilgan metodni tabiiy obyektlar va sanoat chiqindilari analizida qo'llash imkonini beradi.

**Xulosa.** Tadqiqotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, optimallashtirilgan sharoitda ((NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> fonida, 93.6 sekundda, 10mA, -0.09dan -0.20 volt) oltin (III) ionini tarkibida tio guruh tutgan 4-amino-5-(2-aminofenil)-2,4-digidro-3h-1,2,4-triazol-3-tion bilan modifikatsiyalangan elektrod yordamida inversion voltamperometrik aniqlash usulining metrologik xususiyatlari yuqori aniqlikga ega ekanligini ko'rsatdi. Ishlab chiqilgan metod oltin tutgan tabiiy obyektlarga qo'llashga mos keladi. Natijada, begona ionlarning halaqit berishi sezilarli kamayadi. Bu elektrodning potentsiallar oralig'i 0.2 dan katta ekanligini va boshqa ionlarni ham oltinga halaqit bermasdan aniqlash imkonini beradi. Inversion-voltamperometrik usul chiqindilar tarkibidan Au(III) ionining miqdori 10<sup>-9</sup> g/l dan kam bo'lganda ham aniqlashga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Васильева И. Е. и др. Методика определения содержания золота и серебра в геологических образцах с использованием скинтилляционного атомно-эмиссионного анализа с высоким временным разрешением //Аналитика и контроль. 2010.№ 4. – 2010. – С. 201-213.
2. Васильева И. Е. и др. Сорбционно-атомно-эмиссионное определение золота, платины и палладия в горных породах и рудах с использованием сорбента ПСТМ-ЗТ //Аналитика и контроль. 2010.№ 1. – 2010. – С. 16-24.
3. Сдобняков Н. Ю. и др. Определение фрактальной размерности островковых плёнок золота на слюде //Вестник ТвГУ, серия" Физика". – 2009. – №. 6. – С. 112.
4. Захаров Ю. А. и др. Атомно-абсорбционное определение золота и серебра в породах и рудах с помощью двухстадийной зондовой атомизации в графитовой печи //Аналитика и контроль. 2013.№ 4. – 2013. – Т. 4. – С. 414-422.
5. Лосев В. Н., Буйко О. В., Величко Б. А. Сорбционное концентрирование и сорбционно-атомно-эмиссионное определение золота и палладия с использованием фитосорбента //Журнал Сибирского федерального университета. Химия. – 2010. – Т. 3. – №. 4. – С. 355-361.
6. Захаров Ю. А. и др. Прямое определение золота в суспензиях стандартных образцов горных пород и руды методом электротермической атомно-абсорбционной спектроскопии высокого разрешения //Аналитика и контроль. 2014.№ 4. – 2014. – Т. 18. – №. 4. – С. 392-403.
7. Сергиенко Е. А. Исследование возможности определения золота в солянокислых средах методом инверсионной вольтамперометрии. – 2011.
8. Горчаков Э. В. Инверсионно-вольтамперометрическое определение золота и палладия в золоторудном минеральном сырье : дис. – 2008.
9. Hernández-Santos D., González-García M. B., Costa-García A. Electrochemical determination of gold nanoparticles in colloidal solutions //Electrochimica acta. – 2000. – Т. 46. – №. 4. – С. 607-615.
10. Pumera M. et al. Direct voltammetric determination of gold nanoparticles using graphite-epoxy composite electrode //Electrochimica Acta. – 2005. – Т. 50. – №. 18. – С. 3702-3707.
11. Khoo S. B. et al. Cathodic stripping voltammetric determination of ultratrace gold (III) at a bulk modified epoxy-graphite tube composite electrode in flow systems //Analyst. – 1999. – Т. 124. – №. 3. – С. 353-360.
12. Lu Z. et al. A screen-printed carbon electrode modified with a bismuth film and gold nanoparticles for simultaneous stripping voltammetric determination of Zn (II), Pb (II) and Cu (II) //Microchimica Acta. – 2017. – Т. 184. – С. 4731-4740
13. Колпакова Н. А., Смышляева Е. А. Инверсионно-вольтамперометрическое определение платины в золоторудном сырье с предварительным фотохимическим восстановлением ионов золота //Известия высших учебных заведений. Геология и разведка. – 2003. – №. 4. – С. 50-51.
14. de La Escosura-Muñiz A. et al. Size-dependent direct electrochemical detection of gold nanoparticles: application in magnetoimmunoassays //Nanoscale. – 2011. – Т. 3. – №. 8. – С. 3350-3356.





UDK 547.1-304.2+547-327

**Sarvinoz BOBONAZAROVA**,  
*O'zMU kimyo fakulteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: Bobonazarovasarvinoz7@gmail.com*  
**Anvar ABDUSHUKUROV**,  
*O'zMU professori, k.f.d*  
**Muxriddin YUSUFOV**,  
*O'zMU katta o'qituvchi, PhD*  
**Shohzod OCHILOV**,  
*O'zMU kimyo fakulteti tayanch doktoranti*

*O'zRFA O'simlik moddalari kimyosi instituti alkaloidlar kimyosi laboratoriya mudiri k.f.d. Sh.N. Jo'raqulov taqrizi asosida*

## 2-XLORO-N-TOLILATSETAMID IZOMERLARINING BIOLOGIK FAOLLIKLARINI PASS ONLINE DASTURIDA O'RGANISH

Аннотация

Toluidin izomerlarini xloratsetilxlorid bilan N-xloratsetillash reaksiyasi natijasida sintez qilingan 2-xloro-N-o-tolilasetamid, 2-xloro-N-m-tolilasetamid va 2-xloro-N-p-tolilasetamidlarining biologik faolliklari PASS online dasturida o'rganilgan. 2-Xloro-N-tolilasetamid izomerlarining organizmga bo'lgan nojo'ya va zaharlilik ta'sirlari, Pa va Pi qiymatlari aniqlangan. Bundan tashqari 2-xloro-N-tolilasetamid izomerlarining yurak-qon tomir va hepatobiliar tizimlarga ta'siri, saraton hujayralariga nisbatan moddaning sitozaharlilikligi natijalari olingan, viruslarga va zamburug'larga qarshi faolliklari o'rganilgan, olingan natijalar taqqoslangan. Natijalardan ma'lum bo'ldiki 2-xloro-N-o-tolilasetamid va 2-xloro-N-p-tolilasetamidlarining yuqoridagi kasalliklarga biologik faolligi bir-biriga yaqin va ba'zi kasalliklarga faqat bitta izomerda faollik berganligi kuzatilgan.

**Kalit so'zlar:** 2-Xloro-N-o-tolilasetamid, 2-xloro-N-m-tolilasetamid va 2-xloro-N-p-tolilasetamid, zaharlilik, saraton hujayralari, viruslarga faollik, sitozaharlilik ta'sir.

## ИЗУЧЕНИЕ БИОЛОГИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ИЗОМЕРОВ 2-ХЛОРО-N-ТОЛИЛАЦЕТАМИДА В ПРОГРАММЕ PASS ONLINE

Аннотация

В результате изучения продуктов реакции хлорацетилования изомерных толуидинов получены 2-хлор-N-o-толилацетамида, 2-хлор-N-m-толилацетамида и 2-хлор-N-p-толилацетамида и изучена их биологическая активность по программе PASS online. Выявлено отрицательное и токсическое действие изомеров хлор-N-толилацетамида на организм, значения Pa и Pi. Дополнительно сравнивали влияние изомеров хлор-N-толилацетамида на сердечно-сосудистую и гепатобилиарную системы, результаты цитосехартичности вещества по отношению к раковым клеткам, изучено активности в отношении вирусов и грибов. Результаты показали, что хлор-N-o-толилацетамида и хлор-N-p-толилацетамида обладают биологической активностью, близкой к указанным выше заболеваниям, и обладают лишь одним изомером активности при некоторых заболеваниях.

**Ключевые слова:** 2-хлор-N-o-толилацетамида, 2-хлор-N-m-толилацетамида и 2-хлор-N-p-толилацетамида, токсичность, активность в отношении раковых клеток, вирусов, цитотоксическое действие.

## STUDY OF BIOLOGICAL ACTIVITIES OF 2-CHLORO-N-TOLYLACETAMIDE ISOMERS IN THE PASS ONLINE PROGRAM

Annotation

Biological activity of chloro-N-tolilasetamide, 2-chloro-N-o-tolilasetamide, 2-chloro-N-m-tolilasetamide, and 2-chloro-N-p-tolilasetamides were synthesized as a result N-chlorocetylchloride reaction was studied in the PASS online program. The negative and toxicity effects of chloro-N-tolilasetamide isomers on the body, the values of Pa and Pi, have been identified. Additionally, the effects of chloro-N-tolilasetamide isomers on cardiovascular and hepatobiliar systems, the results of the cytoseharcity of the substance in relation to cancer cells, the study of activity against viruses and fungi, and the results were compared. Results were revealed that chloro-N-o-tolilasetamide and chloro-N-p-tolilasetamides are close biological activity to the above diseases and had only one isomeres of activity for some diseases.

**Key words:** 2-chloro-N-o-tolilasetamide, 2-chloro-N-m-tolilasetamide and 2-chloro-N-p-tolilasetamide, toxicity, activity in cancer cells, viruses, cytotoxic effects.

**Kirish.** Organik kimyoda tadqiqotlar olib borishda "Maqsadli sintez" tushunchasi zamonaviy tadqiqot laboratoriyalarida yanada chuqurroq kirib kelmoqda buning sababi yangi modda sintez qilishning o'zi tadqiqot natijalari uchun yetarli hisoblanmaydi. Shunday ekan sintez qilingan yangi birikmaning fizik-kimyoviy xossalari bilan bir qatorda biologik faolligini

o'rganish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda yangi modda sintez qilish bilan bir qatorda sintez qilingan moddaning tuzilish formulasi asosida PASS online dasturida biologik faolligini o'rganish davr talabi bo'lib, PASS online biologik faollikning 4000 dan ortiq turlarini, shu jumladan farmakologiyasini, ta'sir qilish mexanizmlarini, zahariligini, metabolik fermentlar va tashuvchilar bilan o'zaro ta'sirini, gen ekspressiyasiga ta'sirini va boshqalarni nazariy tahlil qiladi. Nazariy tadqiqotlarning tahlillariga asoslangan holda sintez olib borish vaqtning hamda ortiqcha reaktivlar sarfini oldini oladi.

**Adabiyotlar tahlili** PASS (Prediction of Activity Spectra for Substances)- bu organik moddalarning o'xshash guruhlarning umumiy biologik faolliklarini baholash vositasi sifatida ishlab chiqilgan dasturiy mahsulot. PASS, GUSAR, PharmaExpert dasturlari organik birikmalar tuzilishi asosida biologik faollikning ko'p turlarini bir vaqtda nazariy tahlil qilishni ta'minlaydi. Shunday qilib, PASS online molekularning kimyoviy sintezi va biologik sinovdan oldin biologik faollik profilini baholash uchun ishlatilishi mumkin. Pa (faol bo'lish ehtimoli) o'rganilayotgan birikmaning faol bo'lmagan birikmalar kichik sinfiga tegishli bo'lish ehtimolini baholaydi PASS ta'limida "faol bo'lmaganlar" kichik to'plamida eng tipik bo'lgan molekula tuzilmalariga o'xshaydi. Pa (faol bo'lish ehtimoli) va Pi (nofaol birikma ehtimoli) sifatida ifodalanadi. Agar PASS prognozi natijalariga ko'ra  $Pa > 0,71$  bo'lsa, faollikni tajriba asosida topish imkoniyati yuqori bo'ladi.  $0,5 < Pa < 0,7$  o'rtacha terapevtik potentsialni ko'rsatadi.  $Pa < 0,5$  bo'lsa past farmatsevtik faollikni ko'rsatadi va faollikni tajriba asosida topish imkoniyati kamroq bo'ladi [1-3]. GUSAR- miqdoriy tuzilma-faoliyat munosabatlari modellarini yaratish vositasidir. Dasturning kiritilishi kimyoviy tuzilmalar va biologik faolliklar bo'yicha miqdoriy ma'lumotlarning ichki o'quv to'plamidir. GUSARning yadrosi o'z-o'zidan izchil regressiyaning noyob algoritmidan iborat bo'lib PASS nazariy tahlillari asosida hisoblangan biologik asoslangan deskriptorlarni va atomlarning miqdoriy qo'shnilari tavsiflovchilarini tanlash imkonini beradi. Dastur ommaviy nazariy tahlil qilish uchun SD fayllarni yuklash imkonini beradi. Pharma Expert biologik faolliklar, dori-darmonlarning o'zaro ta'siri va kimyoviy birikmalarning ko'p maqsadli yo'nalishi o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladi. Pharma Expert oldindan belgilangan ya'ni tekshirilgan biologik faollik profiliga ega, shu jumladan kerakli farmakoterapevtik ta'sir va biokimyoviy mexanizmlarni, lekin kiruvchi salbiy va zaharilik ta'sirlarni istisno qiladigan birikmalarni tanlash uchun vositani taqdim etadi. Pharma Expert ga kirish ma'lumoti sifatida PASS nazariy tahlillaridan foydalanadi va kimyoviy birikmalar majmuasini tahlil qilish bo'yicha elektron hisobotlarni yaratishni ta'minlaydi [4]. Yangi dori vositalarini yaratish jarayoni katta vaqt va resurslarni talab qiladi. Nazariy tadqiqotlar ushbu omillarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular potensial dori vositalarini qo'llash belgilarini ko'rsatadi. Bir qancha mualliflarning ta'kidlashicha, preparat sifatida sinovdan o'tish uchun aralashmaning yuqori biologik faolligi va past zahariligi e'tarli emas. Bundan tashqari, terapevtik maqsadda birikmaning kirishi va konsentratsiyasini va uni keyinchalik organizm tomonidan yo'q qilinishini aniqlaydigan ADME farmakokinetik parametrlariga (so'rilish, taqsimlanish, metabolizm va ekskresiya) javob berish kerak. Aks holda noqulay farmakokinetik xususiyatga ega bo'lgan ko'plab dori-darmonlarga nomzodlarni rad etilishi mumkin. [5,6]


Jahonda aromatik uglevododlar va ularning hosilalarini xlorasetillash reaksiyalarining mahsulotlari tibbiyotda dorivor moddalar sifatida, sanoatda polimerlar uchun stabilizatorlar va plastifikatorlar sifatida, qishloq xo'jaligida pestisidlar, stimulyatorlar sifatida keng ishlatiladi. N-Fenilasetamid bilan bog'langan bir qator yangi 1,2,3-triazol fragmenti tutgan kumarin konjugatlari klik kimyosi yondashuvi orqali yaxshi unum bilan samarali sintez qilingan. Sintezlangan hosilalar in-vitro sharoitda zamburug'larga qarshi va antioksidant faollikni tekshirilgan. Zamburug'larga qarshi faollik Candida albicans, Fusarium oxysporum, Aspergillus flavus, Aspergillus niger va Cryptococcus neoformans kabi zamburug' shtammlariga qarshi o'tkazilgan. 7b-2-(4-{{(4-Methyl-2-oxo-2H-chromen-7-yl)oxy}methyl} -1H-1,2,3-triazol-1-yl) -N-(o-tolyl) asetamide, 7dN-(2-Chlorophenyl)-2-(4-{{(4-methyl-2-oxo-2H-chromen-7-yl)oxy}methyl}-1H-1,2,3-triazol-1-yl) acetamide, 8b-2-(4-{{(2-Oxo-2H-chromen-4-yl)oxy}methyl}-1H-1,2,3-triazol-1-yl)-N-(o-tolyl) asetamide va 8e N-(2-Chlorophenyl) -2-(4-{{(2-oxo-2H-chromen-4-yl)oxy}methyl}-1H-1,2,3-triazol-1-yl) acetamid birikmalari standart doriga qaraganda yuqori ta'sir ko'rsatgan, minimal inhibitiv konsentratsiya qiymatlari pastroq. Shuningdek, gidroksetolol, 7a-2-(4-{{(4-Methyl-2-oxo-2H-chromen-7-yl)oxy}methyl}-1H-1,2,3-triazol-1-yl) -N-phenyl acetamid birikmasi standart butillangan antioksidant bilan solishtirganda potentsial radikallarni tozalash faollikni ko'rsatgan.

Bundan tashqari, yangi sintez qilingan birikmalarning molekulyar doking tadqiqoti o'tkazilgan va natijalar zamburug' P450 sitoxrom lanosterol 14a-demetilaz fermentining faol joyida yaxshi bog'lanish rejimini ko'rsatgan. Sintez qilingan birikmalar ADME xossalari uchun ham sinovdan o'tkazilgan va ular og'iz orqali qabul qilinadigan dorilar uchun yaxshi nomzod sifatida potentsialni ko'rsatgan[7].

**Tadqiqot metodologiyasi:** Shu ma'lumotlarga asoslangan holda toluidin izomerlarini xlorasetilxlorid bilan N-xlorasetillash asosida olingan 2-xloro-N-tolilasetamid izomerlarini PASS onlayn [<https://www.way2drug.com/PassOnline/index.php>] dasturida o'rganilgan. Dastur yordamida 2-Xloro-N-tolil asetamid izomerlari biologik faolligi Pa (faol bo'lish ehtimoli) o'rganilayotgan birikmaning faol bo'lmagan birikmalar kichik sinfiga tegishli bo'lish ehtimolini baholaydi, Pi PASS ta'limida "faol bo'lmaganlar" kichik to'plamida eng tipik bo'lgan molekula tuzilmalarini o'rganilgan. Pa (faol bo'lish ehtimoli) va Pi (nofaol birikma ehtimoli) qiymatlari olindi va 2-xloro-N-tolilasetamid izomerlari aromatic halqasidagi elektronodonor (CH<sub>3</sub>) o'rinbosarning ta'siri solishtirilgan. Izomerlarning o'ziga xos faolligi o'rganilgan.

**Natijalar tahlili.** Dastur yordamida 2-xloro-N-tolil asetamid izomerlari asosan Glutamyl endopeptidas II inhibitor, Polyporopepsin inhibitor, 2-Hydroxyumuconate-semialdehyd hydrolas inhibitor, Omptin inhibitor, Venombin AB inhibitor, Endopeptidas So inhibitor, Ubiquinol-cytochrome c reductas inhibitor, Pseudolysin inhibitorlari kabi ba'zi kasalliklarga qarshi biologik faollik ko'rsatgichlari olindi. Olingan natijalarning Pa qiymati 2-xloro-N-tolil asetamid izomerlarida yaqin qiymatni ko'rsatgan. Arginin 2-monooxygenas inhibitorida esa nisbatan 2-xloro-N-o-tolil asetamid va 2-xloro-N-p-tolil asetamidlarning faolligi yuqori bo'lib, 2-xloro-N-m-tolil asetamid uchun esa biron pas faollikka ega ekanini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari N-benzyloxy carbonyl glycine hydrolas inhibitor va Arylsulfate sulfotransferas inhibitor 2-xloro-N-o-tolil asetamid va 2-xloro-N-m-tolil asetamidlar faolligi juda past ekanligini, 2-xloro-N-p-tolil asetamid uchun esa faollikka ega ekanini ko'rishimiz mumkin.

#### 2-Xloro-N-tolil asetamid izomerlari:



2-Xloro-N-o-tolilasetamid 2-Xloro-N-m-tolilasetamid 2-Xloro-N-p-tolilasetamid

**1-Jadval.**

2-Xloro-N-tolilasetamid izomerlarining ayrim kasalliklarga qarshi faolligi PASS (online) dasturida tekshirish natijalari

	Biologik faollik	O'rganilgan birikmalar nomi					
		2-Xloro-N-o-tolilasetamid		2-Xloro-N-m-tolilasetamid		2-Xloro-N-p-tolilasetamid	
		Pa	Pi	Pa	Pi	Pa	Pi
	Glutamyl endopeptidase II inhibitor	0,838	0,006	0,853	0,005	0,871	0,004
	Polyporopepsin inhibitor	0,831	0,015	0,846	0,012	0,871	0,009
	2-Hydroxymuconate-semialdehyde hydrolase inhibitor	0,802	0,006	0,822	0,005	0,842	0,005
	Pseudolysin inhibitor	0,772	0,009	0,747	0,012	0,785	0,008
	Omptin inhibitor	0,771	0,011	0,787	0,009	0,802	0,007
	Venombin AB inhibitor	0,747	0,011	0,768	0,009	0,787	0,007
	Endopeptidase So inhibitor	0,713	0,005	0,730	0,005	0,754	0,004
	Ubiquinol-cytochrome-c reductase inhibitor	0,730	0,057	0,795	0,035	0,789	0,037
	Tpr proteinase (Porphyromonas gingivalis) inhibitor	0,639	0,009	0,667	0,007	0,736	0,005
0	N-benzyloxycarbonylglycine hydrolase inhibitor	0,613	0,013	0,660	0,012	0,724	0,009
1	Arylsulfate sulfotransferase inhibitor	0,606	0,013	-	-	0,720	0,013
2	Arginine 2-monooxygenase inhibitor	0,711	0,018	0,674	0,022	0,711	0,018

Jadvaldagi natijalardan ko'rishimiz mumkinki yuqoridan 8 ta kasallikning faolligi 2-xloro-N-tolilasetamid izomerlarining 2-xloro-N-o-tolilasetamid izomeridan 2-xloro-N-p-tolilasetamid izomeriga o'tgan sari Pa qiymatining ortib borishi kuzatildi, bundan ko'rishimiz mumkinki kasalliklarga faollik ortishini. Tpr proteinase (Porphyromonas gingivalis) inhibitor, N-benzyloxycarbonylglycine hydrolase inhibitor, Arylsulfate sulfotransferase inhibitor kasalliklari esa faqat 2-xloro-N-p-tolilasetamid izomeriga boshqa izomerlarga nisbatan faollik berganini ya'ni, Pa<0,7 ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari Arginine 2-monooxygenase inhibitor esa 2-xloro-N-o-tolilasetamid va 2-xloro-N-p-tolilasetamid izomeriga Pa>0,7 qiymati bir xil, 2-xloro-N-m-tolilasetamid izomerida faolligi past ekanligini ko'rishimiz mumkin.

2-Xloro-N-tolilasetamid izomerlarining ayrim kasalliklarga qarshi faolligi PASS (online) daturida tekshirish natijalari bilan bir qatorda kimyoviy birikmaning organizmga salbiy ta'sirlari haqidagi taxminlarni ham olish mumkin. Nazariy tahlil ba'zan bir nechta yoki hatto bitta bemorda kuzatiladigan klinik ko'rinishlarga asoslanadi. 2-Xloro-N-tolilasetamid izomerlarining PASS onlayn dasturida o'rganilgan salbiy ta'sirlarining olingan natijalari 2-jadvalda keltirildi.

**2-Jadval.**

2-Xloro-N-tolilasetamid izomerlarining PASS onlayn dasturida o'rganilgan salbiy va zaharlilik ta'sirlarining olingan natijalari:

	Biologik faollik	Molekulalar					
		2-Xloro-N-o-tolilasetamid		2-Xloro-N-m-tolilasetamid		2-Xloro-N-p-tolilasetamid	
		Pa	Pi	Pa	Pi	Pa	Pi
	Demiylinatsiya	0,867	0,005	0,876	0,004	0,892	0,004
	Oshqozon yarasi, aft	0,763	0,027	0,781	0,022	0,819	0,014
	Ozish	0,791	0,013	0,771	0,015	0,806	0,012
	Neytrofil dermatoz (Sweet sindromi)	0,730	0,042	0,756	0,035	0,791	0,025
	Fibroz, interstitsial	0,711	0,013	0,735	0,010	0,782	0,006
	Tirishish	0,811	0,035	0,722	0,086	0,749	0,071
	Titroq	0,720	0,070	0,668	0,088	0,710	0,074
	Eyforiya	0,732	0,029	0,659	0,004	0,621	0,048
	Methemoglobinemiya	0,702	0,004	0,632	0,013	0,796	0,005
0	Anemiya	0,701	0,027	0,621	0,040	-	-

PASS onlayn dasturi orqali 2-xloro-N-tolilasetamid izomerlarining kasalliklarga qarshi biologik faolliklari va mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni, yurak-qon tomir va gepatobiliar tizimlarga salbiy dori ta'siri, saraton hujayralaridagi kimyoviy birikmalarining sitozaharlilik ta'siri va antifungal faollikni nazariy tahlil, virusga qarshi faollikni nazariy tahlil qilish insonning ko'krak bezi saraton hujayralariga nisbatan moddaning sitozaharlilikligi natijalari olish mumkin. PASS onlayn dasturining shu qismiga tayanib antifungal faollik nazariy tahlili va virusga qarshi faollikni nazariy tahlil olindi, natijalar jadval ko'rinishida berildi va taqqoslandi. AntiFun foydalanuvchiga kimyoviy birikma konsentratsiyasi 5000 nM dan past bo'lgan 38 zamburug'ning bir yoki bir nechtasining o'sishiga to'sqinlik qilishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi. Har bir birikma uchun ball uning faolligiga ishonch sifatida ifodalanadi, bu kimyoviy birikmaning ma'lum bakteriyalarning o'sishini inhiye qilish va inhiye qilmaslik ehtimoli o'rtasidagi farqdir. Ishonch qanchalik yuqori bo'lsa, ijobiy nazariy tahlilning haqiqat bo'lish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Muayyan birikma uchun faqat Pa > Pi (ishonch > 0) bo'lgan harakatlar mumkin deb hisoblanadi. Agar Pa qiymati 0,5 dan kam bo'lsa, lekin Pa > Pi bo'lsa, treninglar to'plamidagi "faollarning" yarmidan ko'pi uchun B qiymatlari

ushbu birikmaga qaraganda yuqori bo'ladi. Agar biz ushbu birikma faol degan taklifni rad qilsak, ehtimollik 0,5 dan kam bo'lgan noto'g'ri qaror qabul qilamiz. Bunday holda, eksperimentda ushbu turdagi faoliyatni tasdiqlash ehtimoli kichik, ammo 50% dan ko'proq imkoniyat tasdiqlanadi, bu strukturaning yuqori yangilikka ega bo'lishi va yangi kimyoviy ob'ektga aylanishi mumkin [4].

**3-Jadval**

2-Xloro-N-tolil asetamid izomerlarining PASS onlayn dasturida o'rganilgan antifungal faollikni nazariy tahlili natijalari

№	Nomi	2-Xloro-N-o-tolil asetamid	2-Xloro-N-m-tolil asetamid	2-Xloro-N-p-tolil asetamid	CHEMBL ID
1	Filobasidiella neofomans	0.4884	0,4813	0,5544	CHEMBL365
2	Mikrosporium gipsi	0.4676	0,4481	0,5260	CHEMBL612945
3	Candida tropicalis	0.3429	0,3062	0,3435	CHEMBL612870
4	Galaktomyces geotrichum	0.0951	0.1069	0.1250	CHEMBL613775
5	Epidermophyton floccosum	0.0296	-	0,0272	CHEMBL612386

Jadvaldan korinadiki 2-xloro-N-tolil asetamid izomerlarining ayrim Filobasidiella neofomans, Mikrosporium gipsi, Candida tropicalis, Galaktomyces geotrichum zamburug'lariga qarshi faollikni nazariy tahlili olindi, va bu zamburug'lariga 2-xloro-N-o-tolil asetamidga nisbatan 2-xloro-N-p-tolil asetamidning faolligi biroz yuqori ekanligi, 2-xloro-N-m-tolil asetamidni faolligi pastroq ekanligi ma'lum bo'ldi. Epidermophyton floccosum zamburug'iga 2-xloro-N-m-tolil asetamidni faolligi aniqlanmadi.

Keyingi ishlar virusga qarshi faollikni nazariy tahlili o'rganilgan. Bu ham PASS onlayn dasturining AntiVir-Pred foydalanuvchiga kimyoviy birikma konsentratsiyasi 10 000 nM dan past yoki unga teng bo'lgan 56 virusning 66 oqsilining faolligini inhiye qilishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi. Har bir faoliyat balli ma'lum bir proteinni inhiye qilish va inhiye qilmaslik ehtimoli o'rtasidagi farqni ifodalovchi ishonch qiymati sifatida ifodalanadi. Ishonch qanchalik yuqori bo'lsa, nazariy tahlilning haqiqat bo'lish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Muayyan birikma uchun faqat  $P_a > P_i$  (ishonch  $> 0$ ) bo'lgan harakatlar mumkin deb hisoblanadi. Shuni esda tutish kerakki,  $P_a$  ehtimolli prognoz qilinayotgan molekulaning o'quv majmuasidagi "faollar" kichik to'plamida eng tipik bo'lgan molekulalarning tuzilmalari bilan o'xshashligini aks ettiradi. Shuning uchun, odatda,  $P_a$  qiymatlari va faoliyatning miqdoriy xususiyatlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik yo'q.

**4-Jadval**

2-Xloro-N-tolil asetamid izomerlarining PASS onlayn dasturida o'rganilgan viruslarga faollikni nazariy tahlili natijalari:

№	Virus nomi	Protain maqsadi	2-Xloro-N-o-tolil asetamid	2-Xloro-N-m-tolil asetamid	2-Xloro-N-p-tolil asetamid
			Ishonch		
1	Dang virusi 2-turi	Genom poliproteini	0,3588	0,5162	0,4876
2	2-toifa dang virusi(Tailand shtammi/16681/1984) (DENV-2)	Dang virusi turi 2 NS3 oqsili	0,0743	0,1142	0,1096
3	Herpes simplex virusi (1-toifa / shtamm 17)	Inson herpes virusi 1 DNK polimerazasi	0,1408	0,1106	0,1674
4	Odanning herpes virusi 6A	Inson herpes virusi 6 DNK polimerazasi	0,0085	-	0,0098
5	Odanning immunitet tanqisligi virusi 1-guruh M kichik turi B (isolateBRU/LAI) (OIV-1)	Gag-Pol poliproteini	0,0580	0,0576	0,0679
6	Inson rinovirusi 14	Genom poliproteini	0,0452	0,0365	0,0011
7	Yuqumli bronxit virusi	3C-ga o'xshash proteaz	0,3173	0,3165	0,3375
8	Macacine herpesvirus 1	Timidin kinaz	0,0421	0,0533	0,0452
9	Yaqin Sharq respirator sindromi bilan bog'liq koronavirus	Replikatsiya poliprotein 1ab	0,0302	0,0006	0,0386
10	SARS koronavirusi	SARS koronavirus 3C-ga o'xshash proteinaz	0,0507	0,0872	0,0819
11	Koronavirusning og'ir o'tkir respirator sindromi 2	Replikatsiya poliprotein 1ab	0,3384	0,3578	0,3914
12	Vaccinia virusi (G'arbiy rezerv shtammi) (VACV) (Vaccinia virusi (shtammi WR))	DNK polimeraza	0,2442	0,3038	0,3288
13	Varikella-zoster virusi (Duma shtammi) (HHV-3) (Inson herpes virusi 3)	DNK polimeraza	0,1408	0,1106	0,1674
14	Inson papillomavirusining 11-turi	Replikatsiya oqsili E1	-	0,0057	0,0095

**Xulosa.** Jadvallarda keltirilgan natijalardan asosan 2-xloro-N-tolil asetamid izomerlarini biologik faolliklari PASS onlayn natijalariga ko'ra bir-biriga nisbatan taqqoslanganda juda yaqin natijalarni ko'rsatgan va 2-xloro-N-tolil asetamid izomerlari molekulasining benzol xalqasidagi elektronodonor metil (-CH<sub>3</sub>) guruhi o'rinbosarining halqada joylashgan holatiga qarab molekulaning biologik faolligiga ta'sir ko'rsatishi. Metil guruhi xalqaning para holatida bo'lsa biologik faolliklari biroz yuqori bo'ladi. Bundan tashqari har bir izomerni o'ziga xos faolliklari borligi o'rganilgan. PASS onlayn dasturida olingan natijalar moddalarning amaliyotda biologik faolliklarini o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR**

1. В.В.Поройков, Д.А.Филимонов. Компьютерный прогноз биологической активности химических соединений как основа для поиска и оптимизации базовых структур новых лекарств. <http://www.chem.msu.ru/rus/publ/Poroykov/welcome.html>
2. Д.А. Филимонов, Д.С. Дружиловский, А.А. Лагунин- Компьютерный прогнозирование спектров биологической активности химических соединений: Возможности и ограничения. <http://www.bmc-rm.org/index.php/bmcrm/article/download/4/4 inline=1>

3. Poroikov, V. V., Filimonov, D. A., Borodina, Yu. V., Lagunin, A. A. & Kos, A. Robustness of biological activity spectra predicting by computer program PASS for non-congeneric sets of chemical compounds.// Journal of Chemical Information and Computer Sciences,-2000. -Vol. 40. (6). -P1349-1355.
4. <https://www.way2drug.com/passonline/index.php>
5. Veber, D. F.; Johnson, S. R.; Cheng, H. U.; Smith, B. R.; Ward, K. W.; Kopple, K. D. Molecular properties that influence the oral bioavailability of drug candidate // J. Med. Chem., -2002. -Vol. 45.-P. 2615-2621.
6. Lipinski, C. A.; Lombardo, F.; Dominy, B. W.; Feeney, P. J.; Adv. Drug Delivery Rev. 2001, 46, 3.
7. Satish V., Akolkar, Amol A., Nagargoje, Mubarak H., Shaikh, Murad Z., A. Warshagha |Jaiprakash N., Sangshetti, Manoj G., Damale, Bapurao B., Shingate. New N-phenylacetamide-linked 1,2,3-triazole-tethered coumarin conjugates: Synthesis, bioevaluation, and molecular docking study. //Arch Pharm., -2020, 11july



**Azizbek BOYDEDAYEV,**

*O'zR FA O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti tayanch doktoranti*

*E-mail: azizbek.boydedayev@gmail.com*

**Baxtiyor MUXITDINOV,**

*O'zR FA O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti yetakchi ilmiy xodimi, k.f.d*

*E-mail: muhitdinov.bahtiyor@gmail.com*

**Dilnoza AMONOVA,**

*O'zR FA O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi, PhD*

*E-mail: amonovadilnoza@gmail.com*

**Bobur SINDAROV,**

*O'zR FA O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti kichik ilmiy xodimi*

*E-mail: bobursindarov1@gmail.com*

**Abbasxan TURAYEV,**

*O'zR FA O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti bosh ilmiy xodimi, k.f.d., akademik*

*E-mail: abbaskhan@mail.ru*

*Bioorganik kimyo instituti professori, k.f.d M.Gafurov taqrizi asosida*

## **STUDYING THE REACTIONS FOR OBTAINING HYDROGEL BASED ON HYALURONIC ACID AND GELATIN**

### **Annotation**

This work investigates the reaction conditions for obtaining a hydrogel based on high molecular weight hyaluronic acid (Mw=291 kDa, DP=725) and gelatin (hydrolyzed collagen) (Mw=60 kDa). The molecular characteristics of the obtained hydrogel samples (degradation degree, gel formation time, viscosity, and product yield) were analyzed. Under optimal reaction conditions (GK/J 1/1 mg/mg, CIMPI/HOBt 0.6/1.0 mol/mol GKB), hydrogel samples based on hyaluronic acid and gelatin were obtained with a yield of 88.7%.

**Key words:** hyaluronic acid, gelatin, hydrogel, viscosity, degree of degradation.

## **ИЗУЧЕНИЕ РЕАКЦИЙ ПОЛУЧЕНИЯ ГИДРОГЕЛЯ НА ОСНОВЕ ГИАЛУРОНОВОЙ КИСЛОТЫ И ЖЕЛАТИНА**

### **Аннотация**

В данной работе исследованы условия реакции для получения гидрогеля на основе высокомолекулярной гиалуроновой кислоты (Mw=291 кДа, СП=725) и желатина (гидролизованной коллаген) (Mw=60 кДа). Проанализированы молекулярные характеристики полученных образцов гидрогеля (степень разложения, время образования геля, вязкость и выход продукта). При оптимальных условиях реакции (GK/J 1/1 мг/мг, CIMPI/HOBt 0,6/1,0 мол/моль GKB) гидрогель на основе гиалуроновой кислоты и желатина был получен с выходом 88,7%.

**Ключевые слова:** гиалуроновая кислота, желатин, гидрогель, вязкость, степень разложения.

## **GIALURON KISLOTA VA JELATIN ASOSIDA GIDROGEL OLISH REAKSIYALARINI O'RGANISH**

### **Annotatsiya**

Ushbu ishda yuqori molekulyar massali gialuron kislotasi natriyli tuzi (Mw=291 kDa, PD=725) va jelatin (gidrolizlangan kollagen) (Mw=60 kDa) asosida gidrogel olish reaksiya sharoitlari o'rganildi. Reaksiya natijasida olingan gidrogel namunalari molekulyar kattaliklari (bo'kish darajasi, gel hosil bo'lish vaqti, qovushqoqlik va mahsulot unumi) tahlil qilindi. Maqbul reaksiya sharoitlari (GK/J 1/1 mg/mg, CIMPI/HOBt 0,6/1,0 mol/mol GKB) gialuron kislotasi va jelatin asosidagi gidrogel namunalari 88,7% unum bilan olindi.

**Kalit so'zlar:** gialuron kislotasi, jelatin, gidrogel, qovushqoqlik, bo'kish darajasi.

**Kirish.** Respublikamizda mahalliy tabiiy xom ashyo asosida yangi dori vositalarini yaratish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish va mahalliy farmatsevtika sanoatini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida [1] va 2030 yilgacha fanni rivojlantirish konsepsiyasida [2] «...farmatsevtika sohasida ishlab chiqarishni oshirish...» vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, mahalliy o'simlik va hayvon xom-ashyolaridan olingan biologik faol moddalarini tadqiq qilish, ularning tuzilishi va faolligini o'rganish hamda ular asosida yangi, samarali dori vositalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biopolimerlar tirik organizm hujayralari tomonidan ishlab chiqarilgan tabiiy polimerlar bo'lib, ularning ko'pchiligi bioparchalanuvchanligi, biokelishuvchanligi, zaharsizligi va hujayra lektinlari bilan spetsifik bog'lana olishi sababli ular asosida yaratilayotgan dori vositalariga talab ortib bormoqda. Biopolimerlar asosida turli biologik faol makromolekulyar tizimlar olish, ularning terapevtik samaradorligini oshirish hamda ularni nishon organlarga yetkazib berishda istiqbolli birikmalar hisoblanadi. Gialuron kislotasi va jelatin tabiiy ravishda olingan biopolimerlar hamda fiziologik sharoitda bioparchalanuvchi molekullar hisoblanadi. Kollagenning qisman denaturatsiyasidan olingan tabiiy biopolimer bo'lgan jelatinning suvli eritmaları xona

haroratida ( $\approx 23^{\circ}\text{C}$ ) fizik gidrogellar hosil qilish xususiyatiga ega [3]. Jelatin gidrogellarining erish harorati  $\sim 32^{\circ}\text{C}$  bo'lib, ushbu fiziologik sharoitlarda ( $32^{\circ}\text{C}$ ) jelatin gellarining beqaror va zaif mexanik xususiyatlarga ega bo'lishi ularni amaliyotda qo'llanilishini cheklaydi. Jelatinni tabiiy sharoitda termik barqarorligini ta'minlash uchun uning tabiiy polisaxaridlar bilan qoplangan komplekslari olingan hamda ushbu kompleks gidrogellar dori vositalarini yetkazib beruvchi tizimlar sifatida qo'llanilgan [4]. Gialuron kislota signal molekula sifatida hujayralardagi turli biokimyoviy, fiziologik va patologik jarayonlarda ishtirok etadi [5-8]. Bunda gialuron kislotaning signal funksiyasi uning hujayra yuzasidagi retseptorlar va oqsillar bilan spetsifik ta'sirlashuvi natijasidagi signal transduksiyasi orqali amalga oshiriladi. CD44 gialuron kislota retseptori bo'lib, u hujayra-hujayra o'zaro ta'sirlashuvlari, hujayra adgeziyasi, migratsiyasi, hujayra proliferatsiyasi, hujayra bo'linishi, angiogenez, sitokinlar, xemokinlar va o'sish omillarini tegishli retseptorlarga tanishtirish, proteazalarni hujayra membranasida dokinglash, hujayralarni hayotiyiligini ta'minlashda signallar uzatish kabi muhim vazifalarni bajaradi [9-12]. Gialuron kislota va jelatinning turli sohalarda qo'llanilish imkoniyatlarini kengaytirishda ularning organizmdagi biologik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlarda gialuron kislota va jelatin asosida gidrogellar olish va ularning fizik-kimyoviy kattaliklarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

## 2. Materiallar va usullar

### 2.1. Gialuron kislota va jelatin asosida gidrogellar olish

Yuqori molekulyar massali gialuron kislota natriyli tuzi ( $M_w=291$  kDa,  $P_D=725$ ) deionizatsiyalangan suvdagi 40 mg/ml konsentratsiyali eritmasi tayyorlandi. Hosil qilingan eritmaga jelatinning ( $M_w=60$  kDa) deionizatsiyalangan suvdagi 40 mg/ml konsentratsiyali eritmasi qo'shildi va 30-60 minut davomida aralashtirildi. So'ng reaksiyon aralashmaga gialuron kislota natriyli tuziga nisbatan 1,0:0,1-1,2 mol/mol nisbatda 2-xlor metil piridin yodid (CIMPI) hamda 1,0:0,2-1,5 mol/mol nisbatda 1-gidrosibenzotriazol (HOBt) qo'shildi,  $25^{\circ}\text{C}$  da aralashtirildi va reaksiyon aralashma 24 soat davomida  $4-8^{\circ}\text{C}$  da sovutgichda saqlandi. Olingan gialuron kislota va jelatin asosidagi (GK-J) gel matritsasi qo'shimcha mahsulotlardan tozalash uchun fosfatli bufer eritmada ( $\text{pH}=7,4$ ) 48 soat va 0,9% li NaCl eritmada 24 soat davomida dializ usuli bilan tozalandi.

### 2.2. Qovushqoqlik qiymatlarini aniqlash

Namunalarning qovushqoqlik qiymatlari HAAKE Viscotester 2 plus uskunasi yordamida aniqlandi. Barcha o'lchov natijalari  $4-8^{\circ}\text{C}$  da saqlab tindirilgandan so'ng o'lchandi va natijalar qayd qilindi.

### 2.3. Bo'kish darajasini aniqlash


Liofil quritkich orqali quritib olingan GK-J gel matritsasi 20 mg miqdorini 100 ml deionizatsiyalangan suvga solindi. Gel to'liq botirilgandan so'ng ma'lum vaqtdan keyin suyuqlikdan olindi va gel yuzasidagi ortiqcha namlik filtr qog'oz bilan tozalandi va tortildi, jarayon gel hajmi o'zgarib qolguncha davom ettirildi [13]. Bo'kish darajasini (BD) quyidagi tenglama orqali hisoblandi (1).

$$\text{BD} (\%) = (W_1 - W_0) / W_0 \cdot 100 \quad (1)$$

Bu yerda:  $W_1$  – bo'kkan gidrogel massasi,  $W_0$  – dastlabki gidrogel massasi.

## 3. Natijalar va ularning muhokamasi

Tadqiqotlarda yuqori molekulyar massali gialuron kislota natriyli tuzi ( $M_w=291$  kDa,  $P_D=725$ ) va jelatin ( $M_w=60$  kDa) asosida gidrogel namunalari olindi, reaksiya sharoitlari o'rganildi va tadqiq qilindi. Gialuron kislota natriyli tuzi va jelatin asosida gidrogel olish reaksiyasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Gialuron kislota natriyli tuzi va jelatin asosida gidrogel olish reaksiyasi


Gialuron kislota natriyli tuzi va jelatin asosidagi gidrogel olish bo'yicha tadqiqotlar jelatinning gialuron kislota natriyli tuziga nisbatan turli massa nisbatlari (mg/mg) hamda faollovchi reagentlarning gialuron kislota birligiga (GKB) nisbatan turli mol qiymatlari ishtirokida olib borildi. Reaksiyalar natijasida hosil bo'lgan gel namunalarning BD, gel hosil bo'lish vaqti (GHBV), qovushqoqligi ( $\eta$ ) va unumdagi o'zgarishlar o'rganildi hamda reaksiyalarda gel hosil bo'lish imkoniyatlari tahlil qilindi. Reaksiya sharoitlari va olingan mahsulotlarning molekulyar kattaliklari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Namunalar	Reaksiya sharoitlari			Natijalar			
	GK:J mg/mg	CIMPI mol/mol GKB	HOBt mol/mol GKB	BD, %	GHBV, minut	$\eta$ , dPa·s	Unum (%)
GK-J1	1,0:0,1	0,1	0,2	60,50	600	23,1	34,5
GK-J2	1,0:0,1	0,3	0,2	53,34	480	26,2	41,3
GK-J3	1,0:0,1	0,5	0,2	47,50	450	27,6	43,4
GK-J4	1,0:0,1	0,6	0,2	42,45	360	28,8	45,6
GK-J5	1,0:0,1	0,8	0,2	41,90	330	28,9	45,8
GK-J6	1,0:0,1	1,0	0,2	41,57	300	29,1	46,1
GK-J7	1,0:0,1	1,2	0,2	41,22	270	29,7	46,4
GK-J8	1,0:0,1	0,6	0,4	42,11	340	29,1	45,9
GK-J9	1,0:0,1	0,6	0,6	41,01	280	30,2	46,7
GK-J10	1,0:0,1	0,6	0,8	38,53	240	32,1	48,2
GK-J11	1,0:0,1	0,6	1,0	34,26	190	35,1	53,3
GK-J12	1,0:0,1	0,6	1,2	33,57	170	36,3	55,1
GK-J13	1,0:0,1	0,6	1,5	32,37	150	36,7	56,2
GK-J14	1,0:0,3	0,6	1,0	33,13	160	36,0	54,7
GK-J15	1,0:0,5	0,6	1,0	26,05	110	47,6	68,3
GK-J16	1,0:0,7	0,6	1,0	21,42	50	56,3	77,5
GK-J17	1,0:1,0	0,6	1,0	13,75	15	67,3	88,7
GK-J18	1,0:1,2	0,6	1,0	10,45	10	75,2	90,1
GK-J19	1,0:1,5	0,6	1,0	8,16	5	85,6	90,6

Gialuron kislota natriyli tuzi va jelatin asosidagi gidrogel olish reaksiya sharoitlari va olingan mahsulotlarning molekulyar kattaliklari

Gidrogel olish reaksiyalarining dastlabki bosqichlarida jelatin va HOBt miqdori o'zgarmagan (GK/J 10/1 mg/mg, HOBt 0,2 mol/mol GKB) sharoitlarda turli miqdorda olingan CIMPI (0,1-1,2 mol/mol GKB) bilan olib borilgan reaksiyalarda gidrogel matritsalarining BD qiymatlari, GHBV,  $\eta$  va mahsulot unumi turlicha bo'lgan namunalar olindi. Bunda reaksiya muhitidagi CIMPI miqdorini 0,1-0,6 mol/mol GKB gacha oshirilishi bilan gidrogel matritsalarining BD qiymatlari  $60,5 \cdot 10^3$  % dan  $42,45 \cdot 10^3$  % gacha, gel hosil bo'lish vaqti esa mos ravishda 600 minutdan 360 minutgacha kamayishi, keyingi CIMPI miqdorini (1,2 mol/mol GKB) o'zgarishi natijasida esa BD qiymatlari  $41,22 \cdot 10^3$  % va gel hosil bo'lish vaqtining 270 minutgacha kamayishini ko'rsatdi (2(a)-rasm).




2-rasm. Reaksiyada CIMPI miqdori mol/mol GKB o'zgarishining GK-J bo'kish darajasi, gel hosil bo'lish vaqti (a) hamda gidrogel qovushqoqligi va mahsulot unumiga (b) ta'siri

Shuningdek, gidrogel namunalarining qovushqoqlik qiymatlari ( $\eta=23,1-28,8$  dPa·s) va mahsulot unumi (34,5-45,6%) mos ravishda ortib borishi, keyingi o'rinlarda esa CIMPI miqdorining 1,2 mol/mol GKB gacha oshirilishiga qaramasdan, gidrogel namunalarining qovushqoqlik qiymatlari hamda mahsulot unumi deyarli kam darajada o'zgarishi ( $\eta=29,7$  dPa·s, 46,4%) aniqlandi. Olingan gidrogel namunalarining molekulyar kattaliklariga ko'ra reaksiyalarda CIMPI miqdorining GKB ga nisbatan 1,0:0,6 mol/mol nisbatlarda bo'lishi bo'kish darajasi va gel hosil bo'lish vaqtining kamayishi, mahsulot unumi hamda qovushqoqlik qiymatlarining ortishi, keyingi bosqichlarda esa kam darajada o'zgarishini ko'rsatdi. Jadval ma'lumotlaridan maqbul molekulyar kattalikdagi gidrogel namunalarini olish uchun reaksiyalarda CIMPI miqdori GKB ga nisbatan 0,6 mol/mol bo'lishi barcha bosqichlar uchun maqbul miqdor ekanligini ko'rish mumkin.

Reaksiya sharoitlari jelatin, CIMPI miqdori o'zgarmagan (GK/J 10/1 mg/mg, CIMPI 0,6 mol/mol GKB) sharoitlarda turli miqdorda olingan HOBt (0,2-1,5 mol/mol GKB) bilan olib borilgan reaksiyalarda molekulyar kattaliklari (BD, GHBV,  $\eta$  va mahsulot unumi) turlicha bo'lgan gidrogel namunalarini olindi. Bunda, reaksiya muhitidagi HOBt miqdorini 0,4-1,0 mol/mol GKB gacha oshirilishi bilan gel matritsalarining BD qiymatlari  $42,11 \cdot 10^3$  % dan  $34,26 \cdot 10^3$  % gacha o'zgarib borishi GHBV esa mos ravishda 340 minutdan 190 minutgacha kamayib borishi kuzatildi. Tadqiqotlarning keyingi bosqichlarda HOBt miqdorini 1,5 mol/mol GKB gacha oshirilganda esa BD qiymatlari  $32,37 \cdot 10^3$  % gacha GHBV esa 150 minutgacha kam darajada o'zgarib borishi aniqlandi (3(a)-rasm).






3-rasm. Reaksiyada HOBt miqdori mol/mol GKB o'zgarishining GK-J bo'kish darajasi, gel hosil bo'lish vaqti (a) hamda gidrogel qovushqoqligi va mahsulot unumiga (b) ta'siri

Shuningdek, gidrogel olish reaksiyalarida HOBt miqdorining GKB ga nisbatan o'zgartirilishi hosil bo'lgan gel matritsalarining qovushqoqlik qiymatlari va mahsulot unumiga ta'siri o'rganildi. Bunda, dastlab HOBt miqdori GKB ga nisbatan 0,4 mol/mol GKB dan 1,5 mol/mol GKB gacha ortib borishi bilan gidrogel namunalari qovushqoqlik qiymatlari  $\eta=29,1$  dPa·s dan  $\eta=36,7$  dPa·s gacha, mahsulot unumi esa 45,9% dan 56,2% gacha ortib borishi aniqlandi (3(b)-rasm). Olingan gidrogel matritsalarining molekulyar kattaliklariga ko'ra reaksiyalarda HOBt miqdorining GKB ga nisbatan 1,0:1,0 mol/mol nisbatlarda o'zgartirilishi gidrogel namunalari molekulyar kattaliklariga (BD va GHBV ning kamayishi, mahsulot unumi va qovushqoqlikning ortishi) turlicha ta'sir ko'rsatishi, keyingi bosqichlarda esa kam darajada o'zgarishi kuzatildi. Tajribalardan maqbul molekulyar kattalikdagi gidrogel namunalari olish uchun reaksiyalarda HOBt miqdori GKB ga nisbatan 1,0 mol/mol bo'lishi barcha bosqichlar uchun maqbul miqdor ekanligi ko'rsatdi.

Faollovchi reagentlar miqdori o'zgarmagan (CIMPI/HOBt 0,6/1,0 mol/mol GKB) sharoitlarda turli massada olingan jelatin (GK/J 1/0,1-1,5 mg/mg) bilan olib borilgan reaksiyalarda gidrogel matritsalarining molekulyar kattaliklari (BD, GHBV,  $\eta$  va mahsulot unumi) turlicha bo'lgan namunalari olindi. Yuqori molekulyar massali gialuron kislotasi natriyli tuzi va jelatin massasini mos ravishda (1/0,3-1,0 mg/mg) oshirilishi bilan gidrogel matritsalarining BD qiymatlari  $33,13 \cdot 10^3\%$  dan  $13,75 \cdot 10^3\%$  gacha keskin kamayib borishi kuzatildi. Keyingi bosqichlarda jelatin massasini 1/1,0-1,5 mg/mg gialuron kislotasi natriyli tuzi massasiga nisbatan oshirilganda esa gidrogel namunalari BD qiymatlari ( $10,45 \cdot 10^3$ - $8,16 \cdot 10^3\%$ ) nisbatan kam o'zgarib borishi aniqlandi (4(a)-rasm).



4-rasm. Reaksiyada jelatin massasini gialuron kislotasi natriyli tuzi massalari nisbati o'zgarishining GK-J bo'kish darajasi, gel hosil bo'lish vaqti (a) hamda gidrogel qovushqoqligi va mahsulot unumiga (b) ta'siri

Tadqiqotlarda, jelatin massasining gidrogel hosil bo'lish vaqtiga ta'siri o'rganilganda (0,3-1,0 mg/mg) gel hosil bo'lish vaqti mos ravishda 160 minutdan 15 minutgacha keskin kamayishi, keyingi (1,2-1,5 mg/mg) o'zgarishi natijasida esa gel hosil bo'lish vaqtining 10 minutdan 5 minutgacha kamayishini ko'rsatdi (4(a)-rasm).

Shuningdek, jelatin massasini gialuron kislotasi natriyli tuzi massasiga nisbatan 0,3-1,5 mg/mg gacha ortib borishi bilan gidrogel matritsalarining qovushqoqlik qiymatlari  $\eta=36,0$  dPa·s dan  $\eta=85,6$  dPa·s gacha ortib borishi aniqlandi. Mahsulot unumi esa, 0,3-1,0 mg/mg massadagi jelatin ishtirokidagi reaksiyalarda keskin ortishi (54,7-88,7%) keyingi o'zgartirishlar natijasida esa mahsulot unumi 90,1% dan 90,6% gacha nisbatan kam o'zgarishi aniqlandi. Olingan natijalardan gidrogel matritsalarini olishda jelatin massasi asosiy omil ekanligi va u mahsulot unumiga bog'liq holda o'zgarib (54,7-90,6%) borishi aniqlandi.

Gidrogel matritsalarining molekulyar kattaliklariga ko'ra reaksiyalarda jelatin massasining gialuron kislotasi natriyli tuzi massasiga nisbatan teng massada bo'lishi gidrogel namunalari bo'kish darajasi va gel hosil bo'lish vaqtining kamayishi

hamda mahsulot unumi va qovushqoqlik qiymatlarining ortib borishi kuzatildi. Tadqiqotlardan maqbul molekulyar kattalikdagi gidrogel olish uchun reaksiyalarda jelatin massasi gialuron kislotasi natriyli tuzi massasiga nisbatan teng bo'lishi barcha bosqichlar uchun maqbul miqdor ekanligini ko'rsatdi.

**4. Xulosa.** Tadqiqot natijalari gidrogel namunalari olish reaksiyalarida faollovchi reagentlarning CIMPI va HOBt mos ravishda 0,6 va 1,0 mol/mol GKB miqdorlari hamda jelatinning gialuron kislotasi natriyli tuzi massasiga nisbatan teng massada olib borilganda qovushqoqlik qiymati  $\eta=67,3 \text{ dPa}\cdot\text{s}$ , BD  $13,75 \cdot 10^3\%$ , GHBV 10 minut bo'lgan namunalarda 88,7% unum bilan olindi va ushbu reaksiya sharoiti gialuron kislotasi va jelatin asosidagi gidrogel matritsalarini olishda maqbul sharoit sifatida tanlab olindi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-4947-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni
3. Prajapati V.D. et al. Galactomannan: A versatile biodegradable seed polysaccharide // *Int. J. Biol. Macromol.* Elsevier, 2013. Vol. 60. P. 83–92.
4. Hoffman A.S. Hydrogels for biomedical applications // *Adv. Drug Deliv. Rev.* Elsevier B.V., 2012. Vol. 64, № SUPPL. P. 18–23.
5. Litwiniuk M., Krejner A., Grzela T. Hyaluronic Acid in Inflammation and Tissue Regeneration // *Wounds. HMP Communications*, –2016. –V. 28, –№ 3. –P. 78–88.
6. Volpi N., Schiller J., Stern R., Soltes L. Role, Metabolism, Chemical Modifications and Applications of Hyaluronan // *Curr. Med. Chem.* Bentham Science Publishers Ltd., –2009. –V. 16, –№ 14. –P. 1718–1745.
7. Valachová K., Šoltés L. Hyaluronan as a prominent biomolecule with numerous applications in medicine // *Int. J. Mol. Sci. Multidisciplinary Digital Publishing Institute (MDPI)*, –2021. –V. 22, –№ 13. –P. 7077(1-25).
8. Maytin E. V. Hyaluronan: More than just a wrinkle filler // *Glycobiology.* Oxford University Press, –2016. –V. 26, –№ 6. –P. 553–559.
9. Vasvani S., Kulkarni P., Rawtani D. Hyaluronic acid: A review on its biology, aspects of drug delivery, route of administrations and a special emphasis on its approved marketed products and recent clinical studies // *Int. J. Biol. Macromol.* Elsevier B.V., –2020. –V. 151. –P. 1012–1029.
10. Turley, Eva A. RHAMM and CD44 peptides-analytic tools and potential drugs // *Front. Biosci. Front Biosci (Landmark Ed)*, 2012. Vol. 17, № 5. P. 1775–1794.
11. Misra S. et al. Interactions between Hyaluronan and Its Receptors (CD44, RHAMM) Regulate the Activities of Inflammation and Cancer // *Front. Immunol. Frontiers Media S.A.*, 2015. Vol. 6. P. 201(1-31).
12. Valachová K., Šoltés L. Hyaluronan as a prominent biomolecule with numerous applications in medicine // *Int. J. Mol. Sci. Multidisciplinary Digital Publishing Institute (MDPI)*, 2021. Vol. 22, № 13. P. 7077(1-25).
13. Buttermore S.T. et al. Increased RHAMM expression relates to ovarian cancer progression // *J. Ovarian Res. J Ovarian Res*, 2017. Vol. 10, № 1. P. 66(1-11).
14. Xue Y. et al. Synthesis of hyaluronic acid hydrogels by crosslinking the mixture of high-molecular-weight hyaluronic acid and low-molecular-weight hyaluronic acid with 1,4-butanediol diglycidyl ether // *RSC Adv. The Royal Society of Chemistry*, 2020. Vol. 10, № 12. P. 7206–7213



UDK: 66.669.2.(544.478,665)

**Abdulla DADAXODJAYEV,**  
*Toshkent davlat texnika universiteti professori, d.t.n*  
*E-mail: lxns1946@mail.ru.*  
**Munajat BOBOMURODOVA,**  
*Toshkent davlat texnika universiteti doktoranti, PhD*

*Geologiya fanlari universiteti professori, k.f.d., A.Qudratov taqrizi asosida*

### SEPARATION OF NICKEL SALTS FROM USED TO-2 CATALYST

Annotation

The article examines the effects of temperature, catalyst fineness, solid-to-liquid ratio, the effect of different acids, and the influence of catalyst calcination time, mixing speed, washing temperature, and The influence of washing rate, concentration of acids was studied and dedicated to the recycling of extracted nickel oxide. In order to clean the solutions from aluminum and chromium ions, nickel carbonate was precipitated with sodium carbonate. A 170-180 g/l solution of sodium carbonate was added to nickel nitrate and sulfate solutions at 70 °C with little mixing until the pH was 6.5-7. In this case, nickel carbonate salt was formed in the precipitate and was separated on a filter, washed in distilled water and dried at 120-130 °C. According to the results of the experiments, no turbidity was formed in the aqueous mixture of nickel carbonate, indicating the remains of Al and Cr. By heating nickel carbonate at 300-350 °C, nickel oxide was obtained.

**Key words:** nickel, used catalyst, nitrate, sulfate, carbonate. Rhenium, palladium, platinum, TO-2, GIAP-8, Reformax - 210, Reformax - 330, R - 67, natural gas, reforming.

### ВЫДЕЛЕНИЕ СОЛЕЙ НИКЕЛЯ ИЗ ИСПОЛЬЗОВАННОГО КАТАЛИЗАТОРА ТО-2

Аннотация

Tadqiqotimiz davomida olingan PPM-1 tashuvchi IQ-spektridagi tebranish chastotalari tegishli:  $3277\text{cm}^{-1}$  sohada O-H guruhlar valent tebranishi,  $3100\text{ cm}^{-1}$  soxada Ar-H bog'i uchun xos bo'lgan kuchsiz tebranish yutlislari,  $2928$  va  $2856\text{ cm}^{-1}$  sohalarda C-H tebranislari,  $2244\text{cm}^{-1}$  soxada CN bog'ining valent tebranishi,  $1469\text{ cm}^{-1}$  soxada N-H guruh uchun xos bo'lgan tebranish yutlislari,  $400-600\text{ cm}^{-1}$  sohalarda C-H, C-N guruxlarining defarmatseon tebranishi hisobiga tebranish chastotalari kuzatilishi aniqlandi.



### 3-pacm. PPM-1 tashuvchiga reagentning immobillashdan keying roman spektri

Tadqiqotimiz davomida olingan PPM-1+Re IQ-spektridagi tebranish chastotalari tegishli:  $3277\text{cm}^{-1}$  sohada O-H guruhlar valent tebranishi,  $3100\text{ cm}^{-1}$  soxada Ar-H bog'i uchun xos bo'lgan kuchsiz tebranish yutlislari,  $2928$  va  $2856\text{ cm}^{-1}$  sohalarda C-H tebranislari,  $2244\text{cm}^{-1}$  soxada CN bog'ining valent tebranishi,  $1741\text{ cm}^{-1}$  soxada C=O uchun xos bo'lgan tebranish yutlislari,  $1566-1469\text{ cm}^{-1}$  sohalarda Ar xalqa uchun xos bo'lgan tebranish yutlislari,  $1018-1185\text{ cm}^{-1}$  soxada  $\text{SO}_3$  guruh defarmatseon tebranishi hisobiga tebranish chastotalari kuzatilishi aniqlandi.



### 3-pacm. PPM-1 tashuvchiga immobillangan reagentning metall ioni bilan kompleksining roman spektri

Tadqiqotimiz davomida olingan PPM-1+Re+Me IQ-spektridagi tebranish chastotalari tegishli:  $3277\text{cm}^{-1}$  sohada O-H guruhlar valent tebranishi,  $3100\text{ cm}^{-1}$  sohada Ar-H bog'i uchun xos bo'lgan kuchsiz tebranish yutlislari,  $2928$  va  $2856\text{ cm}^{-1}$  sohalarda C-H tebranislari,  $2244\text{cm}^{-1}$  sohada CN bog'ining valent tebranishi,  $1741\text{ cm}^{-1}$  sohada C=O uchun xos bo'lgan tebranish yutlislari,  $1566-1469\text{ cm}^{-1}$  sohalarda Ar halqa uchun xos bo'lgan tebranish yutlislari,  $1018-1185\text{ cm}^{-1}$  sohada  $\text{SO}_3$  guruh

defarmatsion tebranishi, 837  $\text{cm}^{-1}$  soxalarda Bi-O bog'larning valent tebranishi, 648-572  $\text{cm}^{-1}$  soxalarda Bi-O bog'larning defarmatsion tebranishi hisobiga tebranish chastotalari kuzatilishi aniqlandi.

**Xulosa va takliflar.** Vismut (III) ionini sorbsion-spektrofotometrik aniqlash uchun 3,3'-Bis[N,N-bis(karboksimetil) aminometil]-o-krezolsulfoneftalein to'rt natriyli tuzi analitik reagent sifatida tavsiya etildi. Vismut (III) ionini 3,3'-Bis[N,N-bis(karboksimetil) aminometil]-o-krezolsulfoneftalein to'rt natriyli tuzi yordamida aniqlashning maqbul sharoitlari taklif qilindi. 3,3'-Bis[N,N-bis(karboksimetil) aminometil]-o-krezolsulfoneftalein to'rt natriyli tuzi reagentining elektron bulut zichliklari yarim empirik usullar yordamida aniqlandi. Tolali sorbentlarga organik reagentlarni immobillashda  $-\text{SO}_3\text{H}$  guruh, metall ionlari bilan kompleks hosil bo'lishida esa  $-\text{OH}$  va  $-\text{CO}$  ishtirok etishi izohlandi. Vismut ionini tolaga immobillangan reagentlar bilan hosil qilgan komplekslarining tuzilishi, mexanizmi nur yutish hamda roman spektroskopik tahlili bilan isbotlandi.

Vismut ionlarini immobillangan 3,3'-Bis[N,N-bis(karboksimetil) aminometil]-o-krezolsulfoneftalein to'rt natriyli tuzi yordamida sorbsion-spektrofotometrik aniqlash usuli ishlab chiqildi, olingan natijalarning nisbiy standart chetlanishlari qiymati 0,33 dan oshmaganligi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Amir Andarmonovich Karimov Academic Research in Educational Sciences ISSN: 2181-1385 DOI: 10.24412/ 2181-1385-2022-4-56-61
2. Basargin N.N., Oskotskaya E.R., Karpushina G.I., Senchakov V.G., and Rozovskii Yu.G. Preconcentration and Determination of Traces of Heavy Metals with Polymer Chelating Sorbents in the Analysis of Natural and Waste Water // J. Analytical chemistry-2003–Vol. 58 –No. 7. –P. 617-619.
3. Hedjazi M.Vishnikin A. B. Bazel Y. R. Journal of Molecular Structure (2022).
4. Patil A. R. Patil V. N. Deshmukh L. P. Thin Solid Films (2002).
5. Malakova H. G.Mateva Z. M. Talanta (1996),10.1016/0039-9140(95)01709-7
6. Al-Saidi H. M.El-Bindary A. A.Abdel-Fadeel M. A. RSC Advances (2016),10.1039/c5ra27764g
7. Ashwini V.Sadlapurkar a b,Umesh B.Barache b c, Abdul B. Shaikh b, Pratibha C. Dhale b, Shashikant H.Gaikwad b, Tukaram N.Lokhande b Chemical Data Collections Volume 37, February 2022, 100798



UDK: 661.183.2: 66.022.3

*Raximjon PAYG'AMOV,*

*O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti doktoranti, PhD., dotsent.*

*E-mail: rpaygamov@mail.ru.*

*TKTI professori v.b., t.f.d. R.J.Eshmetov taqrizi asosida*

## STUDY OF THE INFLUENCE OF CHEMICAL AND PHYSICAL ACTIVATION ON THE ADSORPTION ACTIVITY OF ANGREN BROWN COAL IN RELATION TO BENZENE

Annotation

Further improvement of methods and technologies for the production of carbon adsorbents based on carbon-containing raw materials is one of the urgent tasks. For this, it is important to obtain carbon adsorbents based on local raw materials, including Angren brown coal (grade 2BPK). In a high-vacuum adsorption installation of the obtained coal adsorbents, benzene vapor adsorption isotherms were obtained and sorption-structural parameters were determined. In the conducted studies, the dependence of the thermal activation temperature and the amount of chemical activating reagent on the adsorption activity of these samples was studied. It has been established that the saturation adsorption value of thermally activated samples at 800°C is 2.5 times higher than that of initially non-activated natural coal samples.

**Key words:** 2 BPK, activated carbon, benzene, isotherm, adsorption, desorption, specific surface area, thermal activation, chemical activation, monolayer capacity, porosity, microporosity, mesoporosity.

## ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ХИМИЧЕСКОЙ И ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВАЦИИ НА АДсорбЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ АНГРЕНСКОГО БУРОГО УГЛЯ ПО ОТНОШЕНИЮ К БЕНЗОЛУ

Аннотация

Дальнейшее совершенствование методов и технологий производства углеродных адсорбентов на основе углеродсодержащего сырья является одной из актуальных задач. Для этого важно получить углеродные адсорбенты на основе местного сырья, в том числе ангреновского бурого угля (марка 2БПК). В высоковакуумной адсорбционной установке полученных угольных адсорбентов получены изотермы адсорбции паров бензола и определены сорбционно-структурные показатели. В проведенных исследованиях изучена зависимость температуры термоактивации и количества химического активирующего реагента от адсорбционной активности этих образцов. Установлено, что величина адсорбции насыщения термически активированных образцов при 800°C в 2,5 раза выше, чем у исходно неактивированных образцов природного угля.

**Ключевые слова:** 2 БПК, активированный уголь, бензол, изотерма, адсорбция, десорбция, удельная поверхность, термическая активация, химическая активация, монослойная емкость, пористость, микропористость, мезопористость.

## ANGREN QO'NG'IR KO'MIRINING BENZOLGA NISBATAN ADSORBSION FAOLLIGIGA FIZIK VA KIMYOVIY FAOLLANTIRISHNING TA'SIRINI O'RGANISH

Annotatsiya

Tarkibida uglerod saqlagan xomashyolarga asoslangan uglerodli adsorbentlarni ishlab chiqarish usullari va texnologiyalarni yanada takomillashtirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu maqsadda uglerodli adsorbentlarni mahalliy xom ashyolar asosida olish, jumladan Angren qo'ng'ir ko'miri (2BPK markali) asosida olish muhim ahamiyatga ega. *Olingan ko'mir asorbentlarning* yuqori vakuumli adsorbsion qurilmada benzol bug'larining adsorbsiya izotermalari olindi va sorbsion-struktura ko'rsatkichlari aniqlandi. Olib borilgan tadqiqot ishida ushbu namunalarning adsorbsion faolligiga termik faollantirish haroratining hamda kimyoviy faollantiruvchi reagent miqdorining bog'liqligi o'rganilgan. 800°C da termik faollantirilgan namunalar dastlabki faollantirilmagan tabiiy ko'mir namunalarga nisbatan to'yinish adsorbsiya miqdori 2,5 marta yuqori bo'lishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** 2 BPK, faollantirilgan ko'mir, benzol, izoterma, adsorbsiya, desorbsiya, solishtirma sirt yuza, termik faollantirish, kimyoviy faollantirish, monoqavat sig'imi, g'ovaklik, mikro'ovak, mezog'ovak.

**Kirish.** Qo'ng'ir ko'mirlar asosida olinadigan adsorbentlarning sorbsiyasi jarayoniga va ularning fizik-mexanik xususiyatlariga bir qator omillar ta'sir qiladi. Masalan, ko'mirning boshlang'ich parametrlari, oksidlanishi, disperslik darajasi, faollantirish harorati, piroliz jarayonini isitish tezligi, karbonizatsiyaning yakuniy harorati, faollashtirish vaqti, kimyoviy faollantiruvchi reagent hamda uning miqdori va boshqa omillar. Shuning uchun, qo'ng'ir ko'mir asosida tayyorlangan materiallarning sirt yuzasi, sorbsion va fizik xususiyatlari majmuasini o'rganish bugungi kunning muhim masalalardan hisoblanadi.


Organik komponentlarning grafitlanishi va kokslanishi ko'mir hosil bo'lish jarayonida sodir bo'lib, ko'mir materialining strukturaviy xususiyatlariga ta'sir qiladi. Ko'mirning kristal o'lchami va shakli, g'ovak tarkibi va tarqalishi, zichligi va zarracha

hajmining taqsimlanishi kabi mikro tuzilmaviy xususiyatlari uning adsorbsion va mustahkamlik xususiyatlarida muhim rol o'ynaydi [1-3].

Umuman olganda, ko'mir adsorbentlarining mustahkamligi, adsorbsiyasi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish yanada samarali va iqtisodiy jihatdan mumkin bo'lgan materiallarni ishlab chiqish uchun muhimdir. Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar moddalarni tozalash, filtrlash va adsorbsiyalash jarayonlarini yaxshilashga yordam beradi, bu esa o'z navbatida sanoat jarayonlarining sifati va barqarorligini oshirishga olib keladi [4,5].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda ko'mir tuzilishi va sorbsiya tizimining xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ko'pgina xorijiy va mamalakatimizda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunday tadqiqotlardan birida multiple sorption model (MSM) simulyatsiyalarida haqiqiy ko'mir tuzilishiga qo'llanganda adsorbsiya mexanizmini aniqlashga qaratilgan. Xususan, adsorbsion tizimdagi adsorbatning kogeziya energiyasi va hajmi tanlangan sirt geterogenligini modellashtrishda hisoblab chiqiladi va tegishli MSM parametrlarini aniqlash uchun ishlatiladi [6].

Ushbu tadqiqotda Materials Studio dasturi yordamida 293,15, 313,15 va 333,15 K simulyatsiya qilingan harorat va 0 dan 10 MPa gacha bo'lgan adsorbsion bosimga ega bo'lgan uchta turli xil ko'mir darajasidagi ko'mirlarning adsorbsion simulyatsiyasini superpozitsiya holatida o'rganilgan [7].



1-rasm. Alohida tarkibiy qismlardan tashkil topgan sopolimer ko'mir strukturasi sxematik ko'rinishi: aromatik birikmalar doirasi (1), o'zaro bog'langan alifatik, alisiklik va geterosiklik zanjirlar (qora rang), o'zaro bog'liq bo'lmagan alifatik, alisiklik va geterosiklik zanjirlar (ko'k rang), g'ovak (qizil rang) va mineral qo'shimchalar (yashil).

Mamalakatimizda Angren qo'ng'ir ko'miri (2BPK markali) asosida ko'mir adsorbentlar tayyorlangan. 550°C da ko'mirni termik ishlov berish natijasida hosil bo'lgan adsorbent gidrofil xususiyatga ega ekanligi, bundan tashqari neft mahsulotlari va kalsiy gidroksid asosida kompozit materiallar olingan. Olingan adsorbentlar oqava suvlarni neft mahsulotlari va mineral aralashmalardan tozalash uchun ishlatilgan [8].

Mahalliy daraxt poyasi chiqindilari asosida import o'rmini bosuvchi ko'mir adsorbentlar olish va ularda organik moddalar adsorbsiyasi hamda adsorbsiya termodinamikasining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan [9-11].

2BR2 markali Angren qo'ng'ir ko'mirini termik hamda kaliy ishqori yordamida kimyoviy faollantirib olingan ko'mir adsorbentlarning benzol bug'larining adsorbsiya izotermalari va tegishli formulalar asosida struktur-sorbsion xususiyatlari aniqlangan [12].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ko'mirning xususiyatlarini yaxshilash va uni turli sohalarida qo'llash bilan bog'liq jarayonlarni o'rganish doirasida ushbu materialni issiqlik bilan ishlov berish va faollashtirish usullariga alohida e'tibor beriladi. Ko'mirni termik ishlov berish va faollashtirish uni o'zgartirishning muhim bosqichlari bo'lib, uning ko'lamini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Ko'mirning faolligi va funktsionalligini oshirishda hamda uning tuzilishi va xususiyatlarini o'zgartirish uchun uni termik, bug'-gaz va kimyoviy faollashtirish usullaridan keng miqyosda foydalaniladi. Ushbu usullarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega va yakuniy mahsulotning talab qilinadigan xususiyatlari va maqsadiga muvofiq optimallashtirilishi mumkin. Ushbu usullar faollashtirilgan uglerodli adsorbent olish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib uglerodli adsorbentlarni qo'ng'ir ko'mirlar asosida tayyorlash alohida ahamiyatga ega. Shu maqsadda tadqiqot ob'ekti sifatida 2BPK markali qo'ng'ir ko'miri tanlab olindi. Ko'mir namunasi fizik (termik), bug'-gaz va kimyoviy (kaliy ishqori) faollantirish usullari yordamida faollantirib adsorbentlar tayyorlandi. Fizik faollantirish usulida namuna 100-900°C (10°C/min<sup>-1</sup>) 1,5 soat davomida inert muhitda hamda 850°C da suv bug'i bilan termik faollantirildi. Kimyoviy faollantirish usulida esa **dastlab** xomashyo maydalanib, 500 °C da inert muhitda piroliz qilindi. Olingan karbonizat kaliy gidroksid eritmasi bilan kimyoviy ishlov berildi. Karbonizat va faollashtiruvchi reagentning massa nisbati (1:1, 1:2, 1:3, 1:4 va 1:5) ta'siri o'rganildi. Keyin olingan aralashmalar filtrlandi va ajratib olingan uglerodli materialni suv bug'i bilan 850°C harorat yordamida faollantirildi. Olingan uglerodli adsorbentni neytral muhit hosil bo'lgunga qadar 0,5 N xlorid kislota eritmasi bilan ishlov berildi. So'ngra adsorbentni distillangan suv bilan bir necha marta yuvildi va 100±5°C haroratda quritildi.


Olingan adsorbentlarning benzol bug'lari bilan adsorbsiyasi ISO 15901-1 asosida o'rganildi. Ko'mir adsorbentlarida benzol bug'lari adsorbsiyasi izotermalari asosida adsorbentlarning muhim ko'rsatkichlaridan hisoblangan monoqavat sig'imi  $\alpha_m$ , to'yinish hajmi  $V_s$  (yoki adsorbsiyasi  $\alpha_s$ ) va ularning solishtirma yuzalari (S) BET nazariyasi tenglamasi yordamida aniqlandi [13-15].

**Tahlil va natijalar.** Olingan ko'mir adsorbentlarga benzol bug'lari adsorbsiyasi izotermalari quyidagi rasmlarda keltirilgan.

100°C dan 900°C gacha termik ishlov berilgan namunalarda haroratlarning farqiga ko'ra 800°C da termik faollantirilgan namuna eng yuqori adsorbsion faollik ko'rsatdi. 800°C da termik ishlov berilgan namunalarda dastlabki faollantirilmagan tabiiy ko'mirga nisbatan to'yinish adsorbsiya miqdori 2,5 marta yuqori bo'lishi aniqlandi. 900°C da termik faollantirilgan namunalarda




800°C da termik ishlov berilgan namunalarga nisbatan to'yinish adsorbsiya miqdori deyarli o'zgarmaganligi aniqlandi. Haroratlar farqiga ko'ra, adsorbsiya miqorining bunday o'zgarishi bu adsorbentlarni termik ishlov berilganda tarkibidagi nisbatan past haroratlarda (100°C) parchalanmagan organik birikmalarning va smolasimon moddalarning yuqori haroratlarda (800°C) ajralib chiqishi natijasida ko'mir tarkibidagi qo'shimcha g'ovaklarning miqdori ortishi natijasi hisoblanadi. Suv bug'i bilan faollantirilgan namunalarning 800°C da termik ishlov berilgan namunalarga nisbatan to'yinish adsorbsiya miqdori 2,29 mmol/g dan 2,70 mmol/g gacha ortishi kuzatildi.



2-rasm. Termik va kimyoviy faollantirilgan ko'mir adsorbentlarining benzol bo'yicha adsorbsiya izotermalari.

Yuqorida o'rganilgan barcha adsorbentlarda benzol bug'i adsorbsiyasi izotermalaridan ko'rish mumkinki, adsorbsiya barcha solishtirma nisbiy bosim ( $p/p_s$ ) larda olingan ko'mir adsorbentlarning faollantirish jarayonida ishqorning miqdori ortib borish tartibida yuqorilab borishi kuzatildi. Eng yuqori adsorbsiya miqdori esa ko'mir va ishqor miqdori 1:5 massa nisbatida faollantirib olingan ko'mir namunasiga tegishli ekanligi aniqlandi. Ko'mir va ishqor miqdori 1:3 massa nisbatda olingan namuna uchun to'yinish adsorbsiya miqdori 3,51 mmol/g bo'lsa, ko'mir va faollantiruvchi reagent miqdori 1:5 massa nisbatda olingan namuna uchun 3,67 mmol/g ni tashkil etdi.

3-rasmida faollantirish harorati o'zgarishiga qarab ko'mir namunalarining solishtirma sirt yuzasining o'zgarishi ko'rsatilgan. Termik faollantirish harorati ortishi bilan solishtirma sirt yuzasi ( $m^2/g$ ) ortadi. Bu esa shuni ko'rsatadiki, yuqori haroratda ko'mir yuzasida qo'shimcha adsorbsion faol markazlar va g'ovakliklar hosil bo'ladi.



3-rasm. Ko'mir adsorbentlarining faollantirish sharoitini o'zgarishiga qarab BET bo'yicha solishtirma sirt yuzasini o'zgarishi.

Ko'mir namunasini kaliy ishqori bilan kimyoviy faollantirish BET bo'yicha solishtirma sirt yuzasini ( $m^2/g$ ) sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Olingan natijalarga ko'ra ko'mir va kaliy ishqori 1:5 massa nisbatida olingan ko'mir adsorbent dastlabki faollantirilmagan namunaga nisbatan deyarli 5,5 marta ortganini ko'rish mumkin. 800°C da olingan adsorbentga nisbatan 1,6 marta, suv bug'i bilan faollantirilgan namunaga nisbatan 1,3 marta ortganligi aniqlandi. Bu esa faollantirish jarayonida kaliy ishqoridan foydalanish solishtirma sirt yuzasini ortishiga yordam beradi. Ko'mir va ishqor miqdori 1:3 massa nisbatda olingan namuna uchun solishtirma sirt yuzasi 506,68  $m^2/g$ , ko'mir va faollantiruvchi reagent miqdori 1:5 massa nisbatda olingan namuna uchun 534,64  $m^2/g$  ni tashkil etishi aniqlandi. Ishqorning massa miqdori ortishi ko'mirning benzolga nisbatan to'yinish adsorbsiyasiga va solishtirma sirt yuzasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmagan. Bundan ko'mirni (2BPK) kaliy ishqori bilan kimyoviy faollantirish uchun ko'mir va ishqorning massa nisbati 1:3 optimal sharoit ekanligini ko'rish mumkin.

Adsorbentlarning benzol bo'yicha adsorbsiya izotermalari va mikro'ovaklar hajmiy to'yinish nazariyasi (MHTN) tenglamasi asosida adsorbentlarda turli nisbiy bosimlarda ( $P/P_s$ ) aniqlangan adsorbsiya hajmlari mikro'ovaklar ( $W_0$ ), mezog'ovaklar  $W_{me} = V_s - W_0$ , to'yinish adsorbsiya hajmi ( $V_s$ ) lari va g'ovaklarning o'rtacha radiusi qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Ko'mir adsorbentlarning benzol bug'lari adsorbsiyasi bo'yicha g'ovaklari hajmlari ko'rsatkichlari

Adsorbentlar	$W_0 \cdot 10^3$	$V_s \cdot 10^3$	$W_{me} \cdot 10^3$	G'ovaklarning o'rtacha radiusi $r_{ov}$ , Å
2BPK	0,057	0,082	0,025	16,3
BPK-100	0,063	0,091	0,028	15,5
BPK-200	0,048	0,100	0,052	17,0
BPK-300	0,058	0,110	0,052	16,1
BPK-400	0,089	0,133	0,044	14,5
BPK-500	0,112	0,156	0,044	13,9
BPK-600	0,164	0,189	0,025	12,3
BPK-700	0,173	0,199	0,026	12,2
BPK-800	0,178	0,203	0,025	12,2
BPK-900	0,172	0,201	0,029	12,3
BPK-850+H <sub>2</sub> O	0,218	0,239	0,021	11,7

БПК+КОН (1:1)	0,224	0,242	0,018	11,9
БПК+КОН (1:2)	0,247	0,264	0,017	11,8
БПК+КОН (1:3)	0,274	0,311	0,037	12,3
БПК+КОН (1:4)	0,281	0,319	0,038	12,3
БПК+КОН (1:5)	0,282	0,325	0,043	12,2

Adsorbentlarning mikrog'ovaklar hajmi ham, to'yinish adsorbsiya hajmi qiymatlari ham faollantirish harorati va kaliy ishqori bilan kimyoviy faollantirish vaqtida KOH miqdori nisbatlari ortishi bilan tegishli ravishda ortib borishi aniqlandi.

**Xulosa va takliflar.** Adsorbentlarning benzol molekularini adsorbsiyalash qobiliyati yuqori ekanligi ko'mir tarkibidagi g'ovaklar o'lchami, tuzilishi va ta'sirlashish potentsiallari bilan bog'liq. Kaliy ishqorining miqdori farqiga ko'ra, mikrog'ovaklar va adsorbsiya hajmining o'zgarishi bu adsorbentlarni kimyoviy faollantirish jarayonida va termik ishlov berilganda tarkibidagi nisbatan past haroratlarda parchalanmagan organik birikmalarning va smolasimon moddalarning yuqori haroratlarda KOH bilan kimyoviy reaksiya kirishishi natijasida ko'mir tarkibida yoriqlar va g'ovaklarning miqdori ortishi tasdiqlandi.

Kimyoviy faollantirish namunalarni termik faollantirishga qaraganda solishtirma sirt yuzasini ortishiga va mikrog'ovaklar o'lchamini kichiklashishiga hamda ularning miqdorini ortishiga olib keladi. Bu shuni ko'rsatadiki, faollantirish jarayonida kimyoviy reagentlar mikrog'ovaklarni hosil qilishda va ko'mirning solishtirma sirt yuzasini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Кугатов, П.В. Адсорбционное исследование микропористости карбонизованных саже-пековых гранул / Кугатов П.В., Баширов И.И., Жирнов Б.С. // Коллоидный журнал. – 2015. – Т. 77. – № 4. – С. 464.
2. M. Geça, M. Wiśniewska, and P. Nowicki, 'Biochars and activated carbons as adsorbents of inorganic and organic compounds from multicomponent systems – A review', *Advances in Colloid and Interface Science*, vol. 305, p. 102687, Jul. 2022, <https://doi.org/10.1016/j.cis.2022.102687>
3. J. M. Park, C. M. Kim, and S. H. Jhung, 'Melamine/polyaniline-derived carbons with record-high adsorption capacities for effective removal of phenolic compounds from water', *Chemical Engineering Journal*, vol. 420, p. 127627, Sep. 2021, <https://doi.org/10.1016/j.cej.2020.127627>
4. Мухин, В.М. Экологические аспекты применения активных углей // Экология и промышленность России. – 2014. – № 12. – С. 52-56.
5. V. I. Isaeva et al., 'Modern Carbon-Based Materials for Adsorptive Removal of Organic and Inorganic Pollutants from Water and Wastewater', *Molecules*, vol. 26, no. 21, p. 6628, Nov. 2021, <https://doi.org/10.3390/molecules26216628>
6. Jodłowski, Grzegorz & Ziółkowska, Magda. (2017). Characterization of hard coal properties applying multiple sorption model with parameters determined from qualitative approach to adsorption mechanism identification. *Adsorption*. 23. 10.1007/s10450-017-9869-2.
7. Jia J, Song H, Jia P. Molecular Simulation of Methane Adsorption Properties of Coal Samples with Different Coal Rank Superposition States. *ACS Omega*. 2023 Jan 10;8(3):3461-3469. doi: 10.1021/acsomega.2c07471. PMID: 36713738; PMCID: PMC9878655.
8. D. Jumayeva, I. Eshmetov, B. Jumabaev, A. Agzamkhodjayev. Carbon adsorbents on the basis of brown coal of angrén for cleaning industrial wastewater. *Journal of Chemical Technology and Metallurgy*, 51, 2, 2016, 210-214.
9. P. A. Пайгамов, И. Д. Эшметов, О. М. Валиева. Адсорбция паров бензола на углеродных адсорбентах полученных на основе отходов растительности. *Узбекский химический журнал*, 2024, №1. С. 22-27.
10. Paygamov, R. Comparison of physical-chemical and adsorption properties of activated plant tree coal adsorbent with import-analogical coal adsorbents. *Central asian journal of the theoretical and applied sciences* 2.05 (2021).
11. Rahimjon Paygamov, Mansurhon Mexmonxonov, Aziza Abdikamalova, Izzat Eshmetov and Oybek Ergashev. Adsorption properties of carbon adsorbents based on wood waste. *E3S Web of Conf.*, 401 (2023) 02013 DOI: <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340102013>
12. Пайгамов Р.А., Эшметов И.Д., Валиева О.М. Изучение адсорбционных свойств углеродных адсорбентов на основе ангрэнского бурого угля // *Universum: химия и биология: электрон. научн. журн*. 2024. 5(119). URL: <https://7universum.com/ru/nature/archive/item/17348>
13. ISO 15901-1, Распределение пор по размерам и пористость твердых материалов методом ртутной порометрии и газовой адсорбции - Часть 1: Ртутная порометрия.
14. ISO 15901-3, Распределение пор по размерам и пористость твердых материалов методом ртутной порометрии и адсорбции газа - Часть 3: Анализ микропор методом адсорбции газа.
15. ISO 9277:2010(E) Определение удельной поверхности твердых тел методом адсорбции газа - метод БЭТ



**UDK: 54.05.331.1+541.65.428(5y)я7**

**Lobar RADJABOVA,**

*Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti dotsenti v.b., PhD*

*E-mail:lobar.radjabova@mail.ru*

*Termiz muhandislik-texnologiya instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar do'ycha prorektori t.f.f.d., (PhD) ,dotsent Urozoov Mustafokul Kulturayevich taqriizi asosida*

## **SPORT ENERGETIKLARI VA ALKOGOLLI ENERGETIKLARNING TAHLILIIY NATIJALARI**

Annotatsiya

Ushbu maqolada sport energiyasi va alkogolli spirtli ichimliklar bo'yicha tadqiqotlar natijasida olingan tahliliy natijalarning umumiy ko'rinishini taqdim etadi. Sport energiyasi kontekstida kofein, taurin va B-vitaminlarini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan chidamlilik va konsentratsiyani oshirish kabi ijobiy ta'sirlar ta'kidlangan. Biroq, mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlar, jumladan, yurak muammolari va uyqusizlik qayd etilgan. Alkogolli spirtli ichimliklarga kelsak, ulardan foydalanish bilan bog'liq xavflar, xususan, alkogol bilan aralashirilganda ta'kidlangan. Tadqiqotlar xavfli xulq-atvor amaliyotlari va sog'liq uchun salbiy oqibatlarining potentsial o'sishini ko'rsatadi. Turli mamlakatlarda aholi salomatligini muhofaza qilish maqsadida alkogolli spirtli ichimliklar savdosini tartibga solish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Maqolada ushbu sohadagi ma'lumotlarni doimiy monitoring qilish va yangilash muhimligini ta'kidlaydi, chunki yangi tadqiqotlar va qoidalar sport va alkogolga asoslangan energiyaning inson tanasiga ta'siri haqidagi tushunchamizni o'zgartirishi mumkin.

Kalit so'zlar: analitik natijalar, sport energiyasi, spirtli ichimliklar, spirtli energiya ichimliklar, ishlash samaradorligini oshirish, sog'likka ta'siri, kofein tarkibi, jismoniy chidamlilik, xavf-xatarni bahlash, normativ chora-tadbirlar

## **ANALYTICAL RESULTS OF SPORTS ENERGETICS AND ALCOHOL ENERGY SUPPLIES**

Annotation

This article provides an overview of analytical results from studies on sports energy and alcoholic energy drinks. In the context of sports energy, positive effects such as increased endurance and concentration associated with the use of caffeine, taurine and B-vitamins have been highlighted. However, possible side effects, including heart problems and insomnia, have been reported. As for alcoholic energy drinks, the dangers associated with their use, particularly when mixed with alcohol, have been highlighted. Studies show a potential increase in risky behavioral practices and adverse health outcomes. Regulation of the sale of alcoholic energy drinks in order to protect public health is becoming an urgent issue in various countries. The article emphasizes the importance of continuous monitoring and updating of information in this area, as new studies and regulations may change our understanding of the effects of sports and alcohol-based energy on the human body.

**Key words:** analytical results, sports energy, energy drinks, alcoholic energy drinks, performance enhancement, health effects, caffeine content, physical endurance, risk assessment, regulatory measures.

## **АНАЛИТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ СПОРТИВНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ И АЛКОГОЛЬНЫХ ЭНЕРГЕТИКОВ**

Аннотация

В этой статье представлен обзор аналитических результатов исследований спортивных энергетических и алкогольных энергетических напитков. В контексте спортивной энергетики были отмечены такие положительные эффекты, как повышение выносливости и концентрации, связанные с употреблением кофеина, таурина и витаминов группы В. Однако сообщалось о возможных побочных эффектах, включая проблемы с сердцем и бессонницу. Что касается алкогольных энергетических напитков, то были подчеркнуты опасности, связанные с их употреблением, особенно в сочетании с алкоголем. Исследования показывают потенциальное увеличение рискованных поведенческих практик и неблагоприятных последствий для здоровья. Регулирование продажи алкогольных энергетических напитков в целях защиты здоровья населения становится актуальным вопросом в различных странах. В статье подчеркивается важность постоянного мониторинга и обновления информации в этой области, поскольку новые исследования и нормативные акты могут изменить наше представление о влиянии спорта и энергетики на основе алкоголя на организм человека.

**Ключевые слова:** аналитические результаты, спортивная энергия, энергетические напитки, алкогольные энергетические напитки, повышение работоспособности, влияние на здоровье, содержание кофеина, физическая выносливость, оценка риска, меры регулирования.

**Kirish.** Sport spirtli ichimliklari va alkogolli spirtli ichimliklar ham faol sportchilar, ham oddiy iste'molchilar e'tiborini tortadi. Kofein, taurin, vitaminlar va boshqa faol moddalar bilan boyitilgan bu ichimliklar jismoniy faoliyatni yaxshilash va energiyani oshirishga qaratilgan. Ushbu maqolada biz sport spirtli ichimliklar va alkogolli spirtli ichimliklarni o'rganishda olingan tahliliy natijalarni ko'rib chiqamiz. Sport energiyasi: Ijobiy ta'sirlar: Tadqiqot natijalari tahlili kofein va taurin tarkibiga ko'ra, sport energiya ichimliklarining chidamlilik va konsentratsiyaga ijobiy ta'sirini aniqladi. Ushbu komponentlar jismoniy faollikni oshirishga va tananing reaksiyasini yaxshilashga yordam beradi. Salbiy jihatlar: Shu bilan birga, tahliliy ma'lumotlar, shuningdek, mumkin bo'lgan yurak muammolari, uyqusizlik va yuqori darajadagi faol moddalarga salbiy reaksiyalar kabi potentsial salbiy ta'sirlarni ko'rsatadi. Alkogolli energiya ichimliklar: Aralashtirish va xavflar: Alkogolli spirtli ichimliklar

bo'yicha tadqiqotlar ularni alkogol bilan birgalikda ishlatish bilan bog'liq xavflarni aniqlaydi. Ushbu ichimliklarni aralashtirish mastlik darajasini idrok etishga ta'sir qilishi mumkin, bu esa xavfli xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Qoidalar va cheklolvar: Tahliliy dalillar alkogolli spirtli ichimliklar savdosini aholi salomatligini tashvishga solgan holda tartibga solish zarurligini ta'kidlaydi. Bir qator davlatlar allaqachon cheklolvar joriy etish choralarini ko'rishgan. Sport spirtli ichimliklari va alkogolli spirtli ichimliklar organizmga ta'sirini hisobga olgan holda faol tadqiqot mavzusidir. Ijoiy va salbiy tomonlar potentsial xavf va foydalarni yaxshiroq tushunish zarurligini ta'kidlaydi. Keyingi tadqiqotlar va tartibga solish ushbu ichimliklardan turli xil kontekstlarda xavfsiz va samarali foydalanishni ta'minlash uchun muhim bo'ladi. Kirish qismida tadqiqotda aniqlangan muammolar, o'rganilmagan muammolar, tadqiqot maqsadini va vazifalarni aniqlash talab etiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kofeinning yuqori dozalari yomon ruhiy salomatlik, tashvish va asabiylashishga olib kelishi mumkin. Buni, ayniqsa, spirtli ichimliklarning yoshlar orasida mashhurligini hisobga olgan holda hisobga olish juda muhimdir. Sport energiyasi va spirtli energiya tananing jismoniy va aqliy faoliyatini yaxshilash uchun ikki xil yondashuvni ifodalaydi. Ushbu maqolada biz ushbu sohalaridagi tahlil natijalarining maqsadi va ularning salomatlik va mahsuldorlikka ta'sirini ko'rib chiqamiz. Sport energiya mahsulotlari tanani energiya bilan ta'minlash va mashg'ulotlar va musobaqalarda yuqori ko'rsatkichlarni saqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu jarayonning asosiy jihatlaridan biri tadqiqot va sportchilarni sinovdan o'tkazish natijasida olingan natijalarni tahlil qilishdir.

**Tadqiqot qismi.** Trendlar va yangi tadqiqotlar. Sport energetikasi sohasidagi adabiyotlarni tahlil qilish hozirgi tendentsiyalarni va yangi tadqiqotlarni aniqlash imkonini beradi. Ixtisoslashgan ilmiy maqolalar, sharhlar va meta-tahlillar energiya qo'shimchalarining tanaga ta'siri, ularning samaradorligi va potentsial xavflar sohasidagi so'nggi kashfiyotlar haqida ma'lumot beradi.

Shaxsiylashtirilgan yondashuv asosida adabiyotlarni tahlil qilish, shuningdek, sport energetikasiga shaxsiy yondashuvning muhimligini ochib beradi. Energiya mahsulotlarining turli tarkibiy qismlariga tananing reaksiyasidagi farqlar optimal natijalarga erishish uchun individual tavsiyalar va dozalar rejimlari zarurligini ta'kidlaydi. Sport energiyasi mahsulotlarining sog'liqqa ta'siriga qaratilgan tadqiqotlar iste'molchilar xavfsizligini ta'minlash uchun ham muhimdir. Fiziologik testlar yurak tezligi, nafas olish, qon bosimi va jismoniy faoliyat davomida kislorod iste'moli kabi o'lchov parametrlarini o'z ichiga oladi. Ular real sharoitlarda energiya mahsulotlarining samaradorligini baholash imkonini beradi. Metabolik tahlil tananing energiyadan qanday foydalanishi haqida ma'lumot beradi. Bu metabolizmni, kaloriya sarfini va ozuqaviy moddalardan foydalanish samaradorligini o'rganishni o'z ichiga oladi. Spirtli ichimliklar energiyasi bo'yicha adabiyotlar tahlili: Alkogolli energiyadagi adabiy tahlil kombinatsiyalangan ichimliklarning tanaga ta'sirini tushunishga yordam beradi. Tadqiqotlar psixomotor funksiyaga, muvofiqlashtirishga va umumiy jismoniy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatdi. Adabiyotni o'rganish, shuningdek, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishning psixologik jihatlariga, shu jumladan alkogolli mastlikni idrok etishga ta'siri va ko'p miqdorda ichish xavfiga ta'sir qiladi. Alkogolli ichimliklar adabiyotining tahlili bunday ichimliklarning potentsial xavfi va suuiste'molini, shu jumladan ularning spirtli ichimliklarni iste'mol qilish xavfi, baxtsiz hodisalar va sog'liq muammolari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Sport energiyasi va spirtli ichimliklar energiyasi - bu mahsulotlarning tanaga ta'siri salomatlik va ishlash uchun juda muhim bo'lgan ikkita soha. Biz ushbu sohalaridagi tahliliy tadqiqotlar natijalarini ko'rib chiqamiz, shuningdek, tahlil davomida aniqlangan asosiy masalalarni muhokama qilamiz.

1-jadval

**Sport energiyasi va spirtli ichimliklar energiyasi zararli oqibatlarini quyidagicha:**

Energetik Ichimliklar toifasi	Umumiy effektlarga misollar	Izoh
Spirtli ichimliklar (masalan, pivo, sharob, spirtli ichimliklar)	Fikrlash qobiliyatining buzilishi, reflekslarning sekinlashishi, vosita funksiyasining buzilishi, uyquchanlik, komaning haddan tashqari dozasi o'limga olib kelishi mumkin.	Chiqib ketish og'ir bo'lishi mumkin; homiladorlik paytida haddan tashqari foydalanish homila uchun xavflidir
Depressantlar (masalan, uyqu dorilari, sedativlar, ba'zi trankvilizatorlar)	Diqqatsizlik, sekinlashgan reflekslar, depressiya, muvozanatning buzilishi, uyquchanlik, koma-dozani oshirib yuborish halokatli bo'lishi mumkin.	Chiqib ketish og'ir bo'lishi mumkin
Opiatlar (masalan, morfin, heroin, kodein, retsept bo'yicha ba'zi og'riqli dorilar)	Qiziqishning yo'qolishi, "bosh iring'adi" - haddan tashqari doz o'limga olib kelishi mumkin. Teri ostiga yoki tomir ichiga suuiste'mol qilish hepatit B, C va OIV / OITSni igna bilan birgalikda yuborishi mumkin.	
Stimulyatorlar (masalan, kokain, amfetaminlar)	Ko'tarilgan kayfiyat, haddan tashqari faollik, zo'riqish/tashvish, tez yurak urishi, qon tomirlarining siqilishi	Surunkali og'ir foydalanish paranoid psixozga olib kelishi mumkin. In'ektsiya yo'li bilan foydalanish hepatit B, C va OIV/OITSni igna bilan ulashish orqali tarqalishi mumkin

**Sport energetiklari** optimal echimlarni izlashda sinov natijalari quyidagicha:

1. Mahsulot samaradorligi- ko'pgina tahliliy natijalar chidamlilikni saqlash va jismoniy faoliyatni yaxshilashda sport energiyasining yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, karnitin, kreatin va B vitaminlari kabi ba'zi birikmalar energiya bilan ta'minlash va mashqdan keyin tiklanishni tezlashtirishda asosiy rol o'ynaydi.

2. Shaxsiylashtirilgan yondashuv- tahlil, shuningdek, sport energiya mahsulotlarini iste'mol qilishda shaxsiy yondashuv muhimligini ta'kidlaydi. Har xil turdagi mashg'ulotlar, tananing individual xususiyatlari va hatto iqlim sharoitlari natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin va bu tavsiyalarni ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak.

3. Xavfsizlik va sifat- analitik tadqiqotlar natijalari mahsulotlarning xavfsizligi va sifati bilan bog'liq. Ular allergik reaksiyalar yoki yurak-qon tomir tizimiga ta'sir qilish kabi sog'liq uchun mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni bartaraf etish uchun qattiq sifat nazorati standartlari muhimligini ta'kidlaydi.

Foydalanishni optimallashtirish: Natijalarni muhokama qilish sport energiyasidan foydalanishni optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi. Tavsiyalarni har bir sportchining o'ziga xos ehtiyojlari va maqsadlariga moslashtirish eng yaxshi natijalarga erishishning kalitidir.

2. Yangi ingredientlarni tadqiq qilish- Analytics sport energiya mahsulotlariga yangi ingredientlarni izlash va joriy etish masalasi ko'taradi. Adaptogenlar yoki uglevodlarning yangi shakllari kabi innovatsion komponentlar samaradorlikni oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin.

3. Iste'molchilarga ta'lim-muhokama, shuningdek, iste'molchilarni tarbiyalashning ahamiyatiga ham to'xtalib o'tadi. Sport energiyasi kuchli vosita bo'lishi mumkin, lekin faqat to'g'ri ishlatilganda. Iste'molchilar mutaxassis bilan maslahatlashish va tavsiyalarga amal qilish zarurligi haqida xabardor bo'lishlari kerak.

#### **Spirтли ichimliklar energiyasi: o'yin-kulgi va salomatlikni muvozanatlash: sinov natijalari quyidagicha:**

1. Organizmga ta'siri- analitik ma'lumotlar spirtli energiyaning organizmga murakkab ta'sirini ochib beradi. Kofein va boshqa stimulyatorlarning yuqori darajasi spirtli ichimliklarni zaharlanishiga qaramay, yolg'on uyg'onish hissini berishi mumkin.

2. Salomatlik uchun xavflar-tadqiqotlar spirtli ichimliklarni iste'mol qilishning sog'liq uchun potentsial xavflarini, jumladan, ruhiy kasalliklar va spirtli ichimliklarni haddan tashqari iste'mol qilish xavfini ko'rsatadi.

3. Qonunchilik jihatlar- natijalar spirtli ichimliklarni tartibga solishning qonunchilik jihatlar haqida ham savollar tug'diradi. Ko'pgina mamlakatlar sanoat rivojlanishi va iste'molchilar xavfsizligini muvozanatlashtiradigan qonunlarni ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

#### **Sport energetiklari va alkogolli energetiklarning taxliliy natijalari quyidagicha:**


1. Suiiste'mol qilish ehtimoli natijalarni muhokama qilish, ayniqsa, yoshlar orasida spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish potentsialini ta'kidlaydi. Bunday mahsulotlarni sotish va reklama qilish ustidan nazoratni kuchaytirish zarurati muhokama mavzusiga aylanmoqda.

2. Profilaktika va tarbiya- muhokama profilaktika va tarbiya masalalariga ham to'xtalib o'tadi. Aholini alkogolli ichimliklar xavfi haqida ma'lumot berish uchun ta'lim dasturlari va kampaniyalarini kengaytirish mas'uliyatli iste'mol qilishga yordam beradi.


3. Muvozanatli yondashuv-ma'lumotlarning muhokamasi alkogolli ichimliklarga muvozanatli yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Sanoat, tadqiqotchilar va qonunchilar o'rtasidagi ochiq muloqot aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan siyosatni ishlab chiqishning asosiy vositasiga aylanmoqda.

Sport va alkogol energetikasi sohasidagi tahliliy ma'lumotlarning natijalari va muhokamasi doimiy tadqiqot va ushbu mahsulotlardan foydalanishga yondashuvlarni yangilash muhimligini ta'kidlaydi. Xavfsizlik, samaradorlik va oqilona iste'molni ta'minlash ilmiy jamoatchilik, sanoat va umuman jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladigan ustuvor vazifaga aylanadi.

Bu esa o'z-o'zidan mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladi. 25 foizga yaqin aroqxo'rlar mastlik paytida o'zini o'zi o'ldirishni o'ylaydi. 100 gramm spirtli ichimlik sportchini ikki haftaga ishdan chiqaradi. Spirtli ichimliklar ichish, chekish, ayniqsa, ayollar va yosh bolalarga kuchli va tez ta'sir etadi. Ayol kishi bir-ikki yil mobaynidayoq alkogolga o'rganib qoladi. 13-14 yoshli o'g'il yoki qiz bolaga beriladigan bir qadah kuchsiz vino katta yoshli odamning bir shisha aroq ichgani kabi yomon ta'sir etadi. Oilada ichkilikbozlikmi, giyohvandlikmi, kashandalikmi, nosvoy chekishmi - qaysi biri mavjud ekan, u yerda sog'lom fikrli farzand kamoloti, oilaviy baxtiyorlik, hamjihatlik, o'zaro hurmat-izzat haqida gap bo'lishi mumkin emas. Tadqiqot natijalari energiya ichimliklarining asab tizimiga ta'sirini ham ko'rsatadi. Kofein yuqori darajasi uyqusizlik, asabiylashish va xavotirga olib kelishi mumkin, ayniqsa stimulyatorlarga sezgir bo'lgan odamlarda. Tadqiqotlar energiya ichimliklarini iste'mol qilishni metabolik kasalliklar bilan bog'ladi. Ichimlikdagi ortiqcha shakar semizlik va diabet rivojlanishiga yordam beradi. Psixologik jihatlar ham ta'sir qiladi. Spirtli ichimliklar asabiylashish, tashvish va ba'zi hollarda hatto tajovuzkor xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Natijalarning muhokamasi, shuningdek, alkogolli energetik ichimliklarning tanaga ta'sirini yaxshiroq tushinish uchun keyingi tadqiqotlar zarurligini ta'kidlaydi. Keng qamrovli, ko'p markazli tadqiqotlar xavfsiz iste'mol bo'yicha tavsiyalar berish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Natijalarga ko'ra alkogolli energetik ichimliklarning zararlari muhokamasi hushyor turish va sog'lom bo'lishni muvozanatlash muhimligini ta'kidlaydi. Ta'lim, tartibga solish va qo'shimcha tadqiqotlar potentsial xavflarni kamaytirish va kundalik hayotda spirtli ichimliklardan xavfsiz foydalanishni ta'minlash uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lishi mumkin.



**1-rasm: Merilend Muscle- sport energetiki tarkibidagi kofein va taurin kimyoviy moddalarining suyuqlik xromotografiyasidagi tasviri**



**2-rasm: Jaguar spirtli energetik ichimligi tarkibidagi kofein va taurin kimyoviy moddalarining suyuqlik xromotografiyasidagi tasviri**

**Xulosa.** Ma'lumotlardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, har ikkala energetik ichimlikda kofein va taurin kimyoviy xavfli moddalar me'yordan ko'pligi isbotlangan. Spirtli energetik ichimliklarni haddan tashqari iste'mol qilish juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Inson salomatligida va ko'p a'zolar yetishmovchiligining rivojlanishiga olib keladi va bu birinchi navbatda yurak-qon tomir tizimiga, markaziy asab tizimi, shuningdek, jigar va buyraklarga zarar yetkazadi. So'nggi o'n yilliklarda spirtli ichimliklar hushyor turish va energiyani oshirishning mashhur usuliga aylandi. Sog'likka potentsial xavflar va buzilish ta'siri tufayli sport va spirtli ichimliklarni birlashtirish odatda tavsiya etilmaydi. Spirtli ichimliklar jismoniy ko'rsatkichlarga, muvofiqlashtirishga va fikrlashga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Spirtli ichimliklar ta'sirida sport bilan shug'ullanish baxtsiz hodisalarga olib kelishi va jarohatlarga moyilligini oshirishi mumkin. Ammo, agar siz spirtli ichimliklarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan sport yoki energetik ichimliklar tayyorlashni nazarda tutayotgan bo'lsangiz, spirtli ichimliklarni energetik ichimliklar bilan birlashtirish ham tavsiya etilmaydi. Energetik ichimliklardagi kofeinning ogohlantiruvchi ta'siri alkogolning tinchlantiruvchi ta'sirini yashirishi mumkin, bu esa alkogol bilan bog'liq jarohatlar va alkogol bilan zaharlanish xavfini oshiradi. Spirtli ichimlikka qarshi kurash islomning asosiy tamoyillaridan biri sanaladi: hayotni, mulkni, naslni va dinni saqlash – musulmonning burchi. Sog'likka zarar yetkazadigan, cho'ntakni qoqlaydigan, aqlni zaiflashtiradigan, insonni dindan uzoqlashtiradigan va kelajak avlodni nobud qiladigan narsalar bilan har taraflama kurashish sog'lom aqlli kishilarning muqaddas vazifasidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Shalygin L.D., Eganyan R.A. Spirtli ichimliklar bolalar, o'smirlar, yoshlar va kattalar salomatligi uchun haqiqiy xavfdir. // O'quv qo'llanma. 2020 y. 250 b.
2. Mustafoulov Jonibek Spirtli ichimliklar tarkibi va ularning alohida komponentlarining organizmga ta'siri maqola Profilaktik tibbiyot. 2016; 19(1):56-63. DOI: 10.17116 // PROFMED201619156-63.
3. Mustafoulov Jonibek "Alkogolsiz energetik ichimliklar sifatini ekspertizadan o'tkazish" // Marketing kompaniyasi Akademiyasi Xizmat. Uzbek Scholar Journal Volume-09, Oct., 2022 www.uzbekscholar.com
4. Higgins J.P., Yarlagadda S., Yang B. Cardiovascular complications of energy drinks. Beverages.// 2015; (1): 104–126. DOI: 10.3390/BEVERAGES1020104.
5. Q.M.Karimqulov, O.A.Xasanov, B.Yo.Abdug'aniev, I.R.Asqarov. Bojxona ekspertizasi, Tovarlarni halqaro sertifikatlash: // Darslik. - T: "Yoshlar matbuoti OOO" nashriyoti, 2013 y. -296 bet.
6. Laboratoriy praktikum po dissipline «Tovarnyy menedjment i ekspertizamolochnix i jirovix tovarov» // Sost. G.G. Romanyuk – M.: GOU VPO «RGTEU»,
7. 2011. – 32 s.
8. Metodicheskoe posobie (rabochie instruksii) po otboru prob i obrazovtovarov, peremeshamix cherez tamojennuyu granitsu (34 tovarnie gruppi) // Red.
9. Nesterov A. V. - Novosibirsk: Nauka. - 1998. - 112 s.
10. Solojensev V.A., Nesterov A.V. Ekspertiza v tamojennom dele. //Novosibirsk: Nauka, 1998. – 144 s.
11. Namozov A.A., Asqarov.N.I. Ultrafinaysh spektrometridan foydalaniб maхsulotlar rangini ўzgartirishga muхitning boғliqliгини текшириш uslublari. // Bojxona i shi faoliatining dolzarb muammolari: Ilmий maқolalar tўplami, 1-soni.; -T.: OЎБИ, 2006.- 100-105-бетлар.
12. Asqarov. I.P., Namozov A.A. Salqin ichimliklar tarkidagi эрувчан курук moddalarni aniklash uslublari // Tashki iqtisodiy faoliat va bojxona konunchiligi muammolari: Respublika ilmий-amaliy konferentsiya materiallari. (Tезислар, maърузa va ilmий maқolalar tўplami), T. 2006 йил, 29 май, Тошкент, ДБК, 2006,-Б. 152- 154 бет



УДК: 547.982:83.84

**Камола РАИМОВА,**

Старший научный сотрудник Института Биоорганической химии имени А.Садыкова АН РУз

E-mail: k.raimova\_81@mail.ru

**Нодира АБДУЛЛАДЖАНОВА,**

Д-р хим. наук, ведущий научный сотрудник экспериментально-технологической лаборатории Института Биоорганической химии имени А.Садыкова АН РУз, г.Ташкент, Узбекистан

**Юлия ОЩЕПКОВА,**

д-р хим. наук, проф., заместитель директора Института Биоорганической химии имени А.Садыкова АН РУз

**Рахматилла РАХИМОВ**

Старший научный сотрудник Института Биоорганической химии имени А.Садыкова АН РУз

**Рустамжон МАХМУДОВ**

Старший научный сотрудник Института Биоорганической химии имени А.Садыкова АН РУз

По отзывам А.Х.Исламова д.х.н., Института Биоорганической химии имени А.Садыкова АН РУз

## СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОЛИФЕНОЛЬНОГО СОСТАВА ЛИСТЬЕВ РАСТЕНИЯ *HIPPOPHAE RAMNOIDS L.*(ELAEAGNACEAE)

Аннотация

Выделенная сумма полифенолов из растения *Hippophae rhamnoides L.* разделили на индивидуальные соединения методами колоночной хроматографии, ВЭЖХ, УФ, ИК и сравнили выделенные полифенолы растений, произрастающих в Республике Азербайджан. А именно сравнили фенольную кислоту: галловая кислота, флавонолы: кверцетин-3-О-галактозид, кемпферол, гидролизуемые дубильные вещества: геранин, 1-О-галлоил-4,6-гексагидрокси-дифенол-β-D-глюкоза и 1,4,6-три-О-галлоил-β-D-глюкоза.

**Ключевые слова:** полифенолы, экстракция, *Hippophae rhamnoides*, дубильные вещества, температура экстракции.

## HIPPOPHAE RAMNOIDS L.(ELAEAGNACEAE) O‘SIMLIGI BARAGLARINING POLIFENOL TARKIBINI QIYOSIY O‘RGANISH

Аннотация

*Hippophae rhamnoides L.* o‘simligidan ajratib olingan polifenol miqdorini ustunli xromatografiya, HPLC, UV, IQ usullari yordamida alohida birikmalarga bo‘lib va bu moddalarni Ozarbayjon Respublikasida o‘sadigan o‘simliklarni polifenollarini qiyosi o‘rganish ya‘ni fenol kislotasi: gall kislotasi, flavonollar: quercetin-3-O-galaktoside, kemperol, gidrolizlanadigan taninlar: geranin, 1-O-galloyl-4,6-hexahydroxydiphenol-β-D-glyukoza va 1,4,6-tri-O-galloil-β-D-glyukoza.

**Kalit so‘zlar:** polifenollar, ekstraksiya, *Hippophae rhamnoides*, taninlar, ekstraksiya harorati.

## COMPARATIVE STUDY OF POLYPHENOLIC COMPOSITION OF LEAVES OF THE PLANT *HIPPOPHAE RAMNOIDS L.*(ELAEAGNACEAE)

Annotation

The isolated amount of polyphenols from the plant *Hippophae rhamnoides L.* was divided into individual compounds using column chromatography, HPLC, UV, IR and the isolated polyphenols of plants growing in the Republic of Azerbaijan were compared. Namely, they compared phenolic acid: gallic acid, flavonols: quercetin-3-O-galactoside, kaempferol, hydrolyzable tannins: geranin, 1-O-galloyl-4,6-hexahydroxydiphenol-β-D-glucose and 1,4,6-tri-O-galloyl-β-D-glucose.

**Key words:** polyphenols, extraction, *Hippophae rhamnoides*, tannins, extraction temperature.

**Введение.** В последние годы природные полифенольные соединения привлекают внимание ученых не только как объект определения их химической структуры, но и с целью создания на их основе перспективных препаратов с биологической активностью. В современной медицине соединения этой группы применяются при простуде, аллергии, опухолях, язве желудка, вирусах, хронических заболеваниях, болезнях сердца, а также в качестве капилляроукрепляющих, атеросклеротических, антиоксидантных и сахароснижающих средств. Последние десятилетия объектом многочисленных исследований стала облепиха крушиновидная *Hippophae Rhamnoides L.*[1]. Повышенный интерес к этой культуре объясняется содержанием в ее плодах, листьях и коре таких биологически активных веществ (БАВ), как жир- и водорастворимые витамины, каротиноиды, минеральные вещества, флавоноиды, полисахариды и другие. Плоды *Hippophae rhamnoides* содержат витамины, жирные кислоты, органические кислоты, флавоноиды, холин, сахара, тритерпеновые соединения и другие вещества. Установлено, что листья растения содержат витамин С, флавоноиды и добавки. Плоды используются при лечении цинги и заболеваний желудка, а также как болеутоляющее средство. Отвар из листьев также применяют при лечении подагры. Экстракты, полученные из различных органов

**Kirish.** Titan dioksidi (TiO<sub>2</sub>) yuqori kimyoviy barqarorligi, toksik bo'lmaganligi va arzonligi tufayli turli xil sohalarda keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan modda sifatida topilgan [1,2]. Ma'lumki, uch o'lchovli tartiblangan makrog'ovak (3DOM) tuzilishiga ega bo'lgan materiallar, katta o'ziga xos sirt maydoni va fotonik kristallarning turli xil optik xususiyatlariga ega bo'lib, u fotonik kristall interfeysi, funksional materiallar, sensor va boshqalarda potensial qo'llanilishi mumkin [3]. Ayniqsa, 3DOM strukturasi yorug'likning ko'p tarqalishi va sekin foton effekti yorug'likni yig'ishni kuchaytiradi va fotokatalitik samaradorlikni oshiradi [4]. So'nggi paytlarda arzon va toksik bo'lmagan uglерod nanomaterialining yangi sinfi sifatida uglерod nuqtalari (CDs) o'zining ajoyib elektron uzatish va yig'ish xususiyatlari tufayli ko'proq e'tiborni tortmoqda [5]. Fotokatalizator yarimo'tkazgichlar bilan CDs larni ulash zaryadni ajratish tezligini sezilarli darajada yaxshilash va fotokatalitik faollikni oshirish

uchun katta imkoniyatlarni ko'rsatdi va shu bilan yuqori sifatli va arzon g'ovaksimon fotokatalizatorlarni olish uchun mutlaqo yangi yo'l ochadi.

Bu yerda biz uglerod nuqtalari bilan bezatilgan 3DOM-TiO<sub>2</sub> nanokompozitlarini sintezini amalga oshirdik. CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> katalizatorining strukturaviy, optik va elektron tuzilishlari o'rganildi.

#### Tajriba qism.

#### Uglerod nuqtalari bilan bezatilgan CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> fotokatalizatorini siztezi


Biz oldingi tadqiqotlarimizda sintez qilgan uglerod nuqtalari (CDs) va uch o'lchamli tartiblangan titan dioksidlaridan (3DOM-TiO<sub>2</sub>) foydalanib, uglerod nuqtasi bilan bezatilgan uch o'lchamli tartiblangan TiO<sub>2</sub> kompozitini CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> suv hammomida doimiy aralashtirish yo'li orqali tayyorlandi. Odatda, 7,5 mg (asosiy katalizatorga nisbatan 7.5%) sintezlangan uglerod nuqtalari 30 min davomida 50 mL toza etil spirtida ultratovishli eritish yo'li orqali eritildi. Uglerod nuqtalari erigan 50 mL etil spirtiga 100 mg 3DOM-TiO<sub>2</sub> qo'shildi va 24 soat davomida 500 rpm aylanish tezligida 50°C li suv hammomida doimiy aralashtirish orqali sintezlandi. Reaksiya tugaganidan keyin 10000 rpm 30 minut davomida sentrifuga qilindi va mikroq'ovak membrana (0,22 mkm) bilan filtrlandi. Filtrat uch marta distillangan suv bilan yuvildi va 60°C bir kecha davomida quritish uchun qoldirildi. Natijada qoramtir rangli CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> kukunlari olindi.

**Natijalar muhokamasi.** Uch o'lchamli makrog'ovak strukturali 3DOM-TiO<sub>2</sub> fotokatalizatorini sintez qilish uchun zol-gel va shablon usullaridan foydalanilgan. Prekursur sifatida etanol, titan (IV)-izopropoksid, xlorid kislotasi va suvdan iborat aralashmadan foydalanib 3DOM-TiO<sub>2</sub> strukturali fotokataliza tori 420 nm li PS shablioni yordamida zol-gel va shablon usullaridan foydalanib tayyorlandi [6,7].

Yuqori g'ovaklikdagi uch o'lchamli tartiblangan makrog'ovakning optik va fotokatalitik xossasini oshirish uchun 300°C da 2 soat, 400°C da 2 soat va 550°C da 2 soat davom kalsinatsiya qilindi. Kalsinatsiya jarayoni harorati 550°C boshqa oshirilmaydi, chunki harorat oshirilgan sayin TiO<sub>2</sub> ning kristall fazalari (anatazdan rutilga) o'zgarib boradi va uning fotokatalitik xossasiga ta'sir ko'rsatadi [8]. 3DOM-TiO<sub>2</sub> fotokatalizatorining fotokatalitik xossasi yuqori emas, lekin uning sekin foton effekti, yuqori tartiblangan bir xil g'ovakligi va keng yuzaga ega ekanligi ularning fotokataliz jarayonlarida qo'llanilishida muhim ahamiyatga ega [9]. 3DOM-TiO<sub>2</sub> fotokatalizatorining optik va fotokatalitik xossasini yanada oshirish maqsadida ko-katalizator moddalar 3DOM skeletiga ma'lum miqdorlarda kiritiladi. Hozirda eng yaxshi ko-katalizatorlar sifatida uglerod nuqtalaridan keng foydalanilmoqda.

Qizil rang tarqatuvchi uglerod nuqtalari solvotermik usul yordamida limon kislotasi va karbamiddan foydalanib sintezi qilindi. Dimetilformamid va sirka kislotasi ushbu solvotermik jarayonda erituvchi sifatida qo'llanildi, chunki ushbu erituvchilar adabiyotlardan ma'lumki yuqori fluoessent uglerod nuqtalarini sintezlashda ishlatiladi [10]. Uglerod nuqtasi saqlagan uch o'lchamli tartiblangan CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> kompoziti suv hammomida doimiy aralashtirish yo'li orqali tayyorlandi. Jarayon uchun past harorat tanlangan, chunki yuqori haroratlarda olib borilganda uglerod nuqtalarining xossalari o'zgarib ketishi va boshqa birikmalarga aylanishi mumkin edi. Fotokataliz jarayonlari katalizatorning yuzasida amalga oshirishini inobatga olib uglerod nuqtalari uch o'lchamli tartiblangan titan dioksidi yuzasida bir tekis taqsimlanishi va titan dioksidi yuzasida kimyoviy bog'lar orqali bog'lanib bitta modda bo'lishi taminlangan.

1-rasm (a) uglerod nuqtasining HRTEM tasviri shuni ko'rsatadiki uglerod nuqtalari dumaloq shaklda bir tekis taqsimlangan holatda. HRTEM tasvirlaridan aniq ko'rinib turibdiki, ushbu uglerod nuqtalari panjara tuzilmalarida grafit uglerodining panjarali chiziqlari mavjud. Uglerod nuqtalarining (CDs) kristallar panjara oralig'i (crystal spacing) taxminan 0,21 nm ni tashkil qiladi, bu (002) yuzali grafitning panjara tekisligiga to'g'ri keladi. 1-rasm (b) uglerod nuqtasi zarrachalari o'lchami keltirilgan. CDs ning zarrachalar o'lchami HRTEM tasviridan foydalanib gaussian metodi orqali hisoblangan va uglerod nuqtalari zarrachalarning o'rtacha o'lchami 7,33 nm ekanligi hisoblab topilgan. 1-rasm (c) uglerod nuqtasi zarrachalari o'lchami keltirilgan. CDs ning zarrachalar o'lchami HRTEM tasviridan foydalanib gaussian metodi orqali hisoblangan va uglerod nuqtalari zarrachalarning o'rtacha o'lchami 7,33 nm ekanligi hisoblab topilgan. Fotokatalizatorlarning yuza morfologiyalarini va kristall strukturalarini o'rganish maqsadida 3DOM-TiO<sub>2</sub> va CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> SEM tasvirlari olindi.




1-Rasm. Uglerod nuqtasining (a) HRTEM tasviri; (b) zarrachalar o'lchami taqsimoti; 3DOM-TiO<sub>2</sub> (c) SEM tasviri; (d) CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> SEM tasviri; (e) 3DOM-TiO<sub>2</sub> va CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> rentgen difraksiyasi; (f) CDs, 3DOM-TiO<sub>2</sub> va CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> Raman spektri.

1-rasm (c) 420 nm li PS munchloqlaridan shakllantirilgan uch o'lchamli tartiblangan titan dioksid makrostrukturasi keltirilgan. Tasvirdan ko'rinib turibdiki 420 nm atrofida bir tekis taqsimlangan uch o'lchamli makrog'ovaksimon fotokatalizator strukturasi haqiqatdan ham yuqori bir xillik bilan shakllangan. Bunday yuqori tartiblangan makrog'ovak tuzilishli fotokatalizatorlar katalitik jarayonlar uchun juda muhimdir. 1-rasm (d) CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> SEM tasviri keltirilgan. Bu tasvirdan ko'rinib turibdiki past haroratda uglerod nuqtasi kiritilgan holatda 3DOM-TiO<sub>2</sub> ning yuza morfologiyasida hech qanday

o'zgarishlar va strukturaning buzilishlari kuzatilmay asosiy uch o'lchamli tartiblangan struktura saqlanib qolgan. CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> ning SEM tasvirida uglerod nuqtalari ko'rinmaydi, chunki uglerod nuqtalarining o'lchami juda kichikligi, CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> ning tarkibidagi miqdori kamligi va CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> ning yuzasida bir tekis taqsimlanganligi uchun SEM tasvirida CDs lar ko'rinmaydi. Namunalarning kristall fazalarini o'rganish maqsadiga rentgen diffraksiya analiz o'tkazilgan. 3DOM-TiO<sub>2</sub> va CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> fotokatalizatorlarning rentgen fazaviy analiz natijalari 1-rasm (e) da keltirilgan. 3DOM-TiO<sub>2</sub> ning kristall fazalarining analizi natijalariga ko'ra titan dioksidining xarakterli diffraksiya cho'qqilarini va yaxshi kristallanganligi kuzatildi. 550°C kalsinatsiya qilinganida kuzatilgan yagona kristall faza anataz fazasi bo'lib, TiO<sub>2</sub> ning o'rtacha kristallik hajmi taxminan 10 nm ga tengligi Shredenger tenglamalari yordamida hisoblab topilgan. 3DOM-TiO<sub>2</sub> ning rentgen fazaviy analiz natijasiga ko'ra anataz TiO<sub>2</sub> ning xarakterli diffraksiya cho'qqilarini 25.17 (101), 48.15 (200), 54.57 (211), 62.67 (204), 69.24 (116) 75.4 (215) kristall fazalarga to'g'ri kelishi aniqlandi. 3DOM-TiO<sub>2</sub> ga uglerod nuqtalarining kiritilishi CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> ning kristall fazasida hech qanday o'zgarishga olib kelmagan. Chunki kiritilgan uglerod nuqtasi miqdori kamligi uchun kristall fazada o'zgarish kuzatilmagan. Uglerod nuqtalari 3DOM-TiO<sub>2</sub> kristall fazalarini o'zgartirmagani kataliz jarayonlari uchun juda muhim, chunki anataz holatdagi uch o'lchamli tartiblangan struktura fotokatalitik vodorod hosil qilishda muhim rol o'ynaydi. 1-rasm (f) da uglerod nuqtasi, 3DOM-TiO<sub>2</sub> va CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> ning Raman spektrlari taqdim etilgan. 3DOM-TiO<sub>2</sub> va CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> uchun. 397, 517 va 643 sm<sup>-1</sup> da joylashgan uchta kuchli xarakterli cho'qqilar simmetriya guruhi tahliliga ko'ra TiO<sub>2</sub> ning B<sub>1g</sub>, A<sub>1g</sub>+B<sub>1g</sub> va E<sub>g3</sub> modellariga mos keladi. Uglerod nuqtalarining mos Raman spektrida 1347 sm<sup>-1</sup> da xarakterli D bandi va 1588 sm<sup>-1</sup> da G bandi kuzatiladi. Uglerodning sp<sup>2</sup> gibridlanishiga taalluqli bo'lgan G diapazoni spektrdagi asosiy band bo'lsa, D diapazoni uglerodning sp<sup>3</sup> nuqsonli gibridlanishi mavjudligi bilan bog'liq. Ajablanarlisi shundaki, G band cho'qqisining D bandga nisbatan intensivligi taxminan 2,5 marta katta ekanligi kuzatildi. Bu ilgari qayd etilgan grafen tuzilishli uglerod nuqtalarini bildiradi. Bu tegishli grafen shaklli uglerod nuqtalari sp<sup>2</sup> gibridlangan benzol halqasi saqlagan yadro va sp<sup>3</sup> gibridlangan matritsali uglerod nuqtalarini mavjudligini ko'rsatadi. Bunday ajoyib struktura solvotermik usul yordamida muvaffaqiyatli sintezlandi. Bu uglerod nuqtalarining yuqori kristallik darajasini yanada tasdiqlaydi. Shuningdek, CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> ning Raman spektrida sp<sup>2</sup> gibridlangan benzol halqasi saqlagan G band cho'qqisining kuchli intensivligi kuzatilgan. Yuqori G diapazoni CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> ning valent elektronlarni uzatish uchun foydalidir. CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> ning Raman spektrida sp<sup>2</sup> gibridlangan benzol halqasini ifodalovchi G bandning kuzatilishi CDs va 3DOM-TiO<sub>2</sub> o'rtasida kuchli kimyoviy bog'lanish borligini isbotlaydi va bu fotokatalizda elektronlarning rekombinatsiyasini susaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Uglerod nuqtasining UV-Vis absorption spektridan ko'rinib turibdiki 2-rasm (a) 553 nm da keng yutilish absorpsiyasini namoyon qildi. Bu natija deyarli to'liq ko'rinadigan spektrni qamrab oluvchi keng yutilish cho'qqisini ko'rsatdi. Buning sababi C-O va C-O-H guruhlaridan tashkil topgan aromatik yadroning n→π\* va π→π\* o'tishidir. Bu uglerod nuqtalarining kuchli delokallashgan mukammal benzol yadrolaridan tuzilgan ekanligini ko'rsatadi. Uglerod nuqtalarining π-hoлатlari aromatik sp<sup>2</sup>-gibridlangan uglerodlarga bog'liq bo'lib, aromatik halqalar ko'payishi bilan uglerod nuqtalarining taqiqlangan zona energiyasi kamayadi. Elektronlarning n-hoлатdan π\* hoлатga o'tishlari aromatik sp<sup>2</sup>-gibridlangan uglerodlarga kislorod saqlovchi guruhlarining ulanganligidan sodir bo'lishi mumkin. Turli monoxromatik qo'zg'alish to'lqin uzunligida uglerod nuqtalarining elektronlarini qo'zgatganda ularning 590 nm to'lqin uzunligidagi emissiyasi turli intensivlikda namoyon bo'ldi 2-rasm (b). Uglerod nuqtasi bir necha xil monoxromatik nur bilan qo'zg'alishga bog'liq fotolyuminesens xususiyatlarni namoyish etdi va emissiya cho'qqisi qo'zgatuvchi nurning to'lqin uzunligi 510 nm bo'lganda maksimal intensivlikni ko'rsatdi. Bu shuni ko'rsatadiki, bizning sintez usulimiz sirt oksidlanish darajasiga ta'sir qiladi, bu esa o'z navbatida solvotermik jarayonida hosil bo'lgan kislorodli funksional guruhlar C=C ning delokallanishi orqali grafitimon shaklli uglerod nuqtalarining strukturasi olib keladi. Bunday strukturalar hisobiga fotoregeneratsiyalangan elektron va teshiklarning rekombinatsiya tezliklari pasayadi. Uglerod nuqtalari uchun Taus plot funksiyasi yordamida taqiqlangan zona energiyasi qiymati 1,91 eV ga tengligi 2-rasm (c) hisoblab topildi. Uglerod nuqtasining taqiqlangan zona energiyasi juda kichik va uglerod nuqtasini to'g'ridan-to'g'ri fotokatalizda asosiy katalizator sifatida foydalanish qiyin, chunki fotoregeneratsiyalangan elektron va teshiklarning rekombinatsiya darajasi uglerod nuqtasi uchun juda kattadir. Bu esa fotokataliz jarayonini ancha sekinlashtiradi. Shuning uchun CDs ni biror katalizatorga oz miqdorda ko-kataliz qilib kiritib ishlatiladi. 2-rasm (d) 3DOM-TiO<sub>2</sub> 410 nm da yutilish absorpsiyasini namoyon qildi. Bu natija 3DOM-TiO<sub>2</sub> ning ko'rinvchi nur sohasida fotokatalitik samaradorligi pastligini ko'rsatadi. Uglerod nuqtalari bilan bezatilgan CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> fotokatalizatorining yutilish absorpsiyasi 475 nm ni ko'rsatdi. Bu shuni bildiradiki uch o'lchamli tartiblangan titan dioksidi makrostrukturasi uglerod nuqtalari kiritilgandan keyin uning yutilish absorpsiyasi ancha ko'rinvchi sohaga siljigan va bu ko'rinvchi sohada yaxshi fotokatalitik xossani namoyon qilishini bildiradi.



2-Rasm. (a) CDs ning UV-Vis absorption spektri; (b) CDs ning PL spektri turli xil monoxromatik qo'zg'alish to'lqin uzunligida; (c) CDs ning taqiqlangan zona energiyasi; (d) 3DOM-TiO<sub>2</sub> va CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> UV-Vis absorption spektri; (e) 3DOM-TiO<sub>2</sub> va CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> taqiqlangan zona energiyasi; (f) 3DOM-TiO<sub>2</sub> va CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> PL spektri.

2-rasm (e) 3DOM-TiO<sub>2</sub> uchun taqiqlangan zona energiyasi 3,11 eV va CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> uchun esa 2,8 eV ekanligi aniqlandi. Bunda CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> fotokatalizatorining taqiqlangan zona energiyasi ancha kichrayganini kuzatishimiz mumkin.

Natijada fotokatalizator ko'rinuvchi sohada yuqori fotokatalitik xossa namayon qilishi mumkin. Ma'lum to'lqin uzunligidagi nur bilan nurlantirish orqali fotokatalizatorlarning valent zonasidan elektronlar qo'zg'aladi va o'tkazuvchi zonaga o'tish jarayoni kuzatiladi, natijada valent zonada teshiklar va o'tkazuvchi zonada elektronlar hosil bo'ladi. Elektron va teshik hosil bo'lishi bilan bir vaqtning o'zida rekombinatsiya jarayoni ham boradi. Rekombinatsiya darajasini pasaytirish fotokatalizdagi juda muhim omildir. PL emissiya spektri fotokatalizni o'rganishda keng qo'llaniladi, chunki u zaryad tashuvchilarning migratsiyasi va rekombinatsiya tezligi haqida mazmunli ma'lumot beradi. 3DOM-TiO<sub>2</sub> strukturasi zaryad tashuvchini ajratishni rag'batlantirishdan ko'ra sekin foton effekti tufayli yorug'likni yig'ishni kuchaytirish uchun mo'ljallanganligi sababli, fotokatalizatorning tarkibi fotogeneratsiyalangan elektronlar va teshiklarning rekombinatsiyasiga ta'sir qiluvchi asosiy nuqtadir. Fotolyuminessensning intensivligidan foydalanib zaryad tashuvchining ajralishi kuchaygan yoki susayganligini aniqlash mumkin. 2-rasm (f) 3DOM-TiO<sub>2</sub> va CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> fotokatalizatorining fotolyuminessens spektrlari keltirilgan. CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> ning PL intensivligi 3DOM-TiO<sub>2</sub> ga qaraganda ancha pasayganligi kuzatildi. Buning natijasida fotogeneratsiyalangan elektron va teshiklarning rekombinatsiyasi pasayganidan dalolat beradi. Bunga sabab qilib shuni ko'rsatish mumkinki; yuqori delokallashgan benzol halqalaridan tuzilgan sp<sup>2</sup> gibridlangan grafitimon tuzilishli yadro va kislorod saqlovchi funksional guruhlar bilan o'ralgan matritsali uglerod nuqtasining 3DOM-TiO<sub>2</sub> yuzasidagi ta'siri asosidadir.

**Xulosa.** Uglerod nuqtalari kiritilgan uch o'lchamli tartiblangan titan dioksid makrog'ovak CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> fotokatalizatori muvaffaqiyatli sintezlandi. CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> ning Raman spektrida sp<sup>2</sup> gibridlangan benzol halqasini ifodalovchi G bandning kuzatilishi CDs va 3DOM-TiO<sub>2</sub> o'rtasida kuchli kimyoviy bog'lanish borligini isbotlaydi. Past haroratda uglerod nuqtasi kiritilgan holatda 3DOM-TiO<sub>2</sub> ning yuza morfologiyasida va kristall fazalarida hech qanday o'zgarishlar va strukturaning buzilishlari kuzatilmay asosiy uch o'lchamli tartiblangan struktura saqlanib qolgan. Uglerod nuqtasi 553 nm da keng yutilish absorpsiyasini, 590 nm emissiyasini namoyon qilib uning taqiqlangan zona energiyasi 1.91 eV ga teng ekanligi aniqlandi. Uglerod nuqtalari kiritilgandan keyin CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> fotokatalizatorining yutilish absorpsiyasi 475 nm ga siljigani va taqiqlangan zona energiyasi 2.8 eV gacha qisqargani aniqlandi. CDs/3DOM-TiO<sub>2</sub> ning PL intensivligi 3DOM-TiO<sub>2</sub> ga qaraganda ancha pasayganligi kuzatildi. Buning natijasida fotogeneratsiyalangan elektron va teshiklarning rekombinatsiyasi pasayganidan dalolat beradi. Bunga sabab qilib shuni ko'rsatish mumkinki; yuqori delokallashgan benzol halqalaridan tuzilgan sp<sup>2</sup> gibridlangan grafitimon tuzilishli yadro va kislorod saqlovchi funksional guruhlar bilan o'ralgan matritsali uglerod nuqtasining 3DOM-TiO<sub>2</sub> yuzasidagi ta'siri asosidadir.

**Minnatdorchilik.** Bu ish Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan O'zbekiston Milliy Innovatsion tizimini modernizatsiya qilish dasturi (REP-03032022/186 Loyiha rahbari: Sh. G'. Xojiyev), hamda Korea kimyo texnologiya instituti tomonidan moliyalashtirilgan KOICA KRICT-01032024/8 loyihasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu tadqiqotlarni bajarishga amaliy yordam bergan Ilg'or texnologiyalar markazi va Wuhan University of Technology ga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Sh. Khojiev, G. Hojiyeva, O. Tursunkulov, D. Chen, H. S. H. Mohamed, A. Kholikov, K. Akbarov, J. Liu, Y. Li, Red Emissive Upconversion Carbon Quantum Dots Modifying TiO<sub>2</sub> for Enhanced Photocatalytic Performance, ACS Appl. Nano Mater. (2023).
2. Sh. Khojiev, K. Liu, M.-J. Ran, Z.-R. Li, Y.-F. Huang, Z.-Y. Jiang, W.-Y. Li, Z.-Y. Hu, L.-H. Chen, J. Liu, CdS QDs growing on ellipsoidal BiVO<sub>4</sub> for efficient photocatalytic degradation of tetracycline, Dalt. Trans. (2024).
3. W. Liu, Y. Wang, K. Qi, F. Wen, J. Wang, Broad Spectral Response Z-Scheme Three-Dimensional Ordered Macroporous Carbon Quantum Dots/TiO<sub>2</sub>/g-C<sub>3</sub>N<sub>4</sub> Composite for Boosting Photocatalysis, Langmuir 38 (2022) 4839-4847.
4. J. Liu, H. Zhao, M. Wu, B. Van der Schueren, Y. Li, O. Deparis, J. Ye, G.A. Ozin, T. Hasan, B.L. Su, Slow Photons for Photocatalysis and Photovoltaics, Adv. Mater. 29 (2017) 1-21.
5. C.T. Thanh Thuy, G. Shin, L. Jieun, H. Do Kim, G. Koyyada, J.H. Kim, Self-Doped Carbon Dots Decorated TiO<sub>2</sub> Nanorods: A Novel Synthesis Route for Enhanced Photoelectrochemical Water Splitting, Catalysts 12 (2022).
6. H. Zhao, J. Liu, C.F. Li, X. Zhang, Y. Li, Z.Y. Hu, B. Li, Z. Chen, J. Hu, B.L. Su, Meso-Microporous Nanosheet-Constructed 3DOM Perovskites for Remarkable Photocatalytic Hydrogen Production, Adv. Funct. Mater. 32 (2022) 1-8.
7. H. Zhao, Z. Hu, J. Liu, Y. Li, M. Wu, G. Van Tendeloo, Nano Energy Blue-edge slow photons promoting visible-light hydrogen production on gradient ternary 3DOM TiO<sub>2</sub>-Au-CdS photonic crystals, 47 (2020) 266-274.
8. J. Yu, J. Lei, L. Wang, J. Zhang, Y. Liu, TiO<sub>2</sub> inverse opal photonic crystals: Synthesis, modification, and applications - A review, J. Alloys Compd. 769 (2018) 740-757.
9. A. Zulfiqar, F. Temerov, J.J. Saarinen, Multilayer TiO<sub>2</sub> Inverse Opal with Gold Nanoparticles for Enhanced Photocatalytic Activity, ACS Omega 5 (2020) 11595-11604.
9. F. Wang, X. Dong, Y. Zuo, Z. Xie, R. Guan, Effectively enhancing red fluorescence strategy and bioimaging applications of carbon dots, Mater. Today Phys. 41 (2024) 101332.



UDC: 1. 17. 172. 172.2

*Uchqunjon XOLMATOV,*  
*Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi*  
*E-mail: alfargoniy.uz@gmail.com*

*Farg'ona davlat universiteti dotsenti I.Asatulloev tahriri asosida*

## MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI

Аннотация

Mazkur tadqiqot doirasida, avvalo, millat, milliy munosabatlar, millatlararo munosabatlar, millatlararo hamjihatlik, milliy va umuminsoniy manfaatlar kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati, konseptual asoslarini ko'rib tahlil etilgan. Axboriy-madaniy kurashlar sharoitida millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ijtimoiy-falsafiy tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari ilmiy asoslangan.

**Kalit so'zlar:** axborot, axboriy-madaniy tahdidlar, axboriy-diniy tahdidlar, axboriy-psixologik tahdidlar, sekulyarizm, millatlararo totuvlik, raqamli transformatsiyalashuv, terorizm, millatchilik, ijtimoiy hamkorlik.

## СОДЕРЖАНИЕ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ОБЕСПЕЧЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ ГАРМОНИИ И СОЛИДАРНОСТИ

Аннотация

В данном исследовании, прежде всего, были проанализированы сущность и концептуальные основы таких понятий, как нация, национальные отношения, межнациональные отношения, межнациональная солидарность, национальные и общечеловеческие интересы. Теоретико-методологические основы социально-философского исследования межэтнического согласия и солидарности в условиях информационной и культурной борьбы научно обоснованы.

**Ключевые слова:** информация, информационно-культурные угрозы, информационно-религиозные угрозы, информационно-психологические угрозы, секуляризм, международная гармония, цифровая трансформация, терроризм, национализм, социальное сотрудничество.

## CONTENT AND CONCEPTUAL BASIS OF PROVIDING INTERNATIONAL HARMONY AND SOLIDARITY

Annotation

In this study, first of all, the essence and conceptual foundations of such concepts as nation, national relations, inter-national relations, inter-national solidarity, national and universal interests were analyzed. The theoretical and methodological foundations of socio-philosophical research of interethnic harmony and solidarity in the context of informational and cultural struggles are scientifically based.

**Key words:** information, informational-cultural threats, informational-religious threats, informational-psychological threats, secularism, international harmony, digital transformation, terrorism, nationalism, social cooperation.

**Kirish.** Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan islohotlar istiqboli ko'p jihatdan, millatlararo munosabatlarning holatiga, bu sohada paydo bo'ladigan turli tahdidlarga qarshi kurashni kuchaytirish, millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashga ko'p jihatdan bog'liq. Yurtimizda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, yaqin qo'shnichilik muhitini yaratishga qaratilgan puxta o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni yuritish belgilanganligi bu boradagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga zamin yaratmoqda. Zero, "millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash, - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev, - turli din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va do'stona munosabatlarni rivojlantirish, qaysi din va e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning teng huquqliligini ta'minlash bundan buyon ham eng muhim vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi" [1]. Shu nuqtai nazardan, axborotlashgan jamiyatda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish hamda ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

**Materiallar va metodlar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev boshchiligidagi millatlararo munosabatlar sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar yana-da mustahkamlanib, keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda.

2017 yil 24-yanvarda Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev millatlararo munosabatlar sohasidagi vazifalar haqida gapirib o'tadi. Shuning ichida «Fanlar akademiyasi institutlari bilan hamkorlikda mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yana-da rivojlantirish va uyg'unlashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni tashkil etish Respublika baynalmilal madaniyat markazining yana bir dolzarb vazifasi deb hisoblayman» [2] deb ko'rsatadi.

2017 yil 19-mayda «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonining qabul qilinishi jamiyatda tinchlik, barqarorlik va

millatlararo totuvlikni mustahkamlash va yana da rivojlanirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Farmon bo'yicha Respublika baynalmilal madaniyat markazi va do'stlik jamiyatlarining Markazi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil qilindi[3]. Farmon mamlakatda millatlararo totuvlik, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha yagona tizimni rivojlanirish, milliy-madaniy markazlar uchun yana da qo'lay va keng imkoniyatlar yaratish, markazlarning ish faoliyatini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

2019 yil 15-noyabrda «Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonining qabul qilinishi millatlararo munosabatlar sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Farmonda millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi, shuningdek 2019-2021 yillarda millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlandi [4]. Bu Farmonning qabul qilinishi ushbu sohadagi amalga oshirilayotgan ishlarni tizimlashtirishga, joylarda millatlararo munosabatlarning holatini monitoring qilish mexanizmlarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

2019 yilgi Murojaatnomada Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tomonidan 30 iyul – Xalqaro do'stlik kuni munosabati bilan “Do'stlik” haftaligini tashkil etish hamda ushbu haftalik doirasida “Do'stlik” xalqaro forum-festivalini o'tkazish haqida kiritgan taklifi ilgari surildi. Bu yil esa, ushbu sanani O'zbekistonda “Xalqlar do'stligi kuni” deb belgilash taklifi, ilgari surilgan tashabbuslarning mantiqiy davomi bo'ldi[5]. Shuningdek, 2021 yil 5 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n ikkinchi yalpi majlisida “Xalqlar do'stligi kunini belgilash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida: “millat - uzoq davom etgan ijtimoiy, siyosiy va etno-madaniy jarayonda, aniq hududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli”dir [6], degan ta'rif berilgan.

G'arbda esa, “millat” atamasi (lot. - natio) Rim imperiyasi hududida yashagan turli qabilalarga nisbatan ishlatilgan. Feodal jamiyatlarning rivojlanishi davrida “millat” atamasi keng miqyosda qo'llana boshladi. Ammo, bu tushuncha kishilarning ijtimoiy birligini emas, balki tashkiliy ma'noni anglatgan. Aslida, “millat” murakkab xarakterga ega bo'lgan etnik birlik bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun unga ta'rif berishda bugungi kungacha mavjud bo'lgan ilmiy-falsafiy adabiyotlarda yakdillik yo'q. Lekin ushbu ta'riflarni umumlashtiruvchi tomonlari alohida qayd etiladi.

**Muhokama va natija.** Bugungi kunda “millat” insoniyat, jamiyat va hatto mamlakatlararo munosabatlarning muhim omili sifatida o'zini ta'sir kuchini ko'rsatmoqda. Bunga hozirda jahonda shiddat bilan kechayotgan o'zgarishlar negizida milliy o'zlikni anglash jarayonlarini kuchayishi va aynan aks ta'sir jarayonlarini kuzatish mumkin.

Axborotlashuv sharoitida millatlararo munosabatlarning mustahkamlanishi – milliy siyosat, milliy ong va psixologiya, milliy til va madaniyat, milliy o'zlikni anglash va milliy tuyg'ularni o'zida ifodalaydigan milliy munosabatlar hamda millatlararo munosabatlarning ham rivojlanishi demakdir. Milliy va millatlararo munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismidir. Shuning uchun ham, milliy va millatlararo munosabatlarda nafaqat ijtimoiy hayotning iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy va boshqa sohalarida ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar, balki mavjud qiyinchiliklari, ziddiyatlari ham o'z aksini topishi tabiiydir.

Ijtimoiy munosabatlar rivojlanishida ikkita o'zaro kesishadigan tamoyil ajratiladi: inson hayoti barcha tomonlarining iqtisodiy integratsiyasi va baynalminallashuvi tamoyili va millatning o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zligini namoyon etish, o'zini o'zi boshqarishga intilishi tamoyili. Ushbu tamoyillar ko'pincha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalaridagi asoslarga ega bo'lgan obyektiv va subyektiv omillar bilan bog'liq to'qnashuv va ziddiyatlar holida bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, axborotlashuv sharoitida, raqamli dunyoning tezkor imkoniyatlari davrida yangilanish va o'zgarishlar jarayonining inson ongida aks etishi va taraqqiyot talablariga mos ravishda rivojlanishi, insonning muayyan etnik guruhga mansubligini idrok etishi, uning istiqboli va kelajagi uchun qayg'urishi bilan bog'liq fikrlari, g'oyalari va ularning amaliy faoliyatida namoyon bo'lishi milliy ongdir.

Millatlararo munosabatlar – bu butun jamiyat hayotini qamrab oladigan millatlar o'rtasidagi munosabatlar tizimidir. Millatlararo munosabatlar millatlarning jamiyat hayotini turli sohalarida o'zaro ta'sir munosabatlari darajasida hamda turli etnik guruhlariga mansub insonlarning shaxslararo darajasidagi munosabatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Millatlararo munosabatlar taraqqiyotida ikki tendensiya, birinchisi, integratsiya - bu jamiyat hayoti sohalarida orqali elat, millat, xalqlarni uzluksiz birlashish jarayoni, ikkinchidan, differentsiatsiya – milliy mustaqillikka erishish, takomillashish jarayoni, shuningdek millatlar va elatlarning qarama-qarshiligi ko'rinishidagi munosabatlari namoyon bo'ladi.

Jamiyatlarning axborotlashuvi va raqamlashtirish imkoniyatlari shu davrning barcha ziddiyatlarini, qiyinchiliklarini, ichki iroda va ichki madaniyat bilan yenga olishga qodir bo'lgan fuqarolarni shakllantirish, ularni g'oyaviy-mafkuraviy jihatidan birligini ta'minlashga erishishni taqozo etadi. Shu ma'noda, millatlararo munosabatlar sohasida siyosatni insonparvar tamoyillari sifatida: zo'rlik va tayziq o'tkazishdan voz kechish, barcha tomonlarning ishtirokida konsensus asosida kelishuvga erishish, bahsli nizolarni tinch yo'llar bilan hal qilish, inson huquqlarini va erkinligini tan olinishi, insonparvarlik, demokratiya, yaxshi qo'shnichilik va diniy bag'rikenglik g'oyalarini amalga oshirish kabilarni ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston kabi ko'p millatli tarkibga ega davlatlarda millatlararo munosabatlarda barqarorlikni ta'minlashni o'ziga xos jihatlari sifatida, birinchidan, ichki siyosiy ahvolning barqarorligi, milliy xavfsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi ko'p millatli davlatda yashayotgan boshqa millatlar vakillarining siyosiy xayrixohligiga bevosita bog'liq namoyon bo'lsa, ikkinchidan, millatlar yoki etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda an'anaviy uyg'unlik vujudga keltirilsagina, ko'p elatlilik omili davlatlarning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali, rag'batlantiruvchi ta'sir etishini ko'rsatadi. Aks holatda, ya'ni ko'p millatli davlatlardagi millatlararo munosabatlarda uyg'unlikning yo'qligi butun-butun xalqlar va mamlakatlarni

tanazzulga olib kelishi mumkin. Shu ma'noda, "...hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, millatchilik, diniy murosasizlik bosh ko'tarmoqda. Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda,- deb ta'kidlaydi Sh.Mirziyoyev, - ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni yana-da mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda" [7].

Bizning fikrimizcha, axborotlashuv sharoitida, axborotiy munosabatlarning tezlashib borishi davrida millatlararo munosabatlarning takomillashuvi bevosita milliy munosabatlarning takomil darajasiga bog'liqdir.

Bugungi kunda muayyan mamlakatning taraqqiyotini faqat moddiy ne'mat va xizmatlar hajmining o'sishi bilan belgilash mumkin emasligi tobora ayon bo'lib bormoqda. Bunda ichki yalpi mahsulot hajmi va aholining o'rtacha daromadi kabi an'anaviy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar murakkab, sertarmok rivojlanishning muqobil tavsifini bera olmaydi. S.A.Barkov fikricha: "umummilliy masalalarni hal etishning yagona va eng maqbul vositasi - tobora ko'proq tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish ekanligi xaqidagi tasavvur ko'p jihatdan biryozlamadir. Bunday yondashuv taraqqiyotning noiqitiosodiy parametrlari ahamiyatini noto'g'ri baholashga olib keladi" [8].

O.Yo'ldashev fikricha, globallashayotgan dunyoda milliy davlatlar yo'qolishi u yoqda tursin, aksincha, ular taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda. Darxaqiqat, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar har qanday milliy davlatchilik asoslarini yo'qotishga qaratilgan urinishlar turli ziddiyatlarni, ixtiloflarni yuzaga keltirayotganidan, xususan, aksilglobal harakatning kuchayishiga olib kelayotganidan dalolat bermokda [9].

Jamiyatimizning yangilash va rivojlantirishning "umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik", "xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish", "insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi" va "vatanparvarlik"dan iborat to'rt asosiy negizi belgilangan edi. Bu negizlar xalqning jipsligini, jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil, milliy tuyg'u va bag'rikenglikning asosidir. Shu ma'noda, millatlararo munosabatlarni takomillashuvini ta'minlovchi qadriyatlar tizimida milliy g'oya o'ta ahamiyatli hisoblanadi. Zero, turli etnik guruhlarini uyushtirish va safarbar etish borasidagi "ijtimoiy shartnoma" vazifasini milliy g'oya o'tadi.

"Bizning fikrimizcha, ... garchi globallashuv etnik madaniyatlarni o'zaro ta'siri va o'zaro boyitishiga sharoit yaratsa-da, shunga qaramay, u madaniyatlar rang-barangligini yo'qotmaydi va yo'qota olmaydi, ya'ni ularni "muayyan ijtimoiy-madaniy paradigma" asosida unifikatsiyalashtira olmaydi, - deb ta'kidlaydi F.X.Kessidi, - bu o'z-o'zidan ayon: etnik tuyg'ular va etnik o'ziga xoslikni saqlab qolishga intilish har bir xalqning ongida chuqur o'rnatilgan. Ustiga-ustak, etnoslar mentaliteti va demak, ularning madaniyati ko'p jihatdan miyaning funksional assimetriyasi bilan belgilanadi"[10]. Shunday ekan, etnomilliy xususiyatlar xalqning milliy xarakterini aks ettiradi. Shuning uchun milliy xarakter xaqidagi stereotip tasavvurlar odamlarga muayyan ta'sir o'tkazadi va ularda aks etgan xarakter xususiyatlarining shakllanishi uchun asos beradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, millatlararo munosabatlar – bu butun jamiyat hayotini qamrab oladigan millatlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi ekanligi, millatlararo munosabatlar millatlarning jamiyat hayotini turli sohalarida o'zaro ta'sir munosabatlari darajasida hamda turli etnik guruhlariga mansub insonlarning shaxslararo darajasidagi munosabatlar ko'rinishida namoyon bo'lishi aniqlandi. Millatlararo munosabatlar taraqqiyotida ikki tendensiya, birinchisi, integratsiya - bu jamiyat hayoti sohaları orqali elat, millat, xalqlarni uzluksiz birlashish jarayoni, ikkinchidan, differentsiatsiya – milliy mustaqillikka erishish, takomillashish jarayoni, shuningdek millatlar va elatlarning qarama-qarshiligi ko'rinishdagi munosabatlar namoyon bo'ladi. Millatlararo munosabatlar taraqqiyoti jarayonida dialektik o'zaro bog'liq bo'lgan hamda bir biriga o'tib turadigan ikkita tendensiya, birinchidan, iqtisodiy integratsiya hamda inson hayoti turli sohalarining baynalmillashuvi, ikkinchidan, milliy o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini anglash va namoyon etish jarayonlari sifatida jamiyatlardagi munosabatlarda yuzaga keladi. Axborotiy kurashlar sharoitida bir millatning manfaatları boshqa millat va elatlarning manfaatlaridan, talab va ehtiyojlaridan ajratilmagan holda o'rganilishi hamda milliy birdamlikka yoshlarni baynalmillalilik ruhida tarbiyalash orqali erishish mumkinligi aniqlandi. Axborotlashuv sharoitida millatlararo munosabatlarni mustahkamlashda milliy manfaatlariga nisbatan davlat va jamiyatda bag'rikenglik nuqtai nazari shakllangan bo'lsagina, taraqqiyotning muhim omili bo'lgan ijtimoiy hamkorlik yuzaga kelishi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish-barqaror taraqqiyot kafolatidir."Xalq so'zi", 2 noyabr 2016.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent. 2017. 300-b. (Mirziyoyev Sh. We will resolutely continue our path of national development and raise it to a new level. Tashkent. 2017. 300-p.
3. «Xalq so'zi» gazetasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni. 2017 yil 23 may, №101 (6795) (The newspaper "Xalq so'zi". Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to further improve interethnic relations and friendly relations with foreign countries." May 23, 2017, №101 (6795)).
4. «Xalq so'zi» gazetasi. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasidavlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019-yil 19-noyabr №239 (7469) (The newspaper "Xalq so'zi". Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the Concept of state policy of the Republic of Uzbekistan in the field of interethnic relations". November 19, 2019 №239 (7469)).
5. <https://interkomitet.uz/bosh-sahifa-kir/zbekistonda-hal-lar-d-stligi-kuni-belgilandi/?lang=oz>.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 5- Jild.- T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B.659.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmillal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi. 24.01.2017. Internet manba: <http://www.prezident.uz>.



8. Barkov S.A. *Institutsionalnoye seli gosudarstvo v uslovix globalizatsii. Globalizatsiya i sotsialniye izmeneniya. Materiali nauchnoy konferensii 2006. Sbornik nauchnix dokladov.* (Manba: [http:// Lib. socio. msu.ru/1. Library](http://Lib.socio.msu.ru/1.Library)).
9. Yo‘ldashev O. *Texnolog sivilizatsiyaning ahloqiy muammolari va uni bartaraf etish.* –T.: “O‘zMU xabarlari”, № 1/1, 2015.
10. Kessidi F.X. *Globalizatsiya i kulturnaya identichnost// Voprosifilosofii*, № 1, 2003. - S. 79.
11. Mirziyoyev Sh. *Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash muqaddas dinimiz sofligini asrash davr talabi mavzusidagi anjuman ma‘ruzasi.* Xalq so‘zi gazetasi, 2017yil 16 iyun.
12. Akiyeva X.X., Saidova N. *Globalashuv davrida yot g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning zararlarini ochib berish hamda unga qarshi kurashish yo‘llari.* Zamonaviy ta‘lim. 2015.
13. Alimasov V. *Innovatsiya falsafasi: ilmiy texnik tafakkur va kreativ faollik zaxiralari* “Ishonch” gazetasi, 2019 yil 28 oktyabr.
14. Atamanov G.A. *Informatsionnaya bezopasnost v sovremennom rossiyskom obshchestve: Sotsialno-filosofskiy aspekt: avtoreferat dis. ... kandidata filosofskix nauk.* – Volgograd, 2006.
15. Begalov B.A. *Axborot- kommunikatsiyalar bozorining shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish: dis. Avtoref. ... i.f.d.* – T.: TDIU, 2001.



UO'T: 546.732;615.275.3;546.05;546.06;547.022;548.736

*Oybek XUDOYBERGANOV,*  
*Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi*  
*E-mail: oybek\_hudoyberganov@mail.ru*

*Urganch davlat universiteti kimyo kafedrasi dotsenti, k.f.n X.Azizjanov taqrizi asosida*

## SYNTHESIS AND STRUCTURAL STUDY OF THE COMPLEX COMPOUND OF COBALT(II) ION WITH INDOMETHACIN

### Annotation

The aim of this article is to synthesize a new mixed ligand complex of cobalt(II) acetate and indomethacin with 2,2'-dipyridylamine. The composition, structure and properties of this synthesized coordination compound were studied using physico-chemical methods: scanning electron microscope-energy dispersive analysis (SEM-EDT), infrared spectroscopy, X-ray phase analysis methods. Also, a single crystal of the coordination compound with a new composition synthesized in the article was grown, and its parameters were determined by X-ray structural analysis in the XtaLAB Synergy (Rigaki, Japan) diffractometer installed in the collective use center of the UzRFA Institute of Bioorganic Chemistry. Based on the obtained results, it was shown that the central atom of the complex compound is interconnected through cobalt, oxygen atoms of the carboxyl group of indomethacin and nitrogen atoms of 2,2'-dipyridylamine, forming a complex compound with a coordination number equal to 6. It has been shown that the solubility of this drug, which has an anti-inflammatory and pain-relieving effect, is formed by the complex compound with the cobalt element, and the process of its action increases several times.

**Key words:** Cobalt(II) acetate, indomethacin, 2,2'-dipyridylamine, ligand, thermal analysis, SEM-EDT, X-ray phase analysis, X-ray structural analysis, complex compound, coordination number, coordination capacity, Mercury program, complex compound stability.

## СИНТЕЗ И ИЗУЧЕНИЕ СТРУКТУРЫ СЛОЖНОГО СОЕДИНЕНИЯ ИОНА КОБАЛЬТА(II) С ИНДОМЕТАЦИНОМ

### Аннотация

Целью данной статьи является синтез нового смешанно-лигандного комплекса ацетата кобальта(II) и индометацина с 2,2'-дипиридиламином. Состав, строение и свойства синтезированного координационного соединения изучены с использованием физико-химических методов: сканирующего электронного микроскопа-энергодисперсионного анализа (СЭМ-ЭДТ), инфракрасной спектроскопии, методов рентгенофазового анализа. Также был выращен монокристалл координационного соединения нового состава, синтезированного в статье, и определены его параметры методом рентгеноструктурного анализа на дифрактометре XtaLAB Synergy (Rigaki, Япония), установленном в ЦКП УзРФА. Институт биоорганической химии. На основании полученных результатов было показано, что центральный атом комплексного соединения связан между собой через кобальт, атомы кислорода карбоксильной группы индометацина и атомы азота 2,2'-дипиридиламина, образуя комплексное соединение с координационным числом, равным до 6. Показано, что растворимость этого препарата, обладающего противовоспалительным и обезболивающим действием, формируется комплексным соединением с элементом кобальта, а процесс его действия увеличивается в несколько раз.

**Ключевые слова:** Ацетат кобальта(II), индометацин, 2,2'-дипиридиламин, лиганд, термический анализ, SEM-EDT, рентгенофазовый анализ, рентгеноструктурный анализ, комплексное соединение, координационное число, координационная способность, программа Меркурий, комплексное соединение стабильность.

## KOBALT(II) IONINING INDOMETATSIN BILAN KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI VA STRUKTURAVIY TADQIQOTI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada kobalt(II) atsetati va indometatsinning, 2,2'-dipiridilamin bilan yangi aralash ligandli kompleks birikmasini sintez qilish maqsad qilib olingan. Bu sintez qilingan koordinatsion birikmaning tarkibi, tuzilishi va xossalari fizik-kimyoviy metodlar: skanerlovchi elektron mikroskop-energiya dispersion tahlil (SEM-EDT), infraqizil spektroskopiya, rentgenfazaviy tahlil usullari yordamida o'rganilgan. Shuningdek, maqola sintezlangan yangi tarkibli koordinatsion birikmaning monokristali o'stirilib, unga tegishli parametrlar O'zRFA Bioorganik kimyo institutining jamoaviy foydalanish markaziga o'rnatilgan XtaLAB Synergy(Rigaki, Yaponiya) difraktometrda rentgenstrukturaviy tahlilini o'tkazish orqali aniqlangan. Olingan natijalar asosida kompleks birikma tarkibidagi markaziy atom kobalt, indometatsin tarkibidagi karboksil guruhining kislorod atomlari va 2,2'-dipiridilaminning tarkibidagi azot atomlari orqali o'zaro bog'lanib, koordinatsion soni 6 ga teng bo'lgan kompleks birikma hosil qilishi ko'rsatib berildi. Yallig'lanishga qarshi va og'riq qoldiruvchi ta'sirga ega bo'lgan bu dori vositasining kobalt elementi bilan hosil qilgan kompleks birikmasining eruvchanligi va ta'sir jarayoni bir necha bor ortishi ko'rsatib berildi.


**Kalit so'zlar:** Kobalt(II) atsetati, indometatsin, 2,2'-dipiridilamin, ligand, termik analiz, SEM-EDT, rentgenfazaviy tahlil, rentgen strukturaviy analiz, kompleks birikma, koordinatsion son, koordinatsion sig'im, Mercuriy dasturi, kompleks birikma barqarorligi.

**Kirish.** Dunyoda tibbiyot amaliyotida qo'llanilayotgan dori vositalarini yangilash, ularning turli xususiyatlarga ega biometall tuzlari bilan kompleks birikmalarini olish zamonaviy kimyo va farmakologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun mavjud dori vositalarining yangi kompleks birikmalarini sintez qilish, ularning strukturasi zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida o'rganish, molekulyar va kristall tuzilishini rentgen tuzilish tahlili orqali aniqlash, shuningdek, olingan komplekslarning biologik faolliklarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida "iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zgartirish masalalari alohida belgilab qo'yilgan [1]. Ushbu yo'nalishda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan, kimyo sanoatini rivojlantirishda, yangi kompleks birikmalarni sintez qilish, ularning biologik faolliklarini tadqiq etishga keng e'tibor qaratilmoqda. Ushbu masalalardan kelib chiqqan holda laboratoriya sharoitida mavjud dori vositalarini yangilash, import o'rnini bosuvchi yangi samarali dori vositalarini yaratish maqsadida indometatsinning bioelementlardan hisoblangan kobalt bilan koordinatsion birikmasi sintezi amalga oshirildi. Bu birikmaning tuzilishini aniqlash va biologik faolliklarini o'rganish maqsadida turli xil fizik-kimyoviy tadqiqot metodlari yordamida analiz qilindi.

Tadqiqotning maqsadi kobalt(II) atsetatining, indometatsin va 2,2'-dipiridilamin bilan kompleksining sintezi, tarkibi, tuzilishi va xossalari aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun kobalt(II) atsetatining, indometatsin bilan kompleks birikmasining sintezi amalga oshirilgan. Sintez qilingan birikmalarining tarkibi va tuzilishi SEM-EDT, infraqizil spektroskopiya (IQ), termik analiz va rentgen strukturaviy tahlil metodlari yordamida o'rganilgan.


**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Adabiyotlarda indometatsinning kompleks birikmalari, tuzilishi va amaliy qo'llanilishi bo'yicha ishlarning natijalarini umumlashtirgan ko'plab sharxlar mavjud. Shuningdek, adabiyot manbalari tahlilining ko'rsatishicha, 3d metallar va indometatsinning kompleks birikmalarini tahlil qilish bo'yicha keng miqyosda tajriba natijalari bo'lishiga qaramasdan, bu ligand asosida suvli muhitda olingan kompleks birikmalar sintezi va tuzilishi yetarli darajada ifodalab berilmagan. Shu sababli, kobalt(II) atsetati hamda indometatsinning kompleks birikmasini sintez qilish, fizik-kimyoviy va biologik faolligini aniqlash alohida ilmiy qiziqish tug'diradi. J.G.Stowell, S.R.Byrn, K.S.Huang, Q. Zhou, T.W. Hambley, B.J.Kennedy, P.A. Lay, P.Turner, B. Warwick, J.R.Biffin, H.L.Regtop, S.Ramadan, G.J. Foran, A.M. Rich kabi olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida indometatsinning kompleks birikmalarini o'rganib, farmasevtika uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni berishgan. Masalan, I.I.Krasnyuk, T.M.Kosheleva, A.V. Belyatskaya kabi olimlarning "Tibbiyot va farmasevtikada indometatsinning qo'llash jihatlari" mavzusidagi maqolada indometatsining ishlatilishida eng noqulay tomoni uning suvda eruvchanligi yomonligi takidlanib, uning eruvchanligini oshirish uchun turli polimerlar bilan biriktirilib, qattiq dispersiyalar holida foydalanishni taklif qilganlar [2]. Spyros Perontsis, Christos T.Ch., Antonios G.H., George Psomas tomonidan "Steroid bo'lmagan yallig'lanishga qarshi dorilar bilan bir qator dioksouranium (VI) komplekslarining sintezi, tavsifi va (in vitro va silico) biologik faolligi" mavzusida yozilgan maqolada dioksouranium (VI) ionining bir qator steroid bo'lmagan yallig'lanishga qarshi dorilar (NSAIDlar), ya'ni mefenamik kislota, indometatsin, diklofenak, diflunisal va tolfenamik kislotalar bilan reaksiyasi natijasida  $UO_2(NSAID-O, O')_2(N, N'-donor)$  formulaga ega bo'lgan 10 ta yangi kompleks birikma olinib, uning biologik ta'siri in vitro usulida o'rganilgan [3]. Qingdi Zhou, Trevor W. Hambley, Brendan J. Kennedy, Peter A. Lay, Peter Turner, Barry Warwick, John R. Biffin kabi farmasevt olimlar tomonidan "Yallig'lanishga qarshi ikki yadroli va mononuklear rux indometatsin komplekslarining sintezi va xarakteristikasi" mavzusida yozilgan maqolada ruxning  $[Zn_2(Indo)_4(DMA)_2] \cdot 2DMA$ ,  $[Zn_2(Indo)_4(Py)_2] \cdot 2H_2O$ ,  $[Zn_2(Indo)_4(NMP)_2]$ , *cis*- $[Zn(Indo)_2(EtOH)_2]$  va *cis*- $[Zn(Indo)_2(MeOH)_2]$  kabi formulaga ega mono va biyadrolli kompleks birikmalari sintezi va ularga tegishli kristall struktura parametrlari berilgan [4]. Spyros Perontsis, Elena Geromichalou, Franc Perdih, Antonios G. Hatzidimitriou, George D. Geromichalos, Iztok Turel, George Psomaslar tomonidan yozilgan "Indometatsin bilan ikki yoki uch valentli kobalt komplekslarini sintez qilish, strukturani aniqlash, in vitro va silico biologik baholash" mavzusidagi maqolasida kobalt(II) xloridning indometatsin bilan  $[Co(indo-O)_2(H_2O)_2(\mu-Cl)]_n \cdot n(MeOH \cdot H_2O)$  tarkibli kompleks birikmasi olingan va biologik faolligi ham tekshirilgan. Komplekslarning albuminlar bilan bog'lanishi ham tekshirildi va tegishli bog'lanish konstantalari va bog'lovchi substrat aniqlandi. Molekulyar modellashtirish hisob-kitoblari odatda DNKning o'rganilayotgan komplekslar bilan bog'lanishi va bu birikmalarining qon zardobidagi albumin oqsillari orqali tashish qobiliyatining buzilishini tushunish uchun molekulyar asos bo'lishi mumkin [5]. Shu kabi maqolalarni tahlil qilish orqali, indometatsinning biogen metallardan hisoblangan kobalt metali bilan aralash ligandli kompleks birikmasi sintezini amalga oshirish mumkinligi bo'yicha ma'lumotlar to'plandi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sintez eritma muhitida amalga oshirildi. Dastlab, kobalt(II) atsetat kristallogidrat tuzidan  $(Co(CH_3COO)_2 \cdot 4H_2O)$  0,00565g (0.028 mmol) olinib, suvli eritmasi tayyorlandi. Indometatsin ligandidan 0.02g (0.056 mmol) olinib, uning spirtli eritmasi tayyorlandi [6]. Keyingi bosqichda indometatsinning faolligini, ya'ni reaksiyaga kirishish qobiliyatini oshirish maqsadida, uning natriyli tuzi olindi. Ushbu olingan indometatsin natriyli tuzga kobaltning kristallogidrat tuzi va 2,2'-dipiridilaminning spirtli eritmasi qo'shiladi. Reaksiyon aralashma dastlab xona haroratida, so'ngra esa 45-50°C haroratda, magnitli aralashtirgichda 20-25 minut aralashtirildi. Jarayon oxirida aralashma termostatda o'zgarma 30°C haroratda bug'latildi. Sekin bug'latish usulida 12 kundan so'ng, to'q pushti rangli monokristallar olindi va uning tuzilishi RTT usuli yordamida aniqlandi [7].



### 1-reaksiya. Indometatsinning natriyli tuzini olish reaksiyasi

Keyin ushbu olingan  $[\text{Co}(\text{Indo})_2(\text{bipy})]\cdot 2\text{H}_2\text{O}$  kompleks birikmaning fizik va kimyoviy xossalarini tekshirish uchun, undan o'stirilgan monokristall dimetilformamidida yaxshilab yuvib, tozalab olindi. RTT analizi yordamida olingan *Cif* fayldan foydalangan holda, mercuriy dasturi bilan kristall parametrlari aniqlab, jadval ma'lumotlari yordamida ifodalab berildi. Sintez qilingan kompleks birikmadagi elementlarning miqdorlari (uglerod, kislorod va metall atomlari) SEM-EDT metodi yordamida analiz qilindi [8]. Komplekslarning mikrostrukturalari va EDT diagrammalari 1-rasmda keltirildi. SEM natijasini olishda, elektronlar namunadagi atomlar bilan o'zaro ta'sir qiladi va namunaning sirt topografiyasi va tarkibi haqida ma'lumotni o'z ichiga olgan turli signallarni yaratadi.



1-rasm.  $[\text{Co}(\text{Indo})_2(\text{bipy})]\cdot 2\text{H}_2\text{O}$  ning mikrostrukturalari, xaritalash va element tahlil natijalari

Element	Line	Mass%	Atom%
C	K	48.84±0.03	55.05±0.03
N	K	14.93±0.06	14.43±0.06
O	K	35.96±0.07	30.43±0.06
Cl	K	0.18±0.00	0.07±0.00
Co	K	0.09±0.00	0.02±0.00
Total		100.00	100.00

Elektron nur rastrli skanerlash rejimida skanerlanadi va tasvirni yaratish uchun nurning holati aniqlangan signalning intensivligi bilan birlashtiriladi.

**Tahlil va natijalar.** Sintezlangan  $[\text{Co}(\text{Indo})_2(\text{bipy})]\cdot 2\text{H}_2\text{O}$  kompleks birikma monokristallari o'stirilib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo institutining jamoaviy foydalanish markaziga o'rnatilgan XtaLAB Synergy(Rigaki, Yaponiya) difraktometrida rentgenstrukturaviy tahlili o'tkazildi [9]. Rentgen strukturaviy tahlil natijalari Xcalibur Roxford Diffraction avtomatik difraktometrida 293 K haroratda (Cu Karadiation,  $k = 1,54184 \text{ \AA}$ , xscan rejimi, grafit monoxromator) olingan.


### 1-Jadval

#### Sintez qilingan kompleks birikma kristallografik ma'lumotlari

Parametr	Qiymatlar	Parametr	Qiymatlar
$[\text{Co}(\text{Indo})_2(\text{bipy})]\cdot 2\text{H}_2\text{O}$			
Formula	$\text{C}_{48}\text{H}_{39}\text{Cl}_2\text{CoN}_5\text{O}_8$	Kristall o'lchami, mm	$0,24 \times 0,18 \times 0,14$
Molekulyar massa	943	Harorat T, °K	296
Singoniya	Triklinik	Skanerlash oraliq'i $\theta$ , °	2,18; -27,45
Fazoviy guruh	C2/c	Interval h,k,l	-36:32; -17:15; -13:11
a, Å	41.80	Jami reflekslar	5108
b, Å	11.88	Mustaqil reflekslar soni	976
c, Å	9.012	$R_{\text{int}}$	0.052

$\alpha$ °	90	F2 $\geq$ 2 $\sigma$ (F2) kriteriy	872
$\beta$ °	92.92	Aniqlagan parametrlar	156
$\gamma$ °	90	Str Strukturani aniqlash sifati	1.14
V, Å <sup>3</sup>	4473.24	R <sub>1</sub> , wR <sub>2</sub> (I $\geq$ 2 $\sigma$ (I))	0.813, 0.956, 0.1272
Z	4	$\Delta\rho_{\text{min/max}}$ , eÅ <sup>-3</sup>	0.814, 0.956
D <sub>x</sub> , g/cm <sup>3</sup>	1.449	CCDC-raqami va ref-kod	2005887
$\mu$ (CuK $\alpha$ ), mm <sup>-1</sup>	0.568		

Kristalning elementar yacheykasi parametrlari quyidagicha: fazoviy guruhi C2/c,  $a=41.8\text{\AA}$ ,  $b=11.88\text{\AA}$ ,  $c=9.01\text{\AA}$ ,  $\alpha=90^\circ$ ,  $\beta=92.92^\circ$ ,  $\gamma=90^\circ$ ,  $V=4473\text{\AA}^3$ ,  $Z=4$ . [Co(Indo)<sub>2</sub>(bipy)]·2H<sub>2</sub>O kompleksi monoyadroli bo'lib Co<sup>2+</sup> ionining qahrabo indometatsin va 2,2'-dipiridilamin bilan hosil qilingan, neytral tabiatga ega. Kompleks tarkibidagi Co(1)–O(1), Co(1)–O(2), Co(1)–O(3), Co(1)–O(4) va Co(1)–C(6), O(1)–C(10) bog'lari orasidagi masofasi qiymati mos ravishda 1.7789Å, 1.7818Å, 1.7812Å, 1.7801Å va 2.6398Å, 1.3525Å ga teng [10].



## 2-rasm. Sintezlangan [Co(Indo)<sub>2</sub>(bipy)]·2H<sub>2</sub>O tarkibli kompleks birikma monokristalining tasviri

**Xulosa va takliflar.** Sintez qilingan kompleks birikmaning tarkibi, tuzilishi va unga tegishli parametrlar mercuriy dasturi yordamida aniqlanib, [Co(Indo)<sub>2</sub>(bipy)]·2H<sub>2</sub>O formulaga ega kompleks birikma hosil bo'lganligi aniqlandi. Yaratilgan sintez metodi indometatsinning boshqa koordinatsion birikmalarni keyinchalik sintez qilishda qo'llanilishi mumkin. Olingan kompleks birikmada markaziy atom kobaltning koordinatsion soni 6 ga teng ekanligini va gibridlanishi sp<sup>3</sup>d<sup>2</sup> holatda bo'lishini rentgen strukturaviy tahlil natijalariga tayanib aytish mumkin.

## ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
- И.И. Краснюк., Т.М. Кошелева., А.В. Беляцкая., И.И. Краснюк. Аспекты применения индометацина в медицине и фармации. Актуальные вопросы фармакологии и фармации. ВЕСТНИК РАМН /2018/ 73 (2)., 130-134 С. DOI: 10.15690/vramn879
- Spyros Perontsis., Christos T.Ch., Antonios G.H., George Psomas. Synthesis, characterization and (*in vitro* and *in silico*) biological activity of a series of dioxouranium(VI) complexes with non-steroidal anti-inflammatory drugs. Journal of Inorganic Biochemistry Volume 223, October 2021, 111534. <https://doi.org/10.1016/j.jinorgbio.2021.111534>
- Qingdi Zhou., Trevor W. Hambley., Brendan J. Kennedy., Peter A. Lay., Peter Turner., Barry Warwick., John R. Biffin. Syntheses and Characterization of Anti-inflammatory Dinuclear and Mononuclear Zinc Indomethacin Complexes. *norg. Chem.* 2000, 39, 17, 3742–3748. <https://doi.org/10.1021/ic991477i>
- Spyros Perontsis, Elena Geromichalou, Franc Perdih, Antonios G. Hatzidimitriou, George D. Geromichalos, Iztok Turel, George Psomas. Synthesis, structural determination, *in vitro* and *in silico* biological evaluation of divalent or trivalent cobalt complexes with indomethacin. *Journal of Inorganic Biochemistry*, 2020, 212, 111213, DOI: 10.1016/j.jinorgbio.2020.111213
- Khasanov Sh.B., Ibodullaeva T.A., Abdullaeva Z.Sh., Khudoyberganov, O.I. Synthesis and properties of the coordination compound of calcium stearate with thiocarbamide. *Azerbaijan Chemical Journal*, 2023, 2023(2), P-111–115.
- Уманский Я.С., Скаков Ю.А., Иванов А.Н., Расторгуев Л.Н. Кристаллография, рентгенография и электронная микроскопия. – М., Металлургия, 1982, 632 с.
- Корусенко П. М., Несов С. Н., Ивлев К. Е. Морфология, структура и электрохимические свойства композита MnOx @ CNTs: исследование методами SEM, EDX, XPS и CVA // Омский научный вестник. 2022. № 2 (182). С. 86–92. DOI: 10.25206/1813-8225-2022-182-86-92.
- Савицкая Л.К. Рентгеноструктурный анализ: учебное пособие// Томск: СКК-Пресс, 2006, стр.274.
- Macrae C.F, Bruno I.J, Chisholm J.A. et. al. Mercury CSD 2.0 – new features for the visualization and investigation of crystal structures // J. Appl. Cryst. -2008. –V.41. -P.466-470.



UDK: 547.945

**Aziza XUDOYBERDIYEVA,**  
Samarqand davlat universiteti erkin tadqiqotchisi  
E-mail: a.khudoyberdiyeva@mail.ru  
**Ziroat URUNBAYEVA,**  
Samarqand davlat tibbiyot instituti assistenti  
**Abdusalom SAIDOV,**  
Samarqand davlat universiteti dotsenti, PhD  
**Valentina VINOGRADOVA,**  
O'simlik moddalari kimyosi instituti, katta ilmiy xodim

Samarqand veterinariya meditsina instituti dotsenti, k.f.n Sh. Saitqulov taqrizi asosida

### STUDY OF UNUSUAL CARBOCYCLICATION REACTIONS INVOLVING HOMOVERATRYLAMINE, ACETOSICE ESTER, SALICYL ALDEHYDE, *p*-NITROBENZALDEHYDE

Annotation

Homoveratrilamine, acetoacetic ether, acetylacetone and 5-bromo salicyl aldehyde, 6-bromo piperanal aldehyde were selected for carrying out three-component reactions of the [1+1+2] type. As a result of syntheses based on the Mannix reaction, N-(3,4-dimethoxyphenylethyl)-1-(5-bromo-2-hydroxyphenyl)methanimine, N-(3,4-dimethoxyphenylethyl)-1-(6-bromo-piperanal-phenyl) methanimine and 4-((3,4-dimethoxyphenylethyl)amino)penta-3-en-2-one a mixture of products was formed. The structure of the obtained substances was established based on the results of <sup>1</sup>H NMR spectra.

**Key words:** Yenaminone, homoveratrilamine, acetylacetone, acetoacetic ether, 5-bromo salicyl aldehyde, 6-bromo piperanal aldehyde.zvc.

### ИЗУЧЕНИЕ НЕОБЫЧНЫХ РЕАКЦИЙ КАРБОЦИКЛИКАЦИИ С УЧАСТИЕМ ГОМОВЕРАТРИЛАМИНА, АЦЕТОУКСУНОГО ЭФИРА И САЛИЦИЛОВОГО АЛЬДЕГИДА, *p*-НИТРОБЕНЗАЛЬДЕГИДА

Аннотация

Для проведения трехкомпонентных реакций типа [1+1+2] были выбраны гомовератриламин, ацетоуксусный эфир, ацетилацетон и 5-бромсалицилальдегид, 6-бромпиперанальдегид. В результате синтезов по реакции Манниха получены смесь продуктов N-(3,4-диметоксифенилэтил)-1-(5-бром-2-гидроксифенил)метанимина, N-(3,4-диметоксифенилэтил)-1-(6-бром-пипераналь-фенил)метанимина и 4-((3,4-диметоксифенилэтил)амино)пента-3-ен-2-она. Строение полученных веществ установлено по результатам спектров ЯМР <sup>1</sup>H.

**Ключевые слова:** Енаминон, гомовератриламин, ацетилацетон, ацетоуксусный эфир, 5-бромсалицил альдегид, 6-бромпипераналь альдегид.

### KARBONIL BIRIKMALARNING GOMOVERATRILAMIN BILAN UCH KOMPONENTLI REAKSIYALARI ASOSIDA YENAMINONLAR SINTEZI

Annotatsiya


[1+1+2] tipidagi uch komponentli reaksiyalarni olib borish uchun gomoveratrilamin, dikarbonil birikmalar sifatida asetosirka efiri, asetilaseton hamda 5-brom salisil aldegi, 6-brom piperanal aldegi tanlab olindi. Mannix reaksiyasi asosida olib borilgan sintezlar natijasida N-(3,4-dimetoksifeniletel)-1-(5-brom-2-gidroksifenil)metanimin, N-(3,4-dimetoksifeniletel)-1-(6-brom-piperanal-fenil)metanimin va 4-((3,4-dimetoksifeniletel)amino)penta-3-en-2-on mahsulotlar aralashmasi hosil bo'ldi. Olingan moddalarning tuzilishi <sup>1</sup>H YaMR spektrlari natijalari asosida o'rnatildi.

**Kalit so'zlar:** Yenaminon, gomoveratrilamin, asetilaseton, asetosirka efiri, 5-brom salisil aldegi, 6-brom piperanal aldegi.

**Kirish.** Molekulasida NC=CC=O tutash tizimni saqlovchi organik birikmalar tabiiy mahsulotlarning sintezida elementar birliklar sifatida muhim rol o'ynaydi [1]. Ushbu molekulyar tizimning potentsial reaktivligi tarkibida juda ko'p nukleofil va elektrofil markazlar mavjudligi bilan belgilanadi. Yenaminon tizimida azot ham, uglerod ham ko'plab reaksiyalar uchun nukleofil markazlar bo'lib, azot va uglerod tutash tizim hosil qilganida butun tizimda delokallashgan elektronlar tufayli karbonil guruhlarining ham reaktivligi kuchayishi kuzatiladi. Ushbu reaksiya markazlar hisobiga ular  $\alpha$ ,  $\beta$ -aminokislotalar [2],  $\gamma$ -aminokislotalar [3] geterosiklik birikmalar [4], alkaloidlar [5], xinolinlar [6], azo birikmalar [7] va boshqa muhim birikmalarning sintezida faol ishtirok etadilar. Antitumor [8], antiepileptik [9], antibakterial [10], antikonvulsantlar [11], yallig'lanishga qarshi [12] kabi dori vositalarining sintezida yenaminonlardan keng foydalaniladi. Shuning uchun ham yenaminonlar sintezi bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir. Ushbu sinf vakillarining keng farmakologik aktivligidan kelib chiqib, ularning yangi bromli hosilalarining sintezlari olib borilmoqda [13].

**Olingan natijalarning muhokamasi.** Shunday ishlarning davomi sifatida ushbu tadqiqot ishida Mannix reaksiyasi asosida yangi yenaminon hosilalarining sintezini amalga oshirish uchun dastlabki modda sifatida gomoveratrilamin (**1**), asetosirka efiri va asetilaseton (**2**) hamda aromatik aldegidlar (**3 a-b**) tanlab olindi. Dastlab, 1-usulda [13] yumshoq sharoitda bitta reaksiyon idishda asetosirka efiri ishtirokida 3 ta komponentning xona haroratida 2 sutka davomida reaksiyasi olib borildi. Reaksiya boshlanganidan 6 daqiqa o'tmasdan kristallanish ro'y berdi. Reaksiyon aralashmadan ushbu kristallar etanol yordamida filtrlab olingach, qolgan reaksiyon aralashmadagi moddalar ( $R_f$  0.71, 0.65, 0.58) ajratish va tozalash uchun tanlab olindi. Hozirda ushbu jarayon ustida ishlanmoqda.

Asetilaseton bilan olib borilgan reaksiyalar natijasida esa ikki xil moddalar aralashmasi hosil bo'ldi. Bunda 5-brom salisil aldegid bilan reaksiyaning boshlang'ich davrida kristallanish ro'y berdi. Shunday bo'lsada, reaksiya 2 sutkaga qadar davom ettirildi. Natijada, 47% unum bilan imin (**4a**) olishga erishildi. Qolgan reaksiyon aralashma erituvchini bug'lanishi uchun 3 sutkaga ochiq qoldirildi. Ushbu vaqt mobaynida yana kristallanish kuzatildi. Olingan yangi kristallarning  $R_f$  qiymati dastlabki (**4a**) kristallar  $R_f$  qiymatidan farq qildi. Ularning suyuqlanish haroratlari ham mos ravishda 88-90°C va 81-82°C larni ko'rsatdi. 1-Jadval.



1-Jadval. Yangi **4 a, 5 a, b** mahsulotlarning hosil bo'lish unumlari va suyuqlanish haroratlari.

M oddalar	$\lambda$ aqt	Unumlar, %	Suyuqlanish harorati, °C
<b>4a</b>	2 sutka	47	88-90
<b>4b</b>	2 sutka	51	144-146
<b>5a</b>	2 sutka	31	81-82
<b>5b</b>	2 sutka	43	81-82

Olingan moddalarning tuzilishi YaMR -spektroskopiya usullari yordamida o'rnatildi. Unga ko'ra **4 a,b** mahsulotning tahlillari natijalariga ko'ra, gomoveratrilamin aromatik halqasiga 2,5,6 tegishli signallar **4a** 6.73, 6.75, 6.77 m.u. va **4b** 6.68, 6.72, 6.77 m.u. sohalarda mos ravishda, singlet, dublet-dublet, dublet ko'rinishda rezonanslashgan,  $\alpha$  va  $\beta$  uglerod atomlaridagi protonga tegishli signallar triplet va kvartet ko'rinishda **4a** 2.93, 3.83 m.u. va **4b** 2.94, 3.82 m.u. sohalarda kuzatilgan. **4b** aldegidning aromatik halqa signallari 6.00 m.d 3,4 holatda  $-OCH_2O-$  guruhi birikkan uglerod atomi protonlari signallari singlet ko'rinishda namoyon bo'lgan. **4a** 5-brom salisil aldegidiga tegishli  $-OH$  guruhi signallari 13.2 m.u. sohada keng singlet ko'rinishida namoyon bo'ldi. Spektir natijalaridan moddalarning tuzilishi to'g'ri isbotlanganini ko'rishimiz mumkin.

#### Tajribaviy qismi:

Birikmalarning unumi va tozaligi Shimadzu LC-20 HPLC (Yaponiya) va C18 (Shimadzu LC-20, Yaponiya) pribori yordamida aniqlandi. IQ spektrlari ATR tizimidan foydalangan holda FT-IR/NIT Spectrum 3 spektrometri yordamida qayd etilgan. YaMR spektrlari JNM-ECZ400R va JNM-ECZ600R spektrometrlarida (Jeol, Yaponiya) 400 va 600 MGts ish chastotalarida,  $CDCl_3$  eritmalarida  $^1H$  uchun qayd etilgan. TMS (0 ppm)  $^1H$  NMR spektrlarida ichki standart sifatida ishlatilgan.  $R_f$  qiymatlari LS 5/40 silikagel plastinkada aniqlandi, harakatchan faza sifatida benzol:metanol (6:1) dan foydlandi.

Reaksiyaning borishi va hosil bo'lgan birikmalarning tozaligi Sigma-Aldrich, silufol L/W 10 sm  $\times$  20 sm floresan indikator 254 nm (Germaniya) bilan turli erituvchi tizimlarda TLC tomonidan nazorat qilindi. Sintez qilingan barcha moddalarning suyuqlanish temperaturasi mikro stolik Stuart SMP20 apparatida o'lchandi (1-Jadval).

1-usul. 0.01 mol gomoveratrilamin, 0.01 mol aromatik aldegid, 0.02 mol asetosirka efiri aralashmasi (10 ml etanol) 7 sutka davomida magnit aralashtirgich yordamida aralashtirildi. Reaksiyaning borishi yupqa qatlamli xromatogramma usuli bilan

nazorat qilib borildi. Reaksiya tugagach erituvchisi uchishi uchun 3 sutkaga qoldirildi. Olingan cho'kma filtrlandi, qoldiq etanolda qayta kristallandi.

N-(3,4-dimetoksifenilettil)-1-(5-brom-2-gidroksifenil)metanimin,  $C_{17}H_{18}N_2O_4$  sintezi (4a).

Yuqoridagi 1-usul bilan 0.58 g (0.003 mol) 5-brom salisil aldegid, 0.61 g (0.6 ml,  $\rho=1.0284$  g/ml, 0.006 mol) asetosirka efiri, 0.51 g (0.14 ml,  $\rho=1.074$  g/ml, 0.003 mol) gomoveratrilamin va 10 ml etanol ishtirokida 2 sutka davomida olib borilgan reaksiyadan 0.43 g, (47%) och sariq rangli mahsulot olindi.  $T_{suy}=88-90$  °C (xloroform),  $R_f=0.85$  (benzol:metanol – 6:1).

$^1H$  YaMR spektri: (600 MHz,  $CDCl_3$ ,  $\delta$ , m.u., J/Hz): 2.97 (2H, t, H- $\alpha$ ), 3.80 (3H, s,  $OCH_3$ ), 3.83 (3H, s,  $OCH_3$ ), 3.88 (2H, t, J=8.2, H- $\beta$ ), 6.73 (1H, s, H-2), 6.75 (1H, d, J=1.8, H-6), 6.77 (1H, d, J=8.0, H-5), 7.56 (1H, t, J=7.9, H-5'), 8.0 (1H, d, J=7.6, H-6'), 8.17 (1H, s, CH), 8.24 (1H, dd, J=2.1, 8.1, H-5'), 8.53 (1H, t, J=1.8, H-2), (1H, keng s., OH).

N-(3,4-dimetoksifenilettil)-1-(6-brom-piperanal-fenil)metanimin,  $C_{18}H_{18}BrNO_4$  sintezi (4b).

Yuqoridagi 1-usul bilan 0.361 g (0.002 mol) 6-brom piperanal aldegid, 0.437 g (0.425 ml,  $\rho=1.0284$  g/ml, 0.004 mol) asetosirka efiri, 0.304 g (0.3 ml,  $\rho=1.074$  g/ml, 0.002 mol) gomoveratrilamin va 10 ml etanol ishtirokida 2 sutka davomida olib borilgan reaksiyadan 0.36 g, (55%) mahsulot (4b)  $T_{suy}=144-146$  °C (xloroform),  $R_f=0.81$  (benzol:metanol – 6:1)

N-(3,4-dimetoksifenilettil)-1-(6-brom-piperanal-fenil)metanimin,  $C_{18}H_{18}BrNO_4$   $^1H$  YaMR spektri: (600 MHz,  $CDCl_3$ ,  $\delta$ , m.u., J/Hz): 2.93 (2H, t, J=7.3, H- $\beta$ ), 3.83 (2H, to'silgan, H- $\alpha$ ), 3.83 (3H, s,  $OCH_3$ ), 3.84 (3H, s,  $OCH_3$ ), 6.00 (2H, s,  $OCH_2O$ ), 6.74 (1H, d, J=2.0, H-2), 6.75 (1H, d, J=2.0, 8.0, H-4), 6.79 (1H, d, J=8.0, H-5'), 6.98 (1H, s, H-2'), 7.49 (1H, s, H-6).

2-usul. 0.01 mol gomoveratrilamin, 0.01 mol aromatik aldegid, 0.02 mol asetilaseton aralashmasi (10 ml etanol) 7 sutka davomida magnit aralashirgich yordamida aralashtirildi. Reaksiyaning borishi yupqa qatlamli xromatogramma usuli bilan nazorat qilib borildi. Reaksiya tugagach erituvchisi uchishi uchun 3 sutkaga qoldirildi. Olingan cho'kma filtrlandi, qoldiq etanolda qayta kristallandi.

N-(3,4-dimetoksifenilettil)-1-(5-brom-2-gidroksifenil)metanimin,  $C_{17}H_{18}BrNO_3$  (4a) va 4-((3,4-dimetoksifenilettil)amino)penta-3-en-2-on,  $C_{15}H_{21}NO_3$  (5a) sintezi.

Yuqoridagi 2-usul bilan 0.44 g (0.003 mol) 5-brom salisil aldegid, 0.59 g (0.6 ml,  $\rho=0.975$  g/ml, 0.006 mol) asetilaseton, 0.5 g (0.49 ml,  $\rho=1.074$  g/ml, 0.003 mol) gomoveratrilamin va 10 ml etanol ishtirokida 2 sutka davomida olib borilgan reaksiyadan 0.49 g, (49%) och limon rangli mahsulot (4a)  $T_{suy}=90-91$  °C (xloroform),  $R_f=0.72$  va (5a) 0.23 g, (31%)  $T_{suy}=81-82$  °C (xloroform),  $R_f=0.55$  (benzol:metanol – 6:1) mahsulotlar aralashmasi olindi.

4-((3,4-dimetoksifenilettil)amino)penta-3-en-2-on,  $C_{15}H_{21}NO_3$  (5a)  $^1H$  YaMR spektri: (600 MHz,  $CDCl_3$ ,  $\delta$ , m.u., J/Hz): 1.71 (3H, s,  $H_3-12$ ), 1.91 (3H, s,  $H_3-11$ ), 2.81 (2H, t, J=7.0, H-7), 3.42 (2H, kv, J=7.0, H-8), 3.9 (3H, s,  $OCH_3$ ), 3.8 (3H, s,  $OCH_3$ ), 4.9 (1H, s, H-10), 6.7 (1H, d, J=2.0, H-2), 6.71 (1H, dd, J=2.0, 10.1, H-6), 6.79 (1H, d, J=8.1, H-5).

N-(3,4-dimetoksifenilettil)-1-(6-brom-piperanal-fenil)metanimin,  $C_{18}H_{18}BrNO_4$  (4b) va 4-((3,4-dimetoksifenilettil)amino)penta-3-en-2-on,  $C_{15}H_{21}NO_3$  sintezi.

Yuqoridagi 2-usul bilan 0.40 g (0.002 mol) 6-brom piperanal aldegid, 0.37 g (0.38 ml,  $\rho=0.975$  g/ml, 0.004 mol) asetilaseton, 0.34 g (0.33 ml,  $\rho=1.074$  g/ml, 0.002 mol) gomoveratrilamin va 10 ml etanol ishtirokida 2 sutka davomida olib borilgan reaksiyadan 0.37 g, (51%) mahsulot (4b)  $T_{suy}=144-146$  °C (xloroform),  $R_f=0.8$  va 0.18 g, (37%)  $T_{suy}=81-82$  °C (xloroform),  $R_f=0.55$  (benzol:metanol – 6:1) (5b) mahsulotlar aralashmasi olindi.

4-((3,4-dimetoksifenilettil)amino)penta-3-en-2-on,  $C_{15}H_{21}NO_3$  (5b)  $^1H$  YaMR spektri: (600 MHz,  $CDCl_3$ ,  $\delta$ , m.u., J/Hz): 1.71 (3H, s,  $H_3-12$ ), 1.91 (3H, s,  $H_3-11$ ), 2.81 (2H, t, J=7.0, H-7), 3.42 (2H, kv, J=7.0, H-8), 3.9 (3H, s,  $OCH_3$ ), 3.8 (3H, s,  $OCH_3$ ), 4.9 (1H, s, H-10), 6.7 (1H, d, J=2.0, H-2), 6.71 (1H, dd, J=2.0, 10.1, H-6), 6.79 (1H, d, J=8.1, H-5).

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot ishida gomoveratrilamin, dikarbonil birikmalar sifatida asetosirka efiri, asetilaseton hamda 5-brom salisil aldegid, 6-brom piperanal aldegid ishtirokidagi kondensatsiya reaksiyalari yordamida N-(3,4-dimetoksifenilettil)-1-(5-brom-2-gidroksifenil)metanimin, N-(3,4-dimetoksifenilettil)-1-(6-brom-piperanal-fenil)metanimin va 4-((3,4-dimetoksifenilettil)amino)penta-3-en-2-onlarni ajratib olishga erishildi.

#### ADABIYOTLAR

1. Kamel M. G. et al. Novel bipyrazole and pyrazolopyridazinone derivatives via regioselective cycloaddition reaction of nitrilimines to enaminone: Synthesis and structural elucidation //Journal of Molecular Structure. – 2023. – T. 1287. – C. 135722.
2. Potin D., Dumas F., D'Angelo J. New chiral auxiliaries: their use in the asymmetric hydrogenation of. beta-acetamidocrotonates //Journal of the American Chemical Society. – 2021. – T. 112. – №. 9. – C. 3483-3486.
3. Bartoli G. et al. Chemo- and diastereoselective reduction of. beta-enamino esters: A convenient synthesis of both cis- and trans-. gamma.-amino alcohols and. beta.-amino esters //The Journal of Organic Chemistry. – 1994. – T. 59. – №. 18. – C. 5328-5335.
4. Tarasenko K. V. et al. Synthesis of new polyhalogenoalkyl-containing phosphonates with an enaminone core and their use in the preparation of fluorinated heterocycles //Tetrahedron Letters. – 2010. – T. 51. – №. 35. – C. 4623-4626.
5. Li G. et al. Total synthesis of anibamine, a novel natural product as a chemokine receptor CCR5 antagonist //Organic letters. – 2007. – T. 9. – №. 10. – C. 2043-2046.
6. Neto B. A. D. et al. Studies on the Eschenmoser coupling reaction and insights on its mechanism. Application in the synthesis of Norallosedamine and other alkaloids //Tetrahedron. – 2009. – T. 65. – №. 12. – C. 2484-2496.
7. Mahmud T. et al. Synthesis, characterization and study of antibacterial activity of enaminone complexes of zinc and iron //Arabian Journal of chemistry. – 2010. – T. 3. – №. 4. – C. 219-224.



8. Farag A. M. et al. Regioselective synthesis and antitumor screening of some novel N-phenylpyrazole derivatives //Bioorganic & medicinal chemistry. – 2008. – Т. 16. – №. 2. – С. 881-889.
9. Edafiogho I. O., Ananthalakshmi K. V. V., Kombian S. B. Anticonvulsant evaluation and mechanism of action of benzylamino enaminones //Bioorganic & medicinal chemistry. – 2006. – Т. 14. – №. 15. – С. 5266-5272.
10. Edafiogho I. O. et al. Synthesis, antibacterial and anticonvulsant evaluations of some cyclic enaminones //European journal of medicinal chemistry. – 2009. – Т. 44. – №. 3. – С. 967-975.
11. Edafiogho I. O. et al. Synthesis, antibacterial and anticonvulsant evaluations of some cyclic enaminones //European journal of medicinal chemistry. – 2009. – Т. 44. – №. 3. – С. 967-975.
12. El-Hashim A. Z. et al. Anti-tussive and bronchodilator mechanisms of action for the enaminone E121 //Life sciences. – 2011. – Т. 89. – №. 11-12. – С. 378-387.
13. Худойбердиева А.А. Урунбаева З.Э. Саидов А.Ш. Виноградова В.И. Синтез енаминонов на основе ацетилацетона, гомовератрилами́на и ароматических альднгидов // Univesum: химия и биология: электрон. научн. журн. – Т.120. – №6. – С.40-44



**Gulnoz HAMRAYEVA,**

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti katta o'qituvchisi*

*E-mail: guli28@mail.ru*

**Lobar RADJABOVA,**

*Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institute dotsenti, PhD*

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy Tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “matematika va tabiiy fanlar kafedrası” dotsenti k.f.n., Fayziyev Amrillo Abdullayevich taqrizi asosida*

### ENERGETIK ICHIMLIKLARNING XAVFLI JIHLTLARI

Аннотация

Ushbu maqolada energetik ichimliklarni iste'mol qilishning xavfli tomonlari ko'rib chiqiladi. Kofeinning yuqori miqdori, ortiqcha shakar va ularning salomatlik ta'siriga alohida e'tibor beriladi. Yurak tizimi uchun xavflar, mumkin bo'lgan metabolik va elektrolitlar muvozanati ham muhokama qilinadi. Energetik ichimliklarning ruhiy salomatlik va uyquga ta'siri jihatlari ham tahlil qilinmoqda. Maqolada ongli iste'mol bo'yicha ko'rsatmalar berilgan va iste'molchilarning sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash uchun ta'lim va jamoatchilikni potentsial xavflardan xabardor qilish muhimligiga urg'u berilgan. Energetik ichimliklar xavfini o'rganishning maqsadi bu ichimliklar inson salomatligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavf va ta'sirlarni aniqlash va tahlil qilishdir. Tadqiqot kofeinning yuqori miqdori, ortiqcha shakar, yurak-qon tomir tizimiga ta'siri, mumkin bo'lgan metabolik va elektrolitlar muvozanati, ruhiy salomatlik va uyquga ta'siri kabi tashvishlarni o'rganishga qaratilgan. Asosiy maqsad - energetik ichimliklarni ongli ravishda iste'mol qilishni rag'batlantirish va iste'molchilar salomatligi va farovonligini saqlash uchun aholining yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar haqida xabardorligini oshirish uchun dalillarga asoslangan ma'lumotlarni taqdim etishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** Energetik ichimliklar, xavflar, sog'liq, kofein, shakar, yon ta'sirlar, klinik tadqiqotlar, ruhiy salomatlik, epidemiologiya, xavfsiz iste'mol.

### DANGEROUS ASPECTS OF ENERGY DRINKS

Annotation

This article examines the dangers of consuming energy drinks. Special attention is given to high caffeine content, excess sugar and their health effects. Cardiovascular risks and possible metabolic and electrolyte imbalances are also discussed. Aspects of the effects of energy drinks on mental health and sleep are also being analyzed. The article provides guidelines for conscious consumption and emphasizes the importance of education and public awareness of potential risks to ensure consumer health safety. The purpose of energy drink risk studies is to identify and analyze the risks and effects these drinks may have on human health. The study aimed to examine concerns such as high levels of caffeine, excess sugar, cardiovascular effects, possible metabolic and electrolyte imbalances, mental health and sleep effects. The main goal is to provide evidence-based information to encourage the conscious consumption of energy drinks and to increase public awareness of the potential risks to the health and well-being of consumers.

**Key words:** Energy drinks, risks, health, caffeine, sugar, side effects, clinical research, mental health, epidemiology, safe consumption.

### ОПАСНЫЕ АСПЕКТЫ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ НАПИТКОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются опасности употребления энергетических напитков. Особое внимание уделяется высокому содержанию кофеина, избытку сахара и их влиянию на здоровье. Также обсуждаются сердечно-сосудистые риски и возможные метаболические и электролитные дисбалансы. Также анализируются аспекты влияния энергетических напитков на психическое здоровье и сон. В статье приводятся рекомендации по осознанному потреблению и подчеркивается важность просвещения и осведомленности общественности о потенциальных рисках для обеспечения безопасности здоровья потребителей. Целью исследований рисков энергетических напитков является выявление и анализ рисков и последствий, которые эти напитки могут оказать на здоровье человека. Исследование было направлено на изучение таких проблем, как высокий уровень кофеина, избыток сахара, сердечно-сосудистые последствия, возможные метаболические и электролитные дисбалансы, психическое здоровье и влияние на сон. Основная цель - предоставить научно обоснованную информацию для поощрения сознательного потребления энергетических напитков и повышения осведомленности общественности о потенциальных рисках для здоровья и благополучия потребителей.

**Ключевые слова:** Энергетические напитки, риски, здоровье, кофеин, сахар, побочные эффекты, клинические исследования, психическое здоровье, эпидемиология, безопасное потребление.

**Kirish.** Bugungi kunda faol turmush tarzi va energiyani oshirishga doimiy intilish davrida energetik ichimliklar ko'plab odamlarning kundalik ratsionining ajralmas qismiga aylandi. Bir zumda uyg'onish va faollikni oshirish va'dasi jozibador, ammo bu dinamik yorliqlar ortida diqqat bilan ko'rib chiqishga arziydigan sirlar yotadi. Ushbu maqolada biz energiya ichimliklar iste'moli bilan birga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni, ularning tarkibi va organizmga ta'sirini ochib beramiz. Bugun yoshlar o'rtasida urf bo'lgan energetik ichimliklar ilk bor 1960 yilda Yaponiyada dori vositasi sifatida yaratilgan. Keyinchalik Yevropa va AQShni «zabt etgach», biznesmenlar bu mahsulotni ommalashtirish uchun tarkibiga bir qancha kimyoviy moddalarni qo'shishgan. 2014 yilga kelib, JSST o'smirlar o'rtasida energetik ichimliklar ko'p iste'mol qilinayotgani yuzasidan xavotirli bayonot bilan chiqdi. 2017 yilda esa AQShda 16 yoshli o'smirlarning o'limiga ko'p miqdorda iste'mol qilingan energetik ichimlik sabab bo'lgani aytili. Energetik ichimliklar turli xil mahsulotlar yog'indisidan tashkil topadi. Ular quyidagilar: Energetik ichimliklar dunyosining asosiy o'yinchilaridan biri kofeindir. Ushbu rag'batlantiruvchi qo'shimcha, barcha uyg'onish ranglarida, yurak tizimi uchun haqiqiy muammo bo'lishi mumkin. Ushbu ichimliklardagi kofeinning yuqori dozalari qon bosimini oshirishi, yurak ritmini buzishi va hatto jiddiy sog'liq muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Bir shisha energetik ichimlikdagi ikkinchi sir - bu ortiqcha shakar miqdori. Kofeinning achchiq ta'mini yashirish uchun ishlab chiqaruvchilar ko'p miqdorda shakar qo'shadilar. Bu, o'z navbatida, ortiqcha vazn, diabet va boshqa metabolik kasalliklarga olib kelishi mumkin. Energetik ichimliklar energiya portlashidir va yaxshi uyqu uchun dinamik bo'lishi mumkin. Kofeinning yuqori darajasi uyqusizlikka olib kelishi va uyqu davrini buzishi mumkin, bu esa o'z navbatida surunkali charchoq va ruhiy salomatlik muammolariga olib kelishi mumkin. Yurak muammolari energetik ichimliklarning qorong'u tomonining bir qismidir. Yuqori qon bosimi, tez yurak urishi va yurakning haddan tashqari yuklanishi - bularning barchasi ularni muntazam ravishda ishlatish natijasida, ayniqsa jismoniy faoliyat bilan birga bo'lishi mumkin. Energiya oltin bo'lgan dunyoda energetik ichimliklar har doim eng yuqori cho'qqida bo'lish istagimizni manipulyatsiya qiladi. Biroq, bu kuch bilan ko'pincha e'tiborga olinmaydigan xavflar keladi. Zamonaviy jamiyatimizda mavjud bo'lgan energetik ichimliklar tezda energiya va hushyorlikni oshirish va'dasi bilan e'tiborni tortadi. Biroq, bu baquvvat ichimliklar ortida ehtiyotkorlik bilan ko'rib chiqishni talab qiladigan xavfli jihatlar bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada biz energetik ichimliklarning xavfli tomonlarini tahlil qilish, ongli ravishda iste'mol qilishga chaqirishning maqsad va vazifalarini tahlil qilamiz. Maqsadlar quyidagicha: sog'liq uchun xavflarni tushuntirish, iste'molchilarning xabardorligini shakllantirish, ilmiy asoslilikni ta'minlash, jamoat salomatligini mustahkamlash, ichimlik tarkibini tahlil qilishdan iboratdir. Vazifalar: tibbiy tadqiqotlarni o'rganish, sog'likka ta'sirini ochish, tavsiyalarni shakllantirish, axborot kampaniyalarini o'tkazish, mutaxassislar bilan hamkorlik qilishga yordam beradi. Hozirgi paytda yoshlar o'rtasida energetik ichimliklar iste'moliga o'rganib qolayotganlarni ko'rishimiz mumkin. Uning alkogolli va alkogolsiz xili mavjud. Alkogolsiz energetik ichimlik balog'atga yetmagan yoshlar o'rtasida juda ommalashdi. O'yin-kulguga ruju qo'ygan yoshlar uning xuddi «tetiklashtirganday» xususiyatiga aldanib, bemalol iste'mol qilishda davom etishyapti. O'z ixtiyorlari bilan ulardan voz kecha olmaydigan darajaga kelganlarida esa kech bo'lishini, uning vaqtinchalik «sehrli» ta'sirining salbiy oqibatini hayollariga ham keltirishmayapti. Energetik ichimliklar zamonaviy turmush tarzining ajralmas qismiga aylanib, bedorlik va energiyani oshirish va'dalari bilan e'tiborni tortadi. Biroq, yaltiroq yorliqlar va tezkor reklama ortida sog'liq uchun mumkin bo'lgan xavflar yotadi. Ushbu maqolada biz natijalarni ko'rib chiqamiz va energetik ichimliklar ichish bilan bog'liq xavflarni muhokama qilamiz. Tadqiqot natijalariga asosan yurak-qon tomir tizimiga ta'siri kuchli ta'siri aniqlangan. Ko'pgina tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, energetik ichimliklar ichish qon bosimi va yurak urish tezligining vaqtincha oshishiga olib kelishi mumkin. Bu omillar yurak-qon tomir tizimiga, ayniqsa, yurak-qon tomir kasalliklariga moyil bo'lgan shaxslarda stressni keltirib chiqarishi mumkin. Tadqiqot natijalari energiya ichimliklarining asab tizimiga ta'sirini ham ko'rsatadi. Kofeinning yuqori darajasi uyqusizlik, asabiylashish va xavotirga olib kelishi mumkin, ayniqsa stimulyatorlarga sezgir bo'lgan odamlarda. Tadqiqotlar energiya ichimliklarini iste'mol qilishni metabolik kasalliklar bilan bog'ladi. Ichimlikdagi ortiqcha shakar semizlik va diabet rivojlanishiga yordam beradi. Psixologik jihatlar ham ta'sir qiladi. Energetik ichimliklar asabiylashish, tashvish va ba'zi hollarda hatto tajovuzkor xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Energetik ichimliklarning tarkibini tartibga solish zarurati mavjud. Natijalarni muhokama qilish energetik ichimliklar tarkibini tartibga solish zarurligini ko'rsatadi. Kofein va shakarni kamaytirish sog'liq uchun xavflarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Iste'molchilarning xabardorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Samarali axborot kampaniyalari va ta'lim dasturlari odamlarga energetik ichimliklarni iste'mol qilish bo'yicha ko'proq ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Sog'liqni saqlash va ta'lim muassasalari energetik ichimliklar xavfi haqida ma'lumot berishda faol rol o'ynashi kerak. Bunga ogohlantiruvchi ma'ruzalar o'qish va ma'lumot risolalarini tarqatish kiradi.

**Tadqiqot qismi.** Zamonaviy jamiyatda energetik ichimliklar ko'plab odamlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ular energiyani tez oshirishni va hushyorlikni oshirishni va'da qiladilar. Biroq, bu energiya beruvchi yorliqlar ortida diqqat bilan ko'rib chiqishga arziydigan xavflar yotadi. Ushbu maqolada biz energetik ichimliklar bilan bog'liq xavflarni aniqlashga qaratilgan mavjud adabiyotlar va tadqiqot usullarini ko'rib chiqamiz. Kofeinning tanaga ta'siri: Adabiyotda aniqlangan birinchi asosiy jihat kofeinning tanaga ta'siridir. Ko'pgina tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, energetik ichimliklar tarkibidagi kofeinning yuqori dozalari qon bosimining oshishiga, uyqusizlikka va yurak ritmining buzilishiga olib kelishi mumkin. Ortiqcha shakar ta'siri: Adabiyotlarni o'rganish energiya ichimliklaridagi ortiqcha shakar va sog'liq uchun xavflar o'rtasidagi bog'liqlikni ham ochib beradi. Haddan tashqari shakarli ichimliklarni iste'mol qilish semizlik, diabet va boshqa metabolik kasalliklar bilan bog'liq.

**Energetik ichimliklarning zararini kamaytirish bo'yicha eng samarali metodlar quyidagilar:**

1. Eng samarali metodlardan biri ilmiy faktlar va tadqiqotlardan foydalanishdir. Kofein, shakar va energetik ichimliklar tarkibidagi boshqa ingredientlarning tanaga ta'siri haqidagi fanni targ'ib qilish odamlarga o'ziga xos xavflarni tushunishga yordam beradi.

2. Maktablar, universitetlar va jamoat tashkilotlari energetik ichimliklarning sog'liqqa ta'siri haqida ta'lim dasturlarini ishlab chiqishi mumkin. Ma'ruzalar, seminarlar va eslatmalar yoshlar va kattalar o'rtasida axborotni tarqatishga yordam beradi. Dasturlarga xavfsiz iste'mol qilish bo'yicha amaliy maslahatlarni kiritish muhimdir.

3. Ijtimoiy tarmoqlar axborot tarqatish uchun kuchli vositadir. Tadqiqot ma'lumotlari bilan qo'llab-quvvatlanadigan informatsion va qiziqarli postlar, animatsiyalar yoki videolarni yaratish e'tiborni jalb qilish va xavflar haqida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

4. Mashhurlar va ta'sir o'tkazuvchilar bilan hamkorlik energiya ichimliklarining xavfliligi haqidagi xabarni kuchaytirishi mumkin. Ularning ta'siri kengroq auditoriyani qamrab olishi mumkin va ularning qo'llab-quvvatlashi ma'lumotlarning ahamiyatini kuchaytirishi mumkin.

5. Energetik ichimliklar ishlab chiqaruvchilarning reklama harakatlariga putur etkazishga qaratilgan aksilreklama kampaniyalarini boshlash salbiy tasavvurlarni shakllantirishda asosiy rol o'ynashi mumkin. Xatarlarni ta'kidlash va ularni sog'liq muammolari bilan taqqoslash iste'molchilarga ta'sir qilishi mumkin.

Hozirgi paytda yoshlar o'rtasida energetiki chimliklar iste'moliga o'rganib qolayotganlarni ko'rishimiz mumkin. Uning alkogolli va alkogolsiz xili mavjud. Alkogolsiz energetik ichimlik balog'atga yetmagan yoshlar o'rtasida juda ommalashdi. O'yin-kulguga ruju qo'ygan yoshlar uning xuddi "tetiklashtirganday" xususiyatiga aldanib, bemaol iste'mol qilishda davom etishyapti. O'z ixtiyorlari bilan ulardan voz kecha olmaydigan darajaga kelganlarida esa kech bo'lishini, uning vaqtinchalik "sehrli" ta'sirining salbiy oqibatini hayollariga ham keltirishmayapti. Energetik ichimliklar zamonaviy turmush tarzining ajralmas qismiga aylanib, bedorlik va energiyani oshirish va'dalari bilan e'tiborni tortadi. Biroq, yaltiroq yorliqlar va tezkor reklama ortida sog'liq uchun mumkin bo'lgan xavflar yotadi. Ushbu maqolada biz natijalarni ko'rib chiqamiz va energetik ichimliklar ichish bilan bog'liq xavflarni muhokama qilamiz. Tadqiqot natijalariga asosan yurak-qon tomir tizimiga ta'siri kuchli ta'siri aniqlangan. Ko'pgina tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, energetik ichimliklar ichish qon bosimi va yurak urish tezligining vaqtincha oshishiga olib kelishi mumkin. Bu omillar yurak-qon tomir tizimiga, ayniqsa, yurak-qon tomir kasalliklariga moyil bo'lgan shaxslarda stressni keltirib chiqarishi mumkin. Tadqiqot natijalari energiya ichimliklarining asab tizimiga ta'sirini ham ko'rsatadi. Kofeinning yuqori darajasi uyqusizlik, asabiylashish va xavotirga olib kelishi mumkin, ayniqsa stimulyatorlarga sezgir bo'lgan odamlarda. Tadqiqotlar energiya ichimliklarini iste'mol qilishni metabolik kasalliklar bilan bog'ladi. Ichimlikdagi ortiqcha shakar semizlik va diabet rivojlanishiga yordam beradi. Psixologik jihatlar ham ta'sir qiladi. Energetik ichimliklar asabiylashish, tashvish va ba'zi hollarda hatto tajovuzkor xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin.

#### Zamonaviy suyuqlik xromotografiyasi yordamida Alkogolsiz energetik ichimlikdagi kofein va taurin xavfli kimyoviy moddalarining tavsiya etilgan va aniqlangan mavjud ko'rsatkichlari

1-jadval

Alkogolsiz energetiklar nomi	Tavsiya etilgan miqdor va ingridiyentlar mg/100 cm <sup>3</sup>								
	Kofein	Taurin	L- karnitin	glykuronolakton r	vitamin B3	vitamin B5	vitamin B6	nozit	vitamin B12
	kunlik iste'mol miqdori 25-35	kunlik iste'mol miqdori 300-400	0-120	8 240	150- 8	6 -2	-2	0,010- 0,025	0,001-0,002
Olingan natija ko'rsatkichlar mg/100 cm <sup>3</sup>									
Jaguar-2	314,3	333,54	-	240	8		,7		0,002
Bullit	228,24	240,68	-	-	,2	7	,8		0,0004
Burn	350,12	327,89	-	+	,8	5	,6	,010	0,00028
Mfnester energy	329,77	413,412	-	-	,0	6	,5	,6	-
Levropamp	525,87	399,67	00	1	-	-	,8	,0217	0,0004
Merylend Muscle machine Tumorang	857,52	107,58	-	-	-	-			-
MD Guarana	240,91		+	-	-	+			+

#### Tadqiqot materiallari va usullari:

Energetiklar tahlili zamonaviy suyuqlik xromotografiyasi yordamida ellussiya rejimi va DAD diodli massiv detektor yordamida amalga oshirildi. Mobil faza sifatida asetonitril va buffer eritmasi ishlatilgan. Spectral ma'lumotlarni o'rganish 200 dan 400 nm gacha bo'lgan spektriyal diapozonda pH 2,92 (4 %:90%), 0-6 daqiqalarda, 6-9 daqiqalarda (10%:90%), 9-15 daqiqalarda (20%:80%), 15-20 daqiqalarda (4%:96 %) oraliqda namunalar tarkibiga ta'sir ko'rsatdi.

Inyektsiya hajmi-10 mkl

Jonli faza tezligi- 0,75 ml/min

Kolonka-Eklipse XDB-C18.5,0 mkm, 4,6x250mm

Faza tezligi ustuni: detector-diod qatori to'lqin uzunligi detektor- 272,292,254,297, 360 nm

**Xulosa.** Ma'lumotlardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, energetik ichimliklarni haddan tashqari iste'mol qilish juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. inson salomatligida va ko'p a'zolar yetishmovchiligining rivojlanishiga olib keladi va bu birinchi navbatda yurak-qon tomir tizimiga, markaziy asab tizimi, shuningdek, jigar va buyraklarga zarar yetkazadi. So'nggi o'n yilliklarda energetik ichimliklar hushyor turish va energiyani oshirishning mashhur usuliga aylandi. Biroq, bu rang-barang qutilar va tezkor reklama kampaniyalari ortida sog'liq uchun mumkin bo'lgan xavflar yotadi. Ushbu sharh maqolasida biz energetik ichimliklarni xavfsiz iste'mol qilish bo'yicha asosiy xavf va tavsiyalarni ko'rib chiqamiz. Energetik ichimliklardagi asosiy stimulyatorlardan biri bo'lgan kofein qon bosimi, uyqusizlik va asabiylashishning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Kofeinning tavsiya etilgan kunlik dozasidan oshib ketish jiddiy sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin. Energetik ichimliklardagi ortiqcha shakar miqdori semizlik, diabet va kardiometabolik kasalliklar xavfi bilan bog'liq. Haddan tashqari shirin ichimliklar iste'mol qilish ortiqcha kaloriya va metabolik kasalliklarga olib kelishi mumkin. Taurin va guarana kabi boshqa qo'shimchalar kofeinning ta'sirini kuchaytirishi mumkin, bu esa yanada jiddiy yon ta'sirga olib kelishi mumkin. Taurin, ayniqsa, yurak faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Energetik ichimliklarni iste'mol qilish qon bosimi va yurak urish tezligining vaqtincha oshishiga olib kelishi mumkin. Yurak-qon tomir kasalliklariga moyil bo'lgan odamlarda bu jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Kofeinning katta dozalari uyqusizlik, tashvish va asabiylashishga olib kelishi mumkin. Ba'zi odamlar uchun bu ruhiy muammolarga va ularning umumiy ruhiy salomatligining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Shakarni ortiqcha iste'mol qilish semizlik va

diabet kabi metabolik kasalliklarning rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. Bu, ayniqsa, zamonaviy jamiyatda to'g'ri keladi, bu erda diet ko'pincha yuqori kaloriyali ovqatlarga boy. Kofeyning tavsiya etilgan kunlik dozasi qabul qiling. Aksariyat kattalar uchun bu taxminan 400 mg ni tashkil qiladi, bu taxminan to'rt chashka qahvaga teng. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, energetic ichimliklar tarkibidagi kofey moddasi kunlik iste'mol miqdoridan ko'pligini ko'rsatmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. О законодательных мерах и технических методах противодействия обороту контрафактной, фальсифицированной и некачественной продукции в Российской Федерации. Стр.5-6 <http://iam.duma.gov.ru/node/8/4673/16659>.
2. Китайские производители контрафакта научились подделывать рейды полиции.
3. <http://www.vedomosti.ru/economics/articles/2015/12/04/619741kontrafakta#galleryes/140737488851613/normal/1>.
4. Nam D. Pham. IP Creates Jobs for America. // Executive Summary. <http://www.IPcreatesjobs.com>.
5. ДБК Ягона автоматлаштирилган ахборот тизими маълумотлари. 2020.
6. Бронников В. О. Таможенные органы в борьбе с контрафактом. // Сибирский государственный аэрокосмический университет имени академика М. Ф. Решетнева. - К.:2013. Стр.156-158.
7. Каримкулов Қ. “Контрафакт товарлар йўлига ғов бўлиб”. (СБХ. №37 (1309), 2019 йил 10 сентябрь 47-49 бет.
8. Chaudhry P. Zimmerman A. Protecting Your Intellectual Property Rights. Science+Business Media. New York, 2013.
9. Mirolyubova S. V. Semen V. Ya. Legal regulation of the fight against counterfeit goods in the Russian Federation. Archivio Penale 2013.
10. Cesareo L. Counterfeiting and Piracy. A Comprehensive Literature Review. University of Pennsylvania. 2016.
11. <http://www.researchgate.net/publication/284173806>
12. Carl-Henrik Hagelberg. Counterfeiting – The new economic phenomenon. An investigation of anti-counterfeiting measures and strategies from an organizational insight. 2011. . <http://www.ehl.lu.se>
The article analyzes the extractive substances of aquatic plants *Eichhornia crassipes* and *Pistia stratiotes*. Extracts of roots, stems and leaves of these plants were prepared separately and the composition of the extracts was analyzed by the YuSSX method. The qualitative and quantitative indicators of vitamins contained in extracts of aquatic plants *Eichhornia crassipes* and *Pistia stratiotes* are described.

**Key words:** *Eichhornia crassipes*, *Pistia stratiotes*, aquatic plants, extract, distillation, extraction, filtration.

**Kirish.** Tarkibi biologik faol moddalarga boy o'simliklar juda ko'p bo'lib, bunday o'simliklar ekstraktlari yallig'lanishga qarshi, antioksidant, antifungal, saratonga qarshi, gepatoprotektiv va antibakterial xususiyatlari, shuningdek, insektsid, allelopatik va larvitsidal ta'sir kabi boshqa biologik keng ta'sir doirasiga egadir. Bunday o'simliklarning juda ko'pchilgi dorivorlik xususiyatlari, ularning kimyoviy tarkibi etarli darajada o'rganilmagan. Sunday dorivor o'simliklardan *Eichhornia crassipes*, *Pistia stratiotes* suv o'simliklari bo'lib, ushbu suv o'simliklari ekstraktlari tarkibi vitaminlar, taninlar, saponinlar, terpenoidlar kabi bir qancha metabolitlar, fenoli birikmalar, flavonoidlarga bo'y bo'lgan o'simliklardan xisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Adabiyotlarda qayd etilishicha, kuchli mikroblarga qarshi va atoksiant potentsialga va biologik faol fitokimyoviy moddalarga ega bo'lgan "Eichhornia crassipes" va "Pistia stratiotes" kabi suv o'simliklari bakterial patogenlar keltirib chiqaradigan yuqumli kasalliklarni davolash uchun muqobil birikmalarni ishlab chiqishda foydali bo'lishi mumkin [1-4].

Shularni xisobga olganda vitaminlarga bo'y bo'lgan "Eichhornia crassipes" va "Pistia stratiotes" suv o'simliklari ekstraktining kimyoviy tarkibini tadqiq qilishga yo'naltirilgan ushbu tadqiqot ishi bioorganik va farmatsevtik kimyo sohasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki vitaminlar barcha tirik organizmning xayot faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, turli kimyoviy tuzilishga ega bo'lgan organik moddalardir. Organizm uchun juda kam miqdorda talab etiladigan (oqsil, yog' va uglevodlardan farqi) bu birikmalar fermentlar molekulasini tarkibiga kirib, to'qimalardagi moddalar almashinuvi jarayonida ishtirok etadi. Odam va hayvonlar organizmi ko'pchilik vitaminlarni faqat o'simliklardan va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan birga oladi. Shuning uchun oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida biror vitaminning bo'lmasligi yoki yetishmasligi inson va hayvonlar



organizmda moddalar almashinuvining buzilishiga, keyinchalik esa avitaminoz hamda gipovitaminoz deb ataladigan og'ir kasalliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi [5].

1- jadval

Vitaminlarning ayrim fizik-kimyoviy xossalari

Vitaminning qisqartma belgisi	Kimyoviy formulasi	Molekulyar massasi g/mol	Suyuqlanish xarorati °C	Zichligi g/sm <sup>3</sup>	Qaynash xarorati °C	Eruvchanligi
C	C <sub>6</sub> H <sub>8</sub> O <sub>6</sub>	176,12	190-192	-	-	Suv, etanol
B <sub>1</sub>	C <sub>12</sub> H <sub>17</sub> N <sub>4</sub> OS	265,4	248-250	-	-	suv
B <sub>2</sub>	C <sub>17</sub> H <sub>20</sub> N <sub>4</sub> O <sub>6</sub>	376,36	280	-	-	Suv, spirt
B <sub>6</sub>	C <sub>8</sub> H <sub>11</sub> NO <sub>3</sub>	169,18	-	-	-	suv
B <sub>9</sub>	C <sub>19</sub> H <sub>19</sub> N <sub>7</sub> O <sub>6</sub>	441,4	250°C (parchalanishi)	-	-	suv
B <sub>12</sub>	C <sub>55</sub> H <sub>88</sub> CoN <sub>14</sub> O <sub>14</sub> P	1355,38	300	-	300	suv
PP	C <sub>8</sub> H <sub>8</sub> NO <sub>2</sub>	123,109	123,109	1,4	237	suv

Vitaminlar *Eichhornia crassipes*, *Pistia stratiotes* o'simliklari tarkibidagi moddalar almashinuvining asosiy regulyatori (fermentlar biosintezida ishtirok etadi) xisoblanadi. Vitamin S, karotin, katexinlar va flavonollar o'simlik to'qimalarida doimiy ravishda ro'y berib turadigan oksidlanish - qaytarilish jarayonlarida faol ishtirok etadi. Vitaminlar ta'sirida o'simliklarning hosildorligi oshadi, yetilishi tezlashadi va ildizi tez rivojlanadi

*Eichhornia crassipes* va *Pistia stratiotes* suv o'simliklarining ekstrakti tarkibi ko'plab makroelementlardan iborat ekanligi aniqlandi, jumladan ildizlarda: kalsiy, magniy, kaliy, fosfor va oltingugurt ko'p miqdorda borligi aniqlangan bo'lsa shulardan eng ko'p miqdorda kalsiy-34,56%, aluminiy-17,63% va magniy-7,89% xissasiga to'g'ri keladi. O'simlikning barglari xam kalsiy-69,21%, kaliy-11,7%, bundan tashqari o'simlikning normal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan natriy-5,74% va magniy-6,87% manbalarga boy ekanligi tajribada tasdiqlandi. *Pistia stratiotes* tarkibidagi elementlar analiz qilinganda 30 ga yaqin elementlar mavjud ekanligi aniqlanib, ularning ayrimlari o'simlikning normal o'sishi-rivojlanishi uchun zarur bo'lgan elementlardir [6].


**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotni olib borish jarayonida distillyatsiya, ekstraksiya, filtratsiya, shuningdek, quritish usullari va pH-metriya, xromatografiya usullaridan foydalanildi.

**Xromatografiya sharoitlari:** Xarakatcha faza (gradient usul) – asetonitril – bufer pH=2.92 (4% : 96%) 0-6 min., (10% : 90%) 6-9 min., (20% : 80%) 9-15., (4% : 96%) 15-20 min. Injeksiya miqdori – 10 mkl. Xarakatchan faza tezligi – 0,75 ml/min. Kolonka – Eclipse XDB – C18. 5,0 mkm, 4,6x250mm. Detektor – diod-matrisli detektor, deteksiya to'lqin uzunliklari 272 nm, 292nm, 254nm, 297nm va 360 nm.

*Eichhornia crassipes*, *Pistia stratiotes* o'simliklar tarkibidagi vitaminlarni sifat va miqdoriy aniqlash uchun ildizlari, poyasi va barglaridan alohida namunalar olinib ekstraksiya qilindi. Suvli ekstraktlar magnitli aralashtirgichda (2 sutkada 2x4 soat, 40° C xaroratda) aralashtirildi. Ekstrakt filtrlandi (filtr teshiklari diametri 0,45 mk). Suvli ekstraktlarni aralashtirish uchun BIOBASE MS7-H550-Pro (Xitoy) magnitli aralashtirgichidan foydalanildi. Ekstraktning xarorati (YET-610L) elektron termometrda, eritmalar pHi pH-metrd (IONOMER- PXSJ-216F) nazorat qilindi. Ekstraktning tarkibini va vitaminlar tuzilishini YuSSX usulida tadqiq qilindi.


**Tahlil va natijalar.** Vitaminlar inson organizmda muhim biologik funksiyalarni bajaradi, masalan: Askorbin kislotasi C vitamini inson organizmda Infeksiyaga qarshi kurashishda, ko'rish qobiliyatini oshirishda, hujayralarning qayta tiklanishida ishtirok etadi.

Shuning uchun biz tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlarni YuSSX usuli asosida aniqlashga xarakat qildik. Buning uchun biz suvda eruvchan vitaminlar standart namunalari C, B1, B2, B6, B9, B12, PP lardan 0.1mg/ml konsentratsiyalarining kolonkada ushlanish vaqtlariga nisbatan ularni identifikatsiya qildik. Quyida 1 va 2 rasmlarda *Eichhornia crassipes*, *Pistia stratiotes* o'simliklari tarkibidan niqlangan vitaminlar xromatogrammalari keltirilgan.




Keltirilgan rasmlardagi xromatogrammalardan ko'rinadiki xar ikkala o'simlikning suv ustki qismi vitaminlarga boy.

Miqdoriy jihatdan baxolashda esa ularning xromatogrammadagi cho'qqilari maydonlarini olindi. Taxlil 3 marotaba takrorlandi va o'rtacha qiymatlari olindi. Olingan natijalar quyidagi 3-4 rasimda keltirilgan.



3-rasim: *Eichhornia crassipes* o'simligi tarkibi vitaminlarning YUSSX usuli asosida olingan miqdoriy taxlil natijalari



4-rasim: *Pistia stratiotes* o'simligi tarkibi vitaminlarning YUSSX usuli asosida olingan miqdoriy taxlil natijalari

3-4-rasimda keltirilgan kattaliklardan kurinadiki. Xar ikkala o'simlik tarkibidagi suv ustki va suv ostki kislmlari vitaminlari notekis taksimlangan. Vitamin C xar ikkala o'simlikning suv usti qismida mavjud ekanligini kuzatish mumkin. Vitamin B<sub>6</sub> esa *Pistia stratiotes* o'simligi suv ustki qismida uchrashi, vitamin B<sub>1</sub> esa xar ikkalasida xam faqat suv ustki qismida mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Adabiyotlardan ma'lumki Tiamin (B<sub>1</sub>) vitamini organizmda moddalar almashinuvi, qon aylanishi, silliq muskul ishini boshqarishda ishtirok etadi, miya ishini faollashtiradi [7]. B<sub>2</sub>, B<sub>12</sub> va PP vitaminlari o'rganilayotgan xar ikkala o'simlikning barcha vegetativ organlarida mavjudligini shulardan B<sub>12</sub> asosan *Eichhornia crassipes*, o'simligi ildizida nisbatan yuqori miqdorda bo'lsa, *Pistia stratiotes* o'simligi poyasida nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi. Riboflavin (B<sub>2</sub>) vitamini inson organizmda moddalar almashinuvida, qon hosil bo'lishida ishtirok etadi. Hujayraning kislorod yutishini yengillashtiradi, ko'z charchog'ini pasaytiradi. Piridoksin (B<sub>6</sub>) Aminokislotalar va yog'lar almashinuvida, xolesterin miqdorining nazoratida ishtirok etadi. Nerv sistemasi ishini me'yoralashtiradi. Folik kislotasi (B<sub>9</sub>) vitamini nuklein va aminokislotalar sintezida ishtirok etadi, qon hosil bo'lish jarayonini boshqaradi. Nikotin kislotasi (PP) vitamini nuklein va aminokislota sintezida ishtirok etadi, qon hosil bo'lish organlari ishini boshqaradi [7]. Sianokobalamin (B<sub>12</sub>) vitamini immunitetni oshirish va qon hosil bo'lishida ishtirok etadi, qon bosimini me'yoralashtiradi, asab tizimini me'yoralashtiradi [8]. Umuman olganda o'rganilayotgan xar ikkala o'simlik tarkibida suvda eruvchan vitaminlar miqdori boshka o'simliklarga nisbatan boy ekanligini kuzatish mumkin.

**Xulosa.** *Eichhornia crassipes*, va *Pistia stratiotes* o'simliklari vegetative organlari tarkibidagi S, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>9</sub>, B<sub>12</sub>, PP kabi suvda eruvchan vitaminlar sifat va miqdoriy tahlili YuSSX usulida tadqiq qilindi.

Suvda eruvchan vitaminlar miqdori nisbatan suv ustki qismida ko'proq ekanligi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

- Jafari, N. J., Ecological and socio-economic utilization of water hyacinth (*E. crassipes* mart solms), Appl. Sci. Enviromental Manag. 14 (2010) 43. doi: <http://dx.doi.org/10.1371/journal.pone.0013200>.
- Shanab, S. M. M., Shalaby, E. A., Lightfoot, D. A., El-Shemy, H. A., Allelopathic effects of water hyacinth (*E. crassipes*), PLoS One 5 (2010) 1. doi: <http://dx.doi.org/10.3391/ai.2008.3.1.8>.
- Sanaa M.M.Shanab<sup>1</sup>, Emad A.Shalaby<sup>2</sup> Biological activities and anticorrosion efficiency of water hyacinth (*Eichhornia crassipes*), Journal of Medicinal Plants Research. 2012. Vol. 6(23), PP 3950-3962.
- Kazarinova G.O., Gamulya Yu.G., Gromakova A.B. Masoviy rozvitok *Pistia stratiotes* (Araceae) v r. Siverskiy Dones (Xarkovskaya oblast) // Ukrainskiy botanichniy jurnal. - 2014. - T. 71, № 1. - S. 17-21.

5. Aminjonova C. Technologies of educational innovation and use of methods in the development of biological science. Internauka Uchrediteli: Obshchestvo s ogranichennoy otvetstvennostyu" Internauka", 27-30.
6. X.K.Egamberdiyev, A.D.Matchanov Eyxorniya crassipes, Pistia stratiotes o'simliklari ekstraktining kimyoviy tarkibini o'rganish / "Kimyo talimi, fan va ishlab chiqaris integratsiyalari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani 1 sho'ba 200-202 b.
7. <https://www.nano-lab.com.tr/uz/blog/detail/vitaminlarni-aniqlash>
8. O.J.Meliqulov1, E.S.Baymuradov2 VITAMIN B12 NING OLINISHI VA UNING AHAMIYATI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 8 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: p. 324-327/
9. Knapp, W.M. & Naczi, R.F.C. (2021). Vascular plants of Maryland, USA. A comprehensive account of the state's botanical diversity. Smithsonian Contributions to Botany Cited as Pontederia crassipes. 2021. 113: 1-151.
10. Ackerfield, J. (2015). Flora of Colorado: 1-818. BRIT Press. Cited as Eichhornia crassipes. 2015. Vol.1 P.818
11. Kais Kassim Ghaima Photochemical, antioxidant and antibacterial activities of some extracts of water hyacinth (Eichhornia crassipes) leaves. Hiba Hazim Hamid et al. / International Journal of Advances in Pharmaceutical Research Accepted on 20- 05 - 2013
12. Téllez, T. R., López, E., Granado, G., Pérez, E., López, R., Guzmán, J., The water hyacinth, Eichhornia crassipes: an invasive plant in the Guadiana River Basin (Spain), Aquat. Invasions 3 (2008) 42.



UDK: 678.278:541.68.63

**Abror ESHMATOV,**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: abeshmatov90@gmail.com*

**Sabitjan INAGAMOV,**

*Toshkent farmatsevtika instituti professori, t.f.d*

**G'ofurjon MUXAMEDOV,**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, k.f.d*

*Toshkent farmatsevtika instituti professori, t.f.d S.Inagamov taqrizi asosida*

### PROPERTIES OF INTERPOLYMER COMPLEXES OF NaCMC AND CARBOPOL IN WATER SOLUTIONS

Annotation

In today's pharmaceutical industry, it is important to get the basics of gentle drug delivery. Obtaining IPK hydrogels that can be obtained without the use of toxic agents and expensive radiation methods is one of the most urgent tasks today. In this article, the rheological and other properties of aqueous solutions of NaKMS and Carbopol and their polycomplexes are studied.

**Key words:** Sodium salt carboxymethylcellulose (NaCMC), Carbopol, Infrared spectroscopy.

### СВОЙСТВА ИНТЕРПОЛИМЕРНЫХ КОМПЛЕКСОВ ВОДНЫХ РАСТВОРОВ NaKMЦ И КАРБОПОЛА

В современной фармацевтической промышленности важно освоить основы щадящей доставки лекарств. Получение гидрогелей ИПК, которые можно получить без применения токсичных веществ и дорогостоящих радиационных методов, является сегодня одной из наиболее актуальных задач. В данной статье изучены реологические и другие свойства водных растворов NaKMS и Карбопола и их поликомплексов.

**Ключевые слова:** Натриевая соль карбоксиметилцеллюлозы (NaKMS), карбопол, инфракрасная спектроскопия.

### NaKMS VA KARBOPOLNING SUVDAGI ERITMALARI INTERPOLIMER KOMPLEKSLARINING XOSSALARI

Annotatsiya

Hozirgi kunda farmatsevtika sanoatida yumshoq dori yetkazish asoslarini olish muhim ahamiyatga ega. Toksik ta'sirga ega bo'lgan vositalaridan foydalanmasdan va qimmat nurlanish usullarisiz olinadigan IPK gidrogellarni olish buguni kunda eng dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu maqolada NaKMS va Karbopolning suvdagi eritmaları va ularning polikomplekslarining reologik va boshqa xossalari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Karboksimitilsellyulozaning natriyli tuzi (NaKMS), karbopol, infraqizil spektroskopiya.

**Kirish.** Interpolimer komplekslari (IPK) kimyoviy jihatdan bir-birini to'ldiruvchi makromolekulalar - polianionlar va polikationlar yoki proton donorlari va akseptorlarining o'zaro ta'siri mahsulotidir. Quyi molekulyar moddalar orasidagi oddiy kimyoviy reaksiyalardan farqli o'laroq, makromolekulalar orasidagi o'zaro ta'sir kooperativ xarakterga ega. Karboksimitilsellyuloza (KMS), gidroksil guruhlarining H atomlari karboksimetil guruhlari ( $\text{CH}_2\text{COOH}$ ) bilan almashtirilgan sellyuloza hosilasi ko'pincha uning natriyli tuzi NaKMS sifatida ishlatiladi. U suvda yaxshi eruvchanligi, biologik moslashuvchanligi, biologik parchalanishi, yuqori yopishqoqligi va toksik emasligi tufayli farmatsevtika maqsadlarida keng qo'llanilishi mumkin. [1]

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Poulami Basu va boshqalar tomonidan jarohatni davolash uchun KMS/PEG (Karboksimitilsellyuloza/Polietilenglikol) asosidagi IPK lari haqida bir qancha ilmiy ishlar olib borilgan [2].


Barun Mandal va boshqalar transdermal dori yuborish uchun diklofenak natriyni yetkazib berish uchun nanokompozit KMS asosidagi gidrogel olish usuli o'rganilgan. Yining Chen va boshqalar tomonidan KMS va dopamin yordamida biologik yopishtiruvchi gidrogel tayyorlash usuli o'rganilgan.

Yurina Sekine va boshqalar tomonidan karboksimetil nanosellyuloza tolasi asosidagi gidrogel va bentonitning bo'yoq degradatsiyasi uchun adsorbent sifatida ishlatilishi xususiyatlari baholangan.

Alina Ghilan va boshqalar prokainni etkazib berish uchun o'zaro bog'lovchi sifatida fitik kislotadan foydalangan holda KMS gidrogelining bir bosqichli tayyorlanishi o'rganilgan. Karbopol polimerlari biologik moslashuvchanligi va biologik parchalanishi tufayli farmatsevtika va biologik qo'llash uchun eng qulay polimerlar hisoblanadi. Odatda, Karbopol polimerlari harorat, pH, yorug'lik yoki elektr maydoni kabi ba'zi tashqi omillar ta'sirida shishish harakatining o'zgarishini ko'rsatadigan stimulla javob beradigan gidrogellarni tayyorlashda ishlatiladi.

Feng Zhang, Jozef Lubach, Watson Na, Samad Momin PEO/Karbopol 907 o'rtasidagi interpolimer kompleks va matritsadan dori moddalarining chiqarilishiga ta'siri o'rganilgan[3]. Texnik NaKMS ni farmatsevtikada ishlatish uchun uni qayta ishlash usuli Sh.A.Yo'ldoshov va A.A.Sarimsoqovlar tomonidan texnologik usuli o'rganilgan [4].






2-rasm: NaKMS va NaKMS/Karbopol 1:1, 1:2 va 2:1 nisbatdagi IPK ning IQ spektri.

2-rasmda 1:1, 3:2, 2:3 nisbatdagi NaKMS/Karbopol 940 IPK gidrogelining IQ spektrlari ko'rsatilgan. NaKMS/Karbopol gidrogellarining barchasida  $1638\text{ cm}^{-1}$  dan  $1725\text{ cm}^{-1}$  da cho'qqini ko'rsatdi, bu gidrogelda mavjud karboksil guruhining cho'zilgan tebranishini ko'rsatadi [8] [9].

$3443\text{ cm}^{-1}$  dan  $3448\text{ cm}^{-1}$  atrofida kuzatilgan keng diapazon gidrogelda mavjud bo'lgan vodorod bog'lanishi va suv tarkibiga bog'liq [7]. Barcha gidrogellar bir xil cho'qqilarni ko'rsatdi.  $1032\text{ cm}^{-1}$  dan  $1034\text{ cm}^{-1}$  oraliqda kuzatilgan kichik yutilish spektri NaKMS ning xarakterli bandi bo'lgan selluloza polisaxaridining OH guruhlariga bog'liq. [10] Shunday qilib, vodorod bog'lanishi orqali NaKMS/Karbopol IPK gidrogelining shakllanishi IQ spektridan tasdiqlanadi.


AKM natijalari shuni ko'rsatdiki NaKMS:Karbopol 20:30 massa nisbatidagi namuna sirti topografiyasida zarrachalar balandligi bo'yicha taqsimoti 40 nanometr, 25:25 massa nisbatida 600 nanometr, 30:30 massa nisbatida 200 nanometr atrofidagi zarrachalar ustuvor bolgan. 2D va 3D topografiya tasvirlar shuni korsatadiki NaKMS:Karbopol 25:25 massa nisbatidagi namuna sirtida 400 nanometrdan 3 mikrongacha bolgan xarakterli shaklsiz zarrachalar kuzatilgan.



3-rasm: NaKMS:Karbopol IPK ning 20:30 25:25 30:20 massa nisbatidagi namuna sirtining AFM tasvirlari.

NaKMS:Karbopol massa nisbatlaridagi namunalar NaKMS konsentratsiyasi oshib borilishi bilan nanozarrachalarning olchamlari oshib borishini AFM topografik tasvirlari tasdiqlaydi. NaKMS:Karbopol 25:25 massa nisbatidagi namuna sirtidagi nano va mikro strukturali zarrachalar xosil bolgan. (3-rasm)

NaKMS va Karbopol eritmalarini aralastirish jarayonida interpolimer kompleks hosil kilish natijasida ushbu zarachalar xosil bolganligini IQ spektrlari tasdiqlaydi.



4-rasm: NaKMS va Karbopolning suvdagi 2 % li eritmalarini va ularning 2:1, 1:1 va 1:2 nisbatdagi polikomplekslarining reologik xossalari.

4-rasmda NaKMS va karbopolning 2% li suvli eritmalarini va ularning 2:1, 1:1 va 1:2 nisbatdagi kompleks aralashmalarining 25°C haroratda olingan reologik tahlil natijalari keltirilgan. Karbopolning suvdagi eritmasining qovushqoqligi NaKMS ning suvdagi eritmasiga qaraganda biroq qovushqoqligi yuqoriroqdir. Karbopolning suvdagi 2% li eritmasining qovushqoqligi tezlik gradientining oshishi bilan 18754 mPa·s dan 247,49 mPa·s gacha deyarli chiziqli kamayishi kuzatiladi. NaCMC ning suvdagi 2% li eritmasining qovushqoqligi tezlik gradientining oshishi bilan 17388 mPa·s dan 81,098 mPa·s gacha deyarli chiziqli kamayishi kuzatiladi. NaKMS/Karbopol kompleksida qovushqoqlik Karbopolga qaraganda kamroq qiymatga ega bo'ladi. Olingan komplekslarda qovushqoqlik 5664,8 mPa·s 104,63 mPa·s gacha deyarli chiziqli kamayishi kuzatiladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, biz NaKMS va karbopol polimerlaridan foydalangan holda o'zaro bog'lanish usuli bilan NaKMS/Karbopol IPK gidrogellarini tayyorladik. IPK gidrogellarning infraqizil va ultrabinafsha spektrlari, potensimetrik va konduktometrik titrlah usullari orqali fizik kimyoviy xususiyatlari o'rganildi. Barcha tadqiqotlar fiziologik haroratda (37°C) o'tkazildi. NaKMS polimer konsentratsiyasining gidrogellarning muhit ko'rsatkichlari va barqarorligiga ta'siri tahlil qilindi. Tayyorlangan NaKMS/Karbopol IPK gidrogellari yuqori darajada barqaror, biologik moslashuvchan va biotibbiyot sohalari uchun zarur bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu tadqiqot NaKMS/Karbopol IPK gidrogellarning transdermal dori vositalarini ishlab chiqishda samarali imkoniyatlarni berishi va kengaytirilishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

- H. Nasution, H. Harahap, N.F. Dalimunthe, M.H.S. Ginting, M. Jaafar, O.O.H. Tan, H.K. Aruan, A.L. Herfananda "Hydrogel and effects of crosslinking agent on cellulose-based hydrogels: a review" *Gels*, 8 (2022),
- P. Basu, U. Narendrakumar, R. Arunachalam, S. Devi, I. Manjubala "Characterization and evaluation of carboxymethyl cellulose-based films for healing of full-thickness wounds in normal and diabetic rats" *ACS Omega*, 3 (2018), p. 12622,
- Feng Zhang, Joseph Lubach, Watson Na, Samad Momin "Interpolymer complexation between polyox and carbopol, and its effect on drug release from matrix tablets" *Journal of pharmaceutical sciences* 2016 pp 1-11.
- Ш.А.Юлдашев, А.А.Сарымсаков "Исследование процесса очистки технической карбоксиметилцеллюлозы с использованием минеральных кислот" *UIVERSUM* 2020.
- Anastasia S.Viktorova, Elizaveta S.Elizarova, Regina S.Romanova, Venera R.Timergaliev, Vitaliy V.Khutoryanskiy, Rouslan I.Moustafine. "Interpolymer complexes based on carbopol and polu(2-ethyl-2-oxazoline) as carriers for buccal delivery of metformin" *Pharmaceutical technology* 2021
- Priscilla R.Vargas, Camila M.Costa, Bruno S.Fonseca, Monica F.Naccache and Paulo R.De Souza Mendes "Rheological Characterization of Carbopol dispersions in water and water/Glycerol solutions" *"Fluids"* 2019.
- Patrycja Wagner, Sylwia Rozanska, Ewelina Warmbier, Adriana Frankiewicz and Jacek Rozanski "Rheological properties of sodium carboxymethylcellulose solutions in dihydroxy alcohol/water mixtures" *"Materials"* 2023.
- S. Vieira, A. Ancelmo, P. Mansur, I.C. Carvalho, S.M. Carvalho, H.S. Mansur
- "Dressing and Skin Tissue Engineering Applications" 2023
- V. Mishra, R. Kumar "Graft copolymerization of carboxymethylcellulose: an overview, trends" *Carbohydr. Res.*, 4 (2012), pp. 1-17
- Novel nanocomposite hydrogel for wound dressing and other medical applications *RSC Adv.*, 5 (2015), pp. 103036-103046



UDK:661.634.2

**Shuxrat YUZBOEV,**  
“Ammofos-Maksam” AJ ishlab chiqarish direktori o‘rinbosari  
E-mail: ammofos-uz@mail.ru

**Baxodir SODIQOV,**  
“Ammofos-Maxam” AJ ishlab chiqarish direktori, t.f.n

**Xolto‘ra MIRZAKULOV,**  
TKTI huzuridagi “PKQT va MO” TM direktori, t.f.d., professor

**Ruslan YORBOBOEV,**  
TKTI “NMKT” kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD

По отзывом Г.Абдурахманова, доцента Национального университета Узбекистана

### ИССЛЕДОВАНИЯ ВЛИЯНИЕ “ПАА-ГЕЛЬ” ВА “СТРУКТОЛ SB-2195” НА ПЕНООБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ПОЛУЧЕНИЯ ЭКСТРАКЦИОННОЙ ФОСФОРНОЙ КИСЛОТЫ ИЗ НЕОБОГАЩЕННОГО ФОСФОРИТА

Аннотация

Изучена кратность пены фосфорнокислотного пульпы, образующаяся в процессе получения экстракционной фосфорной кислоты из необогащенных фосфоритов Ташкуринского месторождения и способы ее устранения. Исследованы высота и кратность пены, образующейся при разложении необогащенного фосфорита в присутствии фосфорной и серной кислоты в оптимальных условиях, а также способы и оптимальные условия снижения кратности пены с использованием ПАА-геля и «Struktol SB-2195» в качестве реагентов, предотвращающей пенообразования.

**Ключевые слова:** Необогащенный фосфорит Ташкуры, фосфорнокислотная пульпа, кратность пены, ПАА-гель, Struktol SB-2195.

### RESEARCHING OF THE EFFECT OF “PAA-GEL” VA “STRUKTOL SB-2195” ON FOAMING IN THE PROCESS OF OBTAINING EXTRACTION PHOSPHORIC ACID FROM UNENRICHED PHOSPHORITE

Annotation

The phosphoric acid pulp foam multiplicity in the process of obtaining extraction phosphoric acid from unenriched phosphorites of the Tashkura deposit and ways to eliminate it have been studied. The height and multiplicity of the foam formed during the decomposition of unenriched phosphorite in the presence of phosphoric and sulfuric acid under optimal conditions, as well as methods and optimal conditions for reducing the multiplicity of foam using PAA gel and Struktol SB-2195 as reagents preventing foaming, were studied.

**Key words:** Unenriched Tashkura phosphorite, phosphoric acid pulp, multiplicity of foam, PAA gel, Struktol SB-2195.

### BOYITILMAGAN FOSFORITLARDAN EKSTRAKSION FOSFOR KISLOTASI OLIISH JARAYONIDAGI KO‘PIKLANISHGA “PAA-GEL” VA “STRUKTOL SB-2195” TA‘SIRI TADQIQOTI

Аннотация

Tashkura koni boyitilmagan fosforitlaridan ekstraktsion fosfor kislotasi olish jarayonida hosil bo‘ladigan fosfatkislotali bo‘tqaning ko‘piklanish karraligi va uni bartaraf etish usullari o‘rganildi. Boyitilmagan fosforitni maqbul sharoitda fosfat va sulfat kislotalari ishtirokida parchalash jarayonida hosil bo‘ladigan ko‘pik balandligi va karraligi aniqlandi hamda ko‘piklanishni bartaraf etuvchi reagentlar sifatida PAA-gel va “Struktol SB-2195” ishtirokida ko‘pik karraligini kamaytirish usullari va maqbul sharoitlari tadqiq qilindi.

**Kalit so‘zlar:** Tashkura boyitilmagan fosforiti, fosfor kislotali bo‘tqa, ko‘piklanish karraligi, PAA-gel, “Struktol SB-2195”.

**Kirish.** Boyitilmagan fosforit xomashyolaridan (BFX) ekstraktsion fosfor kislotasi (EFK) olish jarayonida hosil bo‘ladigan ko‘piklanishni bartaraf etish yuqori konsentratsiyali fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarishda yechimini kutayotgan muhim muammolardan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Navoiy viloyatidagi Markaziy Qizilqumning (MQ) “Qizilqum fosforit kompleksi” MChJ-da 3 turdagi: yuvib kuydirilgan foskonsentrati (YKFK), yuvib quritilgan fosforiti (YQF) va boyitilmagan fosforit xomashyosi (BFX) ishlab chiqariladi. Respublikamizda faqat “Ammofos-Maxam” AJ-da YKFK-dan digidrat usulida EFK ishlab chiqariladi [1, 2].

“Qizilqum fosforit kompleksi” MChJ YuKFK-ni ishlab chiqarish yillik quvvati 716 ming tonnani (~26,2% P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) tashkil etadi, ammo o‘rtacha yiliga 450 ming tonna YKFK ishlab chiqarmoqda. Respublikamizda yiliga o‘rtacha 150 ming t 100 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> fosforli o‘g‘itlar olinadi, bu qishloq xo‘jaligining fosforli o‘g‘itlarga bo‘lgan yillik ehtiyojining ~30 % ni tashkil etadi. Buni asosiy sababi YKFK-ning yetishmasligi va BFX-dan EFK olishning ilmiy asoslangan, texnologik qulay va iqtisodiy samarador bo‘lgan texnologiyasining ishlab chiqilmaganligidir. Shuningdek, MQ-ning BFX-dan EFK olish texnologiyasini ishlab chiqishdagi



asosiy muammolardan biri ko'piklanishni bartaraf etish va digidratli fosfatkislotali bo'tqani filtrlanish tezligining kichikligi hisoblanadi [3, 4].

BFX-larini EFK-ning turli me'yorlari ishtirokida parchalab qo'shsuperfosfat, monodikalsiyfosfat, prisipitat [5, 6], sulfat va fosfat kislotalari ishtirokida parchalab fosforoltingugurkalsiyli PS-agro va boyitilgan superfosfat SPF-26, SPF-23 [7, 8], azot kislotasi ishtirokida parchalab nitrofos o'g'itlarini [9] olish jarayonlarida hosil bo'ladigan ko'piklanishni turli texnologik va texnik usullardan foydalanib bartaraf etish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Ammo, tadqiqot ishlarida BFX-ni mineral kislotalar bilan parchalash jarayonida hosil bo'ladigan ko'piklanishni kamaytirish maqsadida kimyoviy reagentlardan foydalanilmagan.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot ishlari bajarishda MQ-ning BFX (O'zDSt 2825:2018, "Qizilqum fosforit kombinati" MChJ-da ishlab chiqarilgan), EFK (TSh 6.6-21:2018, "Ammofos-Maxam" AJ-da ishlab chiqarilgan) va sulfat kislotasi (GOST 2184-2013) hamda PAA-gel (Ts 00203849-64-2016, "Navoiyazot" AJ-da ishlab chiqarilgan) va "Struktol SB-2195" (Struktol SB-2195, Schell+Seilacher GmbH, Germaniya) reagentlaridan foydalanildi.

**Muhakoma va natijalar.** Tadqiqot ishlarida foydalanilgan BFX-ning kimyoviy tarkibi quyidagicha, og'ir. %: P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> - 21,8; CaO - 49,8; MgO - 1,20; Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> - 0,31; Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> - 0,65; CO<sub>2</sub> - 12,10; Cl<sup>-</sup> - 0,24; CaO/P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> - 2,285; erimaydigan qoldiq - 4,5; H<sub>2</sub>O - 1,2; organik uglerodlar - 2,0.

Tajriba qurilmasida olib borilgan tadqiqot ishida "Tashkura" konining BFX-ni fosfat va sulfat kislotali parchalashdagi ko'piklanish jarayoniga (ko'pik balandligi, ko'pik karraligi (K<sub>k</sub>), ko'pikni "yashash" davri) jarayon davomiyligi hamda PAA-gel, "Struktol SB-2195" moddalarining miqdori ta'sirlari o'rganildi. Ko'piklanish jarayonini tavsiflovchi omil sifatida hosil bo'lgan K<sub>k</sub> va mavjud bo'lish davri - "yashash" vaqti qabul qilindi. Ko'pikning balandligini o'lchamlarda belgilangan qiymatlar ko'rinishi bo'yicha, ko'pikning "yashash" vaqtini esa sekundlarda o'lchab olindi. K<sub>k</sub> ko'pik hajmining V<sub>k</sub> uni hosil bo'lishiga sarflangan suyuqlik hajmiga V<sub>c</sub> nisbati sifatida aniqlandi [10, 11].

$$K_k = V_k / V_c = V_r + V_c / V_c, \text{ bu yerda } V_r - \text{ ko'pikdagi gaz hajmi.}$$

Ko'pikning "yashash" vaqti (U) τ (sek) vaqtda ajralib chiqqan suyuqlik miqdori yoki ko'pikdan suyuqlikning ajralib chiqish tezligi bo'yicha aniqlanadi, ya'ni  $U = V_c / \tau$  [12].

EFK olish jarayoni H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> me'yori - 103 %, Q:S = 1:3,0, parchalash jarayoni harorati - 80 °C va davomiyligi - 90 daqiqa mobaynida olib borildi. Bunda EFK olish jarayoni ikki bosqichda amalga oshirilgan bo'lib, dastlabki bosqichda 20 daqiqa davomida 12 %-li EFK aylanma eritmasidagi va 90 daqiqa davomida esa 93 %-li sulfat kislotali parchalash jarayonlaridagi ko'pik balandligi va K<sub>k</sub> aniqlandi. Dastlabki bosqichda BFX-ni 12% P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> EFK aylanma eritmasiga va olingan qo'yqaga 93%-li H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>-ni 10 daqiqa davomida bir xil me'yorda qo'shildi hamda ko'pik va quyqa balandligi o'lchab borildi. PAA-gel ishtirokidagi tadqiqot natijalari 1-jadvalda, "Struktol SB-2195" ishtirokidagi esa 2-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

MQ-ning BFX-ni sulfat kislotasi ishtirokida parchalab EFK olishda ko'piklanish jarayoniga jarayon davomiyligi va PAA-gel miqdorining ta'siri (H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> me'yori - 103% va Q:S=1:3,0).

Jarayon davomiyligi, min.	PAA-gel miqdori, %								
	PAA-gel, 0,01%, (10r/r)			PAA-gel, 0,025%, (25r/r)			PAA-gel 0,05%, (50r/r)		
	o'pik balandligi, sm	Quyqa balandligi, sm	Ko'pik karraligi, K <sub>k</sub>	o'pik balandligi, sm	Quyqa balandligi, sm	Ko'pik karraligi, K <sub>k</sub>	Ko'pik balandligi, sm	Quyqa balandligi, sm	Ko'pik karraligi, K <sub>k</sub>
BFX-ni 12% P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> EFK aylanma eritmasi bilan dastlabki aralashtirish jarayoni									
0,5	3,14	9,81	1,32	2,75	9,82	1,28	2,35	9,84	1,24
1	8,58	9,86	1,87	7,86	9,86	1,80	7,14	9,86	1,72
5	2,76	9,86	1,28	2,40	10,75	1,22	2,04	11,56	1,18
10	1,22	10,54	1,12	0,80	12,04	1,07	0,34	12,58	1,02
15	0,65	10,55	1,06	0,45	11,63	1,04	0,21	12,58	1,01
20	0,32	10,57	1,03	0,26	11,62	1,02	0,14	12,58	1,00
BFX-ni 12% P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> EFK aylanma eritmasi bilan ishlov berib olingan quyqani 93%-li H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> ishtirokida parchalash jarayoni									
25	9,52	11,22	1,85	8,50	12,15	1,67	7,48	12,92	1,58
30	17,68	13,60	2,30	12,36	13,45	1,92	6,98	12,92	1,54
35	12,92	12,92	2,00	9,78	12,92	1,76	6,48	12,92	1,50
40	6,80	12,92	1,53	6,15	12,92	1,48	5,1	12,92	1,39
45	4,76	12,92	1,37	3,62	13,04	1,28	2,04	13,09	1,10
50	4,08	12,94	1,31	2,61	13,07	1,20	1,05	13,09	1,08
55	2,39	13,26	1,18	1,48	13,22	1,11	0,52	13,10	1,04
60	1,59	13,27	1,12	0,89	13,20	1,07	0,13	13,12	1,01
65	0,80	13,28	1,06	0,47	13,26	1,04	0,11	13,13	1,00
70	0,53	13,29	1,04	0,31	13,28	1,02	0,05	13,14	1,00
80	0,13	13,29	1,01	0,08	13,32	1,01	0,03	13,15	1,00
90	0,06	13,29	1,00	0,04	13,33	1,00	0,01	13,16	1,00

Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki (1-jadval), BFX-ni dastlab 12% P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> EFK aylanma eritmasi bilan aralashtirish jarayonida ko'piksizlantiruvchi reagent sifatida 1 t BFX-ga nisbatan quyqaga 0,01%-li PAA-gel eritmasidan 10; 25 va 50 g miqdorlarida qo'llanilganda jarayon davomiyligi 1 daqiqa bo'lganda ko'pik balandligi va K<sub>k</sub>-ni yuqori qiymatni, mos ravishda 8,58; 7,86; 7,14 sm va 1,87; 1,80; 1,72 ni tashkil etdi. Jarayon davomiyligi 0,5 daqiqadan 20 daqiqagacha ortishi bilan ko'pik balandligi va K<sub>k</sub> dastlab 0,5 daqiqadan 1 daqiqagacha vaqt oralig'ida ko'pik balandligi va karraligi mos ravishda 10 g/t - 3,14 sm - dan 8,58 sm - gacha va 1,32 dan 1,87 gacha; 25 g/t - 2,75 sm - dan 7,86 sm - gacha tezda ko'tarilishi va 1,28 dan 1,80 gacha; 50 g/t - 2,35 sm - dan 7,14 sm - gacha va 1,24 dan 1,72 gacha, 1 daqiqadan 20 daqiqagacha bo'lgan vaqt oralig'ida esa ko'pik balandligi va K<sub>k</sub> mos ravishda 10 g/t - 8,58 sm - dan 0,32 sm - gacha va 1,87 dan 1,03 gacha; 25 g/t - 7,86 sm - dan 0,26 sm - gacha va 1,80 dan 1,02 gacha; 50 g/t - 7,14 sm - dan 0,14 sm - gacha va 1,72 dan 1,00 gacha keskin kamayishi kuzatildi. Ayniqsa ko'pik balandligi va

$K_K$  1 daqiqadan 5 daqiqagacha bo'lgan vaqt oralig'ida ko'pik balandligi va  $K_K$  mos ravishda 10 g/t – 3,10 va 1,46; 25 g/t – 3,30 va 1,48; 50 g/t – 3,50 va 1,46 marta kamayishi kuzatildi.

BFX-ni 12%  $P_2O_5$  EFK aylanma eritmasi bilan qisman parchalab olingan quyqani 93%-li sulfat kislotasi ishtirokida ( $H_2SO_4$  me'yori - 103%) to'liq parchalash jarayonida, ya'ni ikkinchi bosqichda birinchi bosqichda keltirilgan qonuniyat qisman saqlanib qolmoqda, ya'ni dastlabki 5 daqiqada (25 - 30 daqiqa oralig'ida) ko'pik balandligi va  $K_K$  mos ravishda 10 g/t – 9,52 sm - dan 17,68 sm - gacha va 1,85 dan 2,30 gacha; 25 g/t – 8,50 sm - dan 12,36 sm - gacha va 1,67 dan 1,92 gacha tezda ko'tarilishi, 50 g/t esa 7,48 sm - dan 6,98 sm - gacha va 1,58 dan 1,54 gacha kamayishi kuzatildi. Bu esa BFX-ni sulfat kislotali parchalash jarayonida PAA-gel miqdori 50 g/t bo'lganda dastlabki jarayonda ko'piklanishni qisman kamaytirishga ta'siri mavjudligini ko'rsatmoqda. Quyqani sulfatkislotali parchalashning keyingi 5-10 daqiqalarida esa (30 – 40 daqiqalarda) ko'pik balandligi va  $K_K$  qiymati keskin kamayishi kuzatiladi va birinchi bosqichdagi qonuniyat to'liq saqlanib qoladi.

Shuningdek, BFX-ni dastlab 12%  $P_2O_5$  EFK aylanma eritmasi bilan, keyin olingan quyqani sulfat kislotasi ishtirokida parchalash jarayonlarida ko'piksizlantiruvchi reagent sifatida 1 t BFX-ga nisbatan quyqaga 0,01%-li "Struktol SB-2195" eritmasidan 10; 25 va 50 g miqdorlarida qo'llab jarayon davomiyligi 90 daqiqagacha bo'lgan davrda ko'pik balandligi va  $K_K$  qiymatlari o'rganildi. Tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

MQ-ning BFX-ni sulfat kislotasi ishtirokida parchalab EFK olishda ko'piklanish jarayoniga jarayon davomiyligi va "Struktol SB-2195" miqdorining ta'siri ( $H_2SO_4$  me'yori - 103% va Q:S=1:3,0).

Jarayon davomiyligi, min.	"Struktol SB-2195" miqdori, %								
	"Struktol SB-2195" 0,01%, (10 r/r)			"Struktol SB-2195" 0,025%, (25 r/r)			"Struktol SB-2195" 0,05%, (50 r/r)		
	Ko'pik balandligi, sm	Quyqa balandligi, sm	Ko'pik karraligi, $K_K$	Ko'pik balandligi, sm	Quyqa balandligi, sm	Ko'pik karraligi, $K_K$	Ko'pik balandligi, sm	Quyqa balandligi, sm	Ko'pik karraligi, $K_K$
BFX-ni 12% $P_2O_5$ EFK aylanma eritmasi bilan dastlabki aralashtirish jarayoni									
0,5	6,04	10,06	1,60	4,72	10,08	1,47	3,13	10,09	1,31
1	15,30	10,20	2,40	11,90	10,88	2,09	7,89	10,25	1,77
5	2,04	12,58	1,16	3,06	11,90	1,26	2,53	10,54	1,24
10	0,34	12,58	1,03	0,34	12,24	1,03	0	12,24	1,11
15	0,34	12,58	1,03	0	12,24	1,00	0	12,24	1,00
20	0,34	12,24	1,03	0	12,24	1,00	0	12,24	1,00
BFX-ni 12% $P_2O_5$ EFK aylanma eritmasi bilan ishlov berib olingan quyqani 93%-li $H_2SO_4$ ishtirokida parchalash jarayoni									
25	15,13	13,09	2,16	15,64	13,26	2,05	11,22	13,94	1,80
30	8,84	13,26	1,67	7,48	13,94	1,54	1,70	13,94	1,12
35	3,91	13,43	1,29	1,70	13,94	1,12	0,51	13,94	1,04
40	3,06	13,60	1,23	0,34	13,94	1,02	0	14,11	1,00
45	2,21	13,60	1,16	0	13,94	1,00	0	14,11	1,00
50	1,36	13,60	1,10	0	13,94	1,00	0	14,11	1,00
55	1,02	13,60	1,08	0	13,94	1,00	0	14,11	1,00
60	0,85	13,77	1,06	0	13,94	1,00	0	14,11	1,00
65	0,51	13,77	1,04	0	13,94	1,00	0	14,11	1,00
70	0	13,94	1,00	0	14,11	1,00	0	13,94	1,00
80	0	13,94	1,00	0	14,11	1,00	0	13,94	1,00
90	0	13,94	1,00	0	14,11	1,00	0	13,94	1,00

BFX-ni 12%  $P_2O_5$  EFK aylanma eritmasi bilan qisman parchalash jarayonida "Struktol SB-2195" reagenti yuqorida keltirilgan miqdorlarda qo'llanilganda PAA-gel reagenti ishtirokidagi kabi dastlab ko'pik balandligi va  $K_K$  1 daqiqagacha bo'lgan vaqtda ortadi, keyin 5 daqiqagacha bo'lgan vaqtgacha esa keskin kamayadi. 1 t BFX-ga nisbatan quyqaga 0,01%-li "Struktol SB-2195" eritmasidan 10; 25 va 50 g miqdorlarida qo'shish jarayonida jarayon davomiyligi 1 daqiqa bo'lganda ko'pik balandligi va  $K_K$  mos ravishda o'rtacha 1,52-1,53 va 1,35-1,50 martaga ortadi. Ushbu ko'rsatkichlar 1 daqiqadan so'ng keskin kamayib, 5 daqiqada mos ravishda o'rtacha 7,5 – 3,12 va 2,07 – 1,43 martani tashkil etadi.

Quyqani sulfatkislotali parchalashda "Struktol SB-2195" reagenti 10; 25 va 50 g miqdorlarida qo'shilganda ko'pik balandligi va  $K_K$  dastlabki vaqtdan boshlab 10 daqiqa (25-35 daqiqa) ichida mos ravishda 3,87; 9,20; 22,0 va 1,67; 1,83; 1,73 marta keskin kamayadi. Keyingi 25 daqiqa (40-65 daqiqa) ichida esa "Struktol SB-2195" reagenti 10 g/t qo'shilganda ko'pik balandligi va  $K_K$  mos ravishda 6,0 va 1,18 martaga kamaydi, 25 va 50 g/t qo'shilganda esa 40 daqiqadan boshlab ko'piklanish bo'lmadi va  $K_K$  qiymati o'zgarmas qiymatni tashkil etdi.

3-jadval

BFX-ni  $H_3PO_4$  va  $H_2SO_4$  ishtirokida parchalab EFK olishda ko'pik karraligiga jarayon davomiyligini, "Struktol SB-2195" va PAA-gel miqdorining ta'siri

Jarayon davomiyligi, min.	"Struktol SB-2195" va PAA-gel miqdori, %							
	Ko'pik karraligi, $K_K$	Ko'pik karraligi, $K_K$ , "Struktol SB-2195", (r/r)			Ko'pik karraligi, $K_K$ , PAA-gel, (r/r)			
		0	10,0	25,0	50,0	10,0	25,0	50,0
BFX-ni 12% $P_2O_5$ EFK aylanma eritmasi bilan aralashtirish jarayoni								
0,5	1,65	1,60	1,47	1,31	1,32	1,28	1,24	
1	2,50	2,40	2,09	1,77	1,87	1,80	1,72	
5	1,76	1,36	1,26	1,24	1,28	1,22	1,18	
10	1,06	1,03	1,03	1,11	1,12	1,07	1,02	
15	1,00	1,03	1,00	1,00	1,06	1,04	1,01	
20	1,00	1,03	1,00	1,00	1,03	1,02	1,00	
BFX-ni 12% $P_2O_5$ EFK aylanma eritmasi bilan ishlov berib olingan quyqani 93% li $H_2SO_4$ ishtirokida parchalash jarayoni								
25	3,45	2,16	2,05	1,80	1,85	1,67	1,58	

30	1,70	1,67	1,54	1,12	2,30	1,92	1,54
35	1,34	1,29	1,12	1,04	2,00	1,76	1,50
40	1,19	1,23	1,02	1,00	1,53	1,48	1,39
45	1,17	1,15	1,00	1,00	1,37	1,28	1,10
50	1,17	1,10	1,00	1,00	1,31	1,20	1,08
55	1,11	1,08	1,00	1,00	1,18	1,11	1,04
60	1,05	1,06	1,00	1,00	1,12	1,07	1,01
70	1,05	1,00	1,00	1,00	1,04	1,02	1,00
80	1,04	1,00	1,00	1,00	1,01	1,01	1,00
90	1,03	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00

BFX-ni dastlab EFK aylanma eritmasi, keyin 93%-li sulfat kislotasi ishtirokida parchalash jarayonida har ikkala bosqichda ham hosil bo'ladigan ko'piklanishning texnologik jarayonga ta'sirini  $K_k$  belgilaydi, ya'ni  $K_k$  qiymati qancha past bo'lsa texnologik jarayonga ko'piklanish ta'siri shunchalik kam bo'ladi. 3-jadvalda BFX-ni EFK-ni aylanma eritmasi va  $H_2SO_4$  ishtirokida parchalab EFK olishda "Struktol SB-2195" va PAA-gel reagentlari miqdori va jarayon davomiyligining  $K_k$ -ga ta'siri bo'yicha olingan qiyosiy ma'lumotlar keltirilgan.

BFX-ni dastlab EFK aylanma eritmasi, keyin 93%-li sulfat kislotasi ishtirokida parchalash jarayonlarida  $K_k$  -ning maksimal qiymatlari mos ravishda 2,50 va 3,45 ni tashkil etdi. 1 t BFX-ga nisbatan quyqaga "Struktol SB-2195" va "PAA-gel" reagentlaridan 10; 25 va 50 g qo'shilganda esa quyqaning  $K_k$  - ga mos ravishda ("Struktol SB-2195") birinchi bosqichda 1,04; 1,20; 1,42 va ikkinchi bosqichda esa 1,60; 1,68; 1,92 marta hamda mos ravishda ("PAA-gel") birinchi bosqichda 1,34; 1,39; 1,45 va ikkinchi bosqichda esa 1,50; 1,80; 2,24 marta kamayishini tadqiqotlar natijalari ko'rsatdi.

**Xulosa.** Shunday qilib, BFX-ni dastlab fosfat, keyin sulfat kislotalari ishtirokida parchalash jarayonida hosil bo'ladigan quyqaning ko'piklanishini bartaraf etish bo'yicha PAA-gel va "Struktol SB-2195" reagentlari ishtirokida olib borilgan tadqiqot natijalaridan xulosa shuki, PAA-gel reagenti "Struktol SB-2195 reagentiga nisbatan 1,1-1,2 marta samaradorligi kshrsatdi. PAA-gel reagentining 1 t BFX-ga nisbatan maqbul sarfi 25-30 g miqdorida qabul qilindi, hamda birinchi va ikkinchi bosqichlarda  $K_k$  PAA-gel qo'shilmagan jarayondagi  $K_k$  -ga nisbatan mos ravishda 1,39 - 1,42 va 1,80 – 1,90 marta kamayishi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Б.М.Беглов, Ш.С.Намазов, А.М.Реймов, А.Р.Сейтназаров. Активация природного фосфатного сырья. - Ташкент. Изд-во «Академии наук РУз». – 2021. – 252 с.
2. Мирзакулов Х.Ч. Физико-химические основы и технология переработки фосфоритов Центральных Кызылкумов. - Ташкент. Изд-во «Наврз». – 2019. – 416 с. ISBN 978-9943-56-262-2.
3. Волынскова Н.В. Разработка и усовершенствование технологии производства фосфорной кислоты из фосфоритов Центральных Кызылкумов. Дисс. ... докт. техн. наук (DSc). - Ташкент. – 2019. – 196 с.
4. Ёрбобаев Р.Ч. Разработка безотходной технологии получения комплексных удобрений на основе азотнокислотной переработки фосфоритов Центральных Кызылкумов. Дисс. ... д.ф. (PhD) по тех. наук. – Ташкент, 2023, 120 с.
5. Умаров С.А. Разработка технологии получения фосфорсодержащих удобрений разложением фосфоритов Центральных Кызылкумов фосфорной кислотой и смесью серной и фосфорной кислот. Дисс. ... канд. техн. наук. – Ташкент, 2006. - 120 с.
6. Шамаев Б.Э. Переработка фосфоритов Центральных Кызыкумов экстракционной фосфорной кислотой на фосфорсодержащие удобрения. Дисс. ... канд. техн. наук. – Ташкент, 2007. - 120 с.
7. Асамов Д.Д. Нетрадиционные методы переработки высококарбонизированных фосфоритов Центральных Кызылкумов на фосфорсодержащие удобрения. Дисс. ... канд. техн. наук. – Ташкент, 2007. - 120 с.
8. Асамов Д.Д., Мирзакулов Х.Ч. Нетрадиционная технологии переработки высококарбонизированных фосфоритов Центральных Кызылкумов. /Журнал "Химии и химическая технологии". – Ташкент. 2006. №2. -С.23-25.
9. Мирзакулов Х.Ч. Разработка ресурсосберегающей технологии переработки фосфоритов Центральных Кызылкумов на фосфорсодержащие удобрения. Дисс. ... докт. техн. наук. – Ташкент, 2009. - 338 с.
10. Тихомиров В.К. Пены. Теория и практика их получения и разрушения. – М.: Химия, 1983. – С. 11-13.
11. Абдурахманова Н.К. Разработка технологии получения сложных азотфосфорсеросодержащих удобрений на основе фосфоритов Центральных Кызылкумов. Дисс. ... канд. тех. наук. – Ташкент, 2001, 157 с.
12. Баранов В.Я., Фролов В.И. Пены. Получение, свойства и их применение в нефтепромысловом деле: Метод указ. – М.: РГУ нефти и газа им. И.М.Губкина, 2000. - 10 с.